

**OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**NIZOMIY NOMIDAGI**  
**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**T A R I X   F A K U L T E T I**

**«Himoyaga ruxsat etilsin»**  
Fakultet

dekani \_\_\_\_\_

T.f.n., dotsent

V.T.Ishqumatov

2014 yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

5140600 «Tarix» ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi  
**Toshtemirov O'rol Abdullayevichning**  
“Qo'ng'iroq inoqlari hukumronligi davrida Xiva xonligining  
ichki va tashqi siyosati”  
mavzusida yozgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:** «Tarix» kafedrasida  
dotsenti, tarix fanlari nomzodi M.Esonov

---

**«Himoyaga tavsiya etilsin»**  
«Tarix» kafedrasida mudiri  
\_\_\_\_\_ t.f.n., dots **Z.A.Ilhomov**  
2014 y. « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

**TOSHKENT – 2014**

## MUNDARIJA

Kirish.....

### **1-BOB. Xiva xonligining tashkil topishi, xiva xonligi qo'ng'irotlar sulolasining hukmronligi davrida.**

1.1. Xiva xonligining vujudga kelishi.....

1.2. Xiva xonligida qo'ng'irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi....

### **2-BOB. Qo'ng'irotlar hukmronligi davrida xiva xonligining ichki va tashqi siyosati.**

2.1. XVIII-XX asrlarda Xiva xonligining ichki siyosati.....

2.2. Xiva xonligining tashqi siyosati.....

2.3. XIX asrda Xiva xonligining tashqi iqtisodiy aloqalari.....

### **3-BOB. Mavzu yuzasidan bir soatlik dars ishlanmasi.....**

**Xulosa.....**

**Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yhati.....**

**Glossary.....**

**Ilova.....**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** XX asr o'zbek xalqi tarixida ro'y bergan eng muhim voqelik, shubhasiz, davlat mustaqilligiga erishish bo'ldi. Istiqlol sharofati bilan xalqning asriy orzusi ushalib, mustaqillik tufayli o'z e'tiqodi, urf-odatlarini, qadriyatlarini o'z o'rniga qaytdi. Respublika taraqqiyotining o'zbek xalqiga xos bo'lgan xususiyat va an'analarini hisobga olgan holda o'z rivojlanish yo'lini tanlashi, boy madaniyati va ma'naviyatini e'zozlash, xalq istiqboliga qaratilgan milliy istiqbol mafkurasini targ'ib etish, Vatan tarixini xolisona o'rganish va tadqiq etishni hayotiy zaruriyat darajasiga ko'tardi. O'z oldiga huquqiy demokratik davlat qurishni maqsad qilib olgan O'zbekistonning XXI asrdagi istiqbol siyosati – bu jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Zero mazkur jamiyatni barpo etishda, davlat boshqaruvini to'g'ri, izchil yo'lga qo'yishda davlatchiligimizni tarixiy nuqtai-nazardan boshqaruvini o'rganish va boy tarixiy tajribadan foydalanish amaliyotga tadbiiq etish muhim ahamiyatga ega.

Uch ming yillik davlatchilik an'analariga ega bo'lgan o'zbek xalqi tarixida Xorazm davlatchiligi, uning boshqaruv tizimi alohida o'rin tutadi. Prezident I.A.Karimov Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida "Tarixi qariyb uch ming yilga boradigan, buyuk fan va madaniyat o'lkasi bo'lgan, jahon sivilazatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan ulug' zotlar vatani,"Avesto"dek o'lmas asar yaratilgan tabarruk tuproq – Xorazm zamini butun dunyoga ma'lum va mashhur. Bu yurt tengsiz allomalar, aziz avliyolar, podshohu sarkardalar, botir va pahlovonlarni ko'p ko'rgan",<sup>1</sup> deb Xorazm tarixiga bo'lgan bugungi kundagi munosabatni yaqqol ko'rsatib bergan. Shu munosabat bilan Xorazm davlatchiligining muhim bo'lagi qo'ng'irotlar davri davlat boshqaruvini tadqiq etish, ichki va tashqi siyosatni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>1</sup>Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz.-T.: "O'zbekiston", 2000. -B.75.

**Mavzuning xronologik chegarasini** XVIII asrdan XX asr boshlarigacha boʻlgan davr tashkil etib, Xiva xonligining davlat boshqaruvi hamda ichki va tashqi siyosatga oid tadqiqotlar tashkil qiladi.

**Mavzuning oʻrganilish darajasi.** Ushbu mavzu mustaqillik davrida bir qator oʻzbek olimlari tomonidan oʻrganilgan. Xususan, bu borada N.Polvonov va O.Qoʻshjonov<sup>2</sup>, S.Hasanov<sup>3</sup>, A.Abdurasulov<sup>4</sup>, D.Bobojonov va M.Abdurasulov<sup>5</sup>, Q.Munirov<sup>6</sup>, X. Ziyoev<sup>7</sup>, Icxoqxon Junaydullaxoʻja oʻgʻli Ibrat<sup>8</sup>, Davlatyor Raxim va SHohnazar Matrasul<sup>9</sup>, Mulla Olim Maxdum Hoji<sup>10</sup>, Majid Hasaniy<sup>11</sup>, Mirzaolim Mushrif<sup>12</sup>, Gulyamov H.G ning asarlari alohida ahamiyatga ega.

O.Qoʻshjonov va N.Polvonovning “Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar” asarida, asosan, Xiva xonligidagi jadid harakatiga, uning asosida tashkil topgan taʼlim tizimiga qaratiladi.

S.Hasanovning “Xorazm maʼnaviyati dargʻalari” nomli asarida esa Xorazmda etishib chiqqan allomalar va ularning fan sohasiga qanday yangiliklar qoʻshganligi keltirib oʻtiladi.

A.Abdurasulovning “Xiva” asarida Xiva xonligidagi ichki siyosat masalalari, jumladan, madrasalar qatori, ulardagi taʼlim tizimi, adabiy muhit yoritib berilgan. Xususan, taʼlim tizimiga oid quyidagi maʼlumotni uchratishimiz mumkin: “Xivadagi rus-tuzem maktabiniig asosiy maqsadi mahalliy millat bolalariga rus tilini oʻrgatib, mahalliy tarjimonlar tayyorlashdan iborat edn. Chunki hali honlikda rus tilida ish yuritish, kelgan maktublarni oʻqish va tarjima qilish, nomalar bitish sohasida qiyinchiliklar tugʻilayotgan edi. Holbuki, Petro Aleksandrovska (hozirgi Toʻrtkoʻl) shahrida ochilgan rus-tuzem maktabini bu davrda bir qancha xivalik yoshlar, jumladan, Asfandiyor toʻra, Muhammad

---

<sup>2</sup>Qoʻshjonov O., Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar. -T.: 2007.

<sup>3</sup>Hasanov S. Xorazm maʼnaviyati dargʻalari. -T.: 2001.

<sup>4</sup>Abdurasulov A. Xiva.-T.: 1997.

<sup>5</sup>Bobojonov D., Abdurasulov M. Firdavsmonand shahar.- Xiva, 2008.

<sup>6</sup>Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik.-T.: 2002.

<sup>7</sup>X. Ziyoev. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T. «SHarq».1998 y.

<sup>8</sup>Icxoqxon Junaydullaxoʻja oʻgʻli Ibrat. Fargʻona tarixi. T. «Kamalak». 1991 y.

<sup>9</sup>Davlatyor Raxim, SHohnazar Matrasul, Feruz - shoh va shoir qismati. T. «G. Gʻulom», 1991 y.

<sup>10</sup>Mulla Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston, Qarshi «Nasaf» 1992 yil.

<sup>11</sup>Mulla Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston, Qarshi «Nasaf» 1992 yil.

<sup>12</sup>Mirzaolim Mushrif. Qoʻqon xonligi tarixi. T. «G. Gʻulom».1995 y.

Aminaddin Muhammad hoji Aminaddin o'g'li 1892-1897 yillarda Fransiyaning Tuluza shahridan suvxo'jaligi kollejida ta'lim olgan zamonaviy ma'lumotli birinchi o'zbek irrigatori edi".

Yana shu kitobda quyidagi xabar keladi: "Feruz farmoniga muvofiq 1904 yilning 10 noyabrida Urganchda birinchi yangi usul maktabi ochildi. Unda Husayin Qo'shaev degan Turkiyadan kelgan o'qituvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya bera boshladi. Mahalliy xalq vakillarining mazkur maktabga qiziqishi ortib, dekabr oyiga kelib, bu maktab o'quvchilarinisch 45 tasi mahalliy millat farzandlari edilar. Husayin Qo'shaev 1906-1907 o'quv yilida xonlikdagi ilg'or ma'rifatparvar kishilarning, eng avvalo, ota-onalarning orzu istaklarini hisobga olib, Urganchda qizlar maktabi tashkil etdi. Bu muhim voqeadan xursand bo'lgan Feruz Urganchga borib, mazkur maktab ishi bilan tanishdi va Husayin Qo'shaevning boshlagan foydali tadbiri uchun uni qo'llab-quvvatlab, boshoyoq sarpo kiygizdi va xazina hisobidan maktabga yordam berib turishga qaror qildi".

Q. Munirovning "Xorazmda tarixnavislik" asarida Xiva xonligidagi faqat tarixiy asarlarga e'tiborini qaratadi. Muallif xonlikda tarix maktabiga xon Abulg'ozini asos solganini ham eslatib o'tadi.

**Ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Ushbu bitiruv malakaviy ish XVIII asrdan to XX asrgacha bo'lgan davrda Xiva xonligida qo'ng'irotlar sulolasining olib borgan ichki va tashqi siyosati, shuningdek, tashqi siyosatda davlatlar bilan o'rnatgan aloqalari tadqiq qilinadi. Mavzuni yoritishda quyidagi vazifalar belgilangan:

1. Xiva xonligining vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlarini tadqiq qilish.
2. Xiva xonligida qo'ng'irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishini tahlil qilish.
3. XVIII-XX asrlarda Xiva xonligining ichki siyosatini yoritish.
4. Xiva xonligining tashqi siyosatini tadqiq qilish.

**Bitiruv-malakaviy ishning ob'ekti va predmeti.** Xiva xonligida qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligi davrida mamlakatning ichki va tashqi siyosatini

o'rganish ishning asosiy ob'ekti hisoblanib, Xiva xonligida qo'ng'irotlar sulolasining xokimiyat tepasiga kelishi va olib borgan siyosatini kasb-hunar kollejlari va o'rta maxsus ta'lim tizimida, shuningdek oliy ta'lim muassasalarida o'rgatish mavzuning predmetini tashkil etadi.

**Foydalanilgan uslub va uslubiyotlar.** Ushbu mavzuni yoritishda Prezidentimiz I.Karimov tomonidan yaratilgan «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q»<sup>13</sup> kitobida, bugungi kunda tarixchi olimlar oldiga qo'ygan talablar asosida kelib chiqib, mavzuni haqqoniy, ob'ektiv yoritishga harakat qilindi. Shuningdek, davrlashtirish va retrospektiv, qiyosiy tahlil, taqqoslash kabi usullardan foydalanib ushbu mavzu mohiyatini ob'ektiv va haqqoniy ochib berishga harakat qilindi.

**Bitiruv-malakaviy ishning tarkibiy qismini** kirish, uchta bob, beshta paragraf, xulosa va foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati tashkil qiladi.

---

<sup>13</sup> Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». T., «O'zbekiston». 1998.

## **1-BOB. XIVA XONLIGINING TASHKIL TOPISHI, XIVA XONLIGI QO'NG'IROTLAR SULOLASINING HUKMRONLIGI DAVRIDA**

### **1.1. Xiva xonligining vujudga kelishi.**

Markaziy Osiyo ayniqsa o'zbek xalqi tarixida –xonliklar davri alohida o'rin tutadi. Ko'p ming yillik o'zbek xalqi tarixida bu davr o'zining muddati bilangina emas, balki, shu davrda xalqimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan juda katta voqealar bilan ham ajralib turadi.

Temur vafotidan so'ng Temuriy shahzodalar o'rtasida boshlanib ketgan to'xtovsiz urushlar sohibqiron ne mashaqqatlar bilan bunyod etgan qudratli davlatni parchalanib ketishiga sabab bo'ldi. Asta-sekin bu qudratli davlat tarkibidan qator davlatlar va mulklar ajralib chiqib ketdi. Xorazmdan Astrobodgacha keng hududda joylashgan turkmanlar birinchilardan bo'lib temuriylar davlatidan ajralib chiqdilar. Xuddi shu vaqtda Farg'ona vodiysi ham ajralib mustaqil bo'lib oldi. Shuningdek, Hisor va Badaxshon ham mustaqil davlatga aylandi. Natijada O'rta Osiyodagina emas balki, Xuroson va Eron hududlarida ham temuriylar davlati yiqilgan edi.

Temuriylar davrida buyuk Temur davlatining bunday parchalanib ketishi G'arbda Qora dengiz qirg'oqlaridan boshlanib, Sharqda Irtish daryosi va Balxash ko'liga qadar, janubda esa Sirdaryoning quyi oqimlarigacha cho'zilgan. Qipchoq dashtlarida yashovchi O'zbeklar deb atalmish turkiy tilda so'zlashuvchi ko'chmanchilarni Movaraunnahr erlariga hujum qilib uni zabt etishlari uchun qulay sharoit yaratib berdi<sup>14</sup>.

O'z vaqtida mug'ullar istilosi ostida qolgan hududi zabt etilib, Jo'ji ulusiga kiritilgan Dashti Qipchoq aholisi Jo'ji o'limidan keyin uning o'g'illaridan biri SHaybonquli ostida o'zining mustaqil ulusini tashkil etish uchun kurash olib boradi. Natijada Yoyiq daryosining Sharqidan Sirdaryo buylarigacha bo'lgan

---

<sup>14</sup> O'zbekiston tarixi T., «Yangi asr avlodi» 2003 y. 299-334 betlar.

erlarda bunday ulus bapro etiladi. XV asrda ana shu Shaybon boshchiligidagi ulusda yashagan ko'chmanchilar o'zbek nomi bilan atalganlar.

XVI asr Xiva tarixchisi Abdulg'oziyning yozishicha (1603-1664) asosan chorvachilik va ko'chmanchilik bilan shug'ullanuvchi o'zbeklarning ko'pchiligi yozni Yoyiq daryosining yuqori oqimida, qishni esa Sirdaryoning quyi oqimida o'tkazadilar. Bu erda o'zbeklardan tashqari qipchoqlar qo'ng'irotlar uyshun, nayman va boshqa qabilalar ham yashagan bo'lib, ular o'sha o'zbeklar tarkibiga kirar edi.

XV asrning 20 yillariga kelib Dashti Qipchoq urug'lari ichida Shayboniylar urug'i (o'zbeklar) oldinga chiqdi. Bu urug'ning eng ko'ga ko'ringan vakili, ko'chmanchi o'zbeklar davlatining asoschisi Abdulxayrxon bo'lib, u o'zidan oldin bu erda hukmronlik qilgan Baroqxondan farqli o'laroq, taxtni o'zgar yordamida emas, balki bir qator o'zbek qabilalari, chunonchi Nayman, Qo'ng'irot, Qiyot, Durman, Uyg'ur, Uyshun va boshqa qabilalarning yordamida egalladi. U juda qisqa vaqt ichida yirik davlatni vujudga keltirdi va bu davlatni uning o'zi 1428 yildan 1468 yilgacha boshqardi<sup>15</sup>.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, Abdulhayrhon boshliq o'zbeklar asosan ko'chmanchi xalq bo'lib chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Shu bois ularga chorvachilik mahsulotlarini hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga almashadigan xalqlar va hududlar kerak edi.

Bundang tashqari bu davrga kelganda ko'chmanchi o'zbeklarning katta qismi feodal munosabatlarning rivojlanishi natijasida o'z o'tloq va podalaridan ajragan bo'lib, ularning o'troq hayot kechirishi uchun Movaraunnahr erlari kerak edi.

Shu va boshqa bir qator sabablarga ko'ra hali Abdulxayrxon davridanoq o'zbeklar Sirdaryoning quyi oqimidagi Sig'noq, Oqqo'rg'on, Suzoq, Uzgan va boshqa erlarga hujum qilib, u erlarni bosib oldi.

Ko'chmanchi o'zbeklar tomonidan Movaraunnahr hududlarini egallash uchun kurash Abdulxayrxonning nabirasi Muhammad Shohbaht Shayboniy

---

<sup>15</sup> O'sha manba. 320-332-betlar.



davrida (1451-1510) kuchaydi.

XV asrning ikkinchi yarmida Movaraunnahrdagi o‘zaro kurashlar bilan band bo‘lgan temuriylarning asosiy raqibi shimoldagi mo‘g‘ullar edi. Ularning Movaraunnahr erlariga to‘xtovsiz talonchilik hujumlaridan bezor bo‘lgan temuriy shahzodalar mo‘g‘ullarga qarshi kurashda Shayboniyxondan foydalanish maqsadida u bilan ittifoq tuzdilar. Biroq Shayboniyxon bu ittifoqqa tez-tez xiyonat qilib, goh temuriylar, goh mo‘g‘ullar tomonida turib harakat qilar edi.

Shayboniyxon bobosi Abdulxayrxon Dashti Qipchoqda tashkil etgan davlatni bir tomonlama kuchaytirib, o‘z oldiga hali o‘sha bobosi rejalashtirgan Movaraunnahr erlarini bosib olish ishini hal etishni maqsad qilib qo‘ydi va uni amalga oshirishga kirishdi. Bu ishga kirishar ekan, Shayboniyxon eng avvalo 1480 yilda Qozoq xoni Burunduqxonga katta zarba berdi. Shundan so‘ng Shayboniyxon 1488-1500 yillar ichida O‘ror, Yassi, Sig‘anoq, Shaxrisabz. Turkiston shaharlarini egallaydi. SHundan so‘ng Temuriylar poytaxti Samarqandni egallashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

Shayboniyxon 1499 yilda dastlab Samarqandni qamal qilganda bu erda Sulton Ahmad Mirzoning o‘g‘illaridan biri, Sulton Ali Mirzo hukmronlik qilardi. Uning qobiliyatsiz, har tomonlama ojizligidan xabar topgan Shayboniyxon Samarqand shahriga kirmay Shahrissabz va Qarshi shaharlarini talab Qipchoq dashtiga qaytib ketadi. Ozroq vaqt o‘tgach Shayboniyxon Toshkent hokimi Mahmudxondan ozroq yordam olib, Samarqandga yangidan hujum boshlaydi. Xuddi shu payt Buxoro hokimi Muhammad-Boqi tarxon qo‘shinlari Samarqand hukmdori Sulton Ali Mirzoga yordamga kelayotganligini haqida SHayboniyxon xabar topadi. Shundan so‘ng u Samarqand qamalini to‘xtatib, asosiy kuchlarini Buxoro qo‘shinlariga qarshi qaratadi natijada Dabusiya qal’asida (hozigi Ziyovuddin stansiyasi yaqinida) bo‘lgan jangda (1500) Shayboniyxon qo‘shinlari g‘alaba qozonadilar. Shundan so‘ng Shayboniyxon Buxoroga tomon shiddat bilan harakat qiladi va shaharni uch kun qamaldan so‘ng qo‘lga kiritadi. Shayboniyxon tomonidan Buxoroni qo‘lga kiritilgani haqidagi xabar Samarqandning hukmron doiralari orasida sarosima keltirib chiqaradi Samarqand hukmdori Sulton Ali

Mirzodan norozi bo'lgan amirlarning bir guruhi Andijonda hukmronlik qilayotgan temuriy Bobur ixtiyoriga, ikkinchi guruhi, Sulton Ali Mirzoning Toshkentda hukmronlik qilayotgan akasi Uvays Mirzo yoniga ravona bo'ldilar<sup>16</sup>.

Voqealar rivojini sinchiklab kuzatib turgan Samarqand hokimi Sulton Ali Mirzo bu vaziyatda SHayboniyxon bilan muzokaralar olib borishni lozim topib, bir guruh o'ziga yaqin kishilar bilan uning huzuriga tashrif buyuradi.

Shu tariqa Shayboniyxon 1500 yilda jangsiz Samarqandni birinchi marta egallaydi. Sulton Ali Mirzoni qatl etib, shaharni ayovsiz tarzda talaydi..

Biroq, Samarqand ruhoniylarining ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biri xo'ja Abdulmakarim yordamida Bobur tez orada Samarqandni egallab, shayboniylarning shaharda qoldirilgan qo'shinlarini va ularni tarafdorlarini qirib tashlaydi. Shundan so'ng Bobur Shayboniyxon qo'shinlarini ta'qib etishga kirishadi. Lekin 1501 yil aprelida Zarafshon daryosi bo'yida Sariko'l degan dashtdagi jangda talofat ko'rib Samarqandga chekinadi. Bu erda 4 oy qamalda bo'lib, oxiri 1501 yilning ikkinchi yarmida Samarqandni tashlab chiqadi va Toshkent hokimi Mahmudxon huzuriga ketadi. Shayboniyxon ikkinchi marta Samarqandni qo'lga kiritib, uni ayovsiz taladi.

Shayboniyxon Samarqandni qo'lga kiritgach, 1503 yilda Sirdaryoning yuqori qismiga qarab yurish qildi. Bu erda (Toshkent hokimi) Mahmudxon, Bobir boshliq birlashgan kuchlarga duch keldi. Arxiyon yonidagi shiddatli jangda ular ustidan g'alabaga erishib. Toshkent, Shoxruhiya, Farg'ona shaharlarini qo'lga kiritdi(1504).

Shayboniyxon 1505 yilda Xorazmni, Movaraunnahrning asosiy shaharlarini egallagach, Xurosonni va unga qarashli erlarni bosib olishni maqsad qildi.

Xuroson sultoni Husayn Boyqaro (Sulton Husayn) (1489-1506) o'zining to'ng'ich o'g'li Balx hokimi Badiuzzamon bilan birga Shayboniyxonga qarshi kurashmoqchi bo'ladi. Lekin bu ko'zlangan natijani bermaydi. Muhammad SHayboniyxon Hirotga qarshi yurish arafasida Husayn Boyqaroning ikki o'g'li

---

<sup>16</sup> Istoriya Uzbekistana. T. Universitet, 2004 g. s. 74-87.

Badiuzzamon bilan Muzaffar Mirzo o'rtasida taxt kurashi boshlanadi. Natijada Hirot taxtiga ular bir vaqtda podsho bo'lib ko'tariladilar. Bu Shayboniyxonga qo'l keladi. SHayboniyxon qo'shinlari 1504 yilda Xisravshoh hukmronlik qilgan Qunduz shahrini egalladi. 1507 yilda esa Shayboniyxon Xuroson poytaxti Hirotni egalladi, so'ngra Astrabodni egalladi. Taxt talashgan aka-uka temuriylar esa biri G'arbga, biri Sharqqa qochdi. Qisqa vaqt ichida Shayboniyxon Temuriylar erlari bo'lgan Buxoro, Samarqand, Balh Mahshad, Nishopur, Kaba shaharlarini egalladi. U Sirdaryodan Afg'onistongacha bo'lgan erlarning hukmdori bo'lib oldi. Faqatgina Sirdaryo bo'yidagi erlar Toshkent hukmronligida bo'lsada, bular ham SHayboniyxonga yarim qaram edi. Xullas Shayboniyxon 8 yil ichida Timuriylar davlati hududlarini butunlay istilo qildi. Shayboniyxonning birin-ketin bergan harbiy zarbalari tufayli Temuriylar davlatining qulashiga olib kelgan asosiy sabablar haqida ham alohida to'xtalib o'tish zarur bo'ladi.

Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo Shayboniyxon hujumi arafasida o'lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni yomonligi, mehnatkash xalq ommasining qashshoq hayoti ko'chmanchi o'zbeklar-g'alabasining asosiy omillarida biri bo'lganligini ko'rsatib o'tish zarurdir<sup>17</sup>.

Ahvol shunga borib etgan ediki, Farg'onadek eri serunum, dehqoni mirishkor yurtda o'zbeklar hujumi kunlarida 3-4 ming askarni boqish uchun mablag' yo'q edi.

Temuriylar o'sha davrdagi og'ir iqtisodiy ahvolini ular saroyida xizmat qilgan o'z davrining zabardast shoirlaridan biri Binoiy shunday hikoya bilan ifodalaydi: "Na egulik g'allam bor va ne kiyimga g'amlangan baxmalim bor. Eyadigani, kiyadigani bo'lmagan kishi ilm va hunarga qanday urina olsin."

Ana shunday og'ir iqtisodiy ahvol sabab mamlakatda ko'p ruhoniylar va ziyolilar SHayboniyxon tarafiga o'tib ketgan edilar.

Tinib-tinchimagan Shayboniyxon 1508-1509 yillarda qozoq erlari ustiga yurish qildi va erlarni egalladi. Natijada Shayboniyxon bir tomondan Kaspiy dengizi qirg'oqlaridan Xitoygacha, ikkinchi tomondan Sirdaryo qirg'oqlaridan

---

<sup>17</sup> O'zbekiston tarixi - Toshkent Davlat universiteti - T. Universitet, 1997 yil

Markaziy Afgʻonistongacha choʻzilgan erga ega boʻlgan yirik feodal davlatga ega boʻldi.

Bu bilan ham kifoyalanmagan Shayboniyxon 1510 yildan boshlab qolgan Xuroson erlarini bosib olishga kirishdi. Xuddi shu vaqtda. Yaʼni XV asrning oxirlarida Erondagi oʻzaro feodal urushlar natijasida xokimiyat tepasiga safaviylar sulolasining koʻzga koʻringan vakili Ismoil Safaviy kelgan edi. Ismoil Safaviy Xurosonni Shayboniyxondan tortib olmoqchi boʻldi. SHayboniyxon bunga koʻnmadi. Natijada Ismoil Safaviy Shayboniyxonga qarshi qoʻshin tortdi va 1510 y. dekabrda Marv yonidagi jangda Shayboniyxonning 17 minglik armiyasi qirib tashlandi. Shayboniy asirga olinib kallasini kesildi va uni kallasidan shox Ismoil sharob ichadigan idish yasatdi.

Ismoil Safaviy butun Xurosonga ega boʻlib chegaralari Ozarbayjondan Bogʻdodgacha choʻzilgan Eron davlati xududlarini yanada kengaytirdi.

SHayboniyxon oʻldirilgach, Xorazm xam Eron shoxi Ismoil qoʻli ostiga oʻtadi va Xorazmda Eronlik **“qizilboshlar”** xukmronligi boshlandi.

Xorazmda 1511 yilda Eronlik “qizilboshlarga” qarshi fitna uyushtirildi. Oʻz vaqtida Abdulxayrxonga qarshi chiqqan Xorazmdagi oʻzbek urugʻlari oʻsha Qipchoq Dashtida Shayboniylar bilan yonma-yon yashagan va ular bilan nodoʻstona munosabatda boʻlgan Berka sultonning ikki oʻgʻli Elbarsxon bilan Bilbarsxonni Xiva taxtiga yashirincha taklif qiladilar. Aka-ukalar bu takliflarga koʻra Xivaga keladilar. Xiva xalqi “qizilboshlarni” gʻdarib Elbarsxonni xon etib koʻtardilar. Bu voqea 1511 yilda sodir boʻladi. Xonlik tasarrufiga Xorazm-Amudaryo etaklaridagi qadimiy dehqonchilik vohasi, Mangʻitqishloqning Abulxon togʻlari Mashhadi Mirsiyon va Oʻzboy atrofidagi hududlar kirgan. Elbarsxon tez orada Xorazm erlarini shimoliy Xurosonning kattagina erlari, Amudaryoning oʻng sohilidagi erlar va Turkistonning janubiy erlarigacha boʻlgan erlar hisobiga kengaytirildi. Va ana shu hududda Xiva xonligiga asos soldi. Xonlikning poytaxti dastlab Vazir shahri, keyin Koʻhna Urganch va Xiva boʻlgan.

Biroq, 1511 yilda Elbarsni Xiva xonligiga asos solgan boʻlsada, uning oʻzining davridayoq xonlik bir necha feodal egaliklarga boʻlingan boʻlib, ularni

boshqarayotgan shahzodalar o'rtasida uzluksiz feodal urushlar bo'lib turdi. Ayniqsa, bu urushlar 1538 yilda Elbarsxon o'lgach (Elbarsxon 1511-1538 yilda hukmronlik qilgan) uning vorislari davrida kuchayib ketadi. Buning ustiga Xiva xonligiga qarshi Shayboniylardan Ubaydullaxon (1538) yurish qildi va Xiva xoni Avanesni o'ldirib, o'rniga o'z o'g'li Abdulazizni o'tkazadi. Uning davrida yana feodal urushlar ko'payadi. Buni ayniqsa Xiva taxtida Arab Muhammad (1602-1643) o'tirgan davrda yaqqol ko'rish mumkin edi. Qisqasi XVI asr 40-yillaridan boshlab Xiva xonligida o'zaro kurashlar, ayniqsa xonlikdagi o'zbeklar bilan turkman urug'lari o'rtasidagi ziddiyatlar, qolaversa atrofdagi qozoq va qalmiqlarni hujumlari xonlikni zaiflashtirdi. Xonlikdagi bunday og'ir ahvoldan foydalangan Buxoro xonlari Subhonqulixon (1680-1702) va Eron shohi Nodirshohlar (1740) Xiva taxtini o'z qo'llariga kiritadilar. Biroq Xiva xonligida bundan keyin ham tinchlik bo'lmadi. Bu erda Eron hukmdorlariga qarshi tez-tez g'alayonlar ko'tarilib turdi. Bundan foydalangan o'zbek qabilalaridan biri-Qo'ng'iro't urug'ining boshlig'i Muhammad Amin Inoq xonlik taxtini egallab, xonlikda yangi-qo'ng'iro't sulolasiga asos soldi.

1804 yilda Qo'ng'iro't inoqlari yirik vakillaridan biri Muhammad Rahimxon Xiva taxtini egallab, 1806-1825 yillar davomida xonlik qiladi. Uning davrida xonlik har taraflama kuchayadi va markaziy hukumat mustahkamlanadi. Lekin uning vorislari Muhammad Eminxon, Qutlimurod, Olaqullilar davrida Xiva xonligidagi ahvol yana murakkablashdi. Xiva xonligi 1920 yil fevralida bolshevoylar tomonidan ag'darildi.

## **1.2. Xiva xonligida qo'ng'iro'tlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi**

Xiva xonligidagi siyosiy vaziyat hukmron tabaqalarning urushlari va qabilalar o'rtasidagi mojarolarni to'xtatishga qodir bo'lgan kuchli markaziy hokimiyatning barpo etilishini taqozo etardi. Bunday hokimiyatni barpo etishga qodir kuch sifatida maydonga o'zbeklarning qo'ng'iro't qabilasi chiqdi. Bu

zaruriyatning natijasi o'laroq, XVIII asrning 60- yillaridan boshlab, Xiva xonligida hokimiyatni qo'ng'iroq qabilasi boshliqlari asta-sekin o'z qo'llariga olib boshladilar.

Yirik zodagonlar va ruhoniylar tabaqasining madadiga tayangan qo'ng'iroq qabilasining yo'l boshchisi Muhammad Amin 1761-yilda inoqlik lavozimiga ko'tarilgan. U turkmanlarning yovmut va chovduz qabilalariga qarshi kurash olib borgan. Biroq u dastlab muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Buxoroga - Doniyolbiy otaliq yoniga ketadi. Turkman qabilalari Xorazmni egallab, Hazorasp, Xonqa, Urganch, Kat, Shohobod shaharlarini xonavayron qiladilar. Ocharchilik va vabo tarqalib, o'zbeklar Orol va Buxoroga ketishga majbur bo'ladilar. 1770- yilda Muhammad Amin inoq Buxorodan qaytib kelib, yovmutlarga qarshi kurashni uyushtiradi va ularni Xorazmdan haydab chiqaradi<sup>18</sup>.

Muhammad Amin mahalliy beklarni ham bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. U xon avlodidan bo'lmagani sababli taxtga Abulfayzxonning o'g'li Bo'lakayxonni nomiga, qo'g'irchoq xon sifatida o'tqazadi. Hokimiyatni esa o'zi boshqaradi. 1782- yilda Buxoro amirligi qo'shinlarining hujumini qaytarib, Xiva xonligi mustaqilligini saqlab qoladi. Xiva xonligini boshqargan Muhammad Amin<sup>1</sup> inoq 20 yil davomida 13 marta soxta xonlarni almashtirgan.

Hukmronligining so'nggi yillarida o'z qabilasining faol qatlamiga, savdogarlar va ruhoniylar madadiga tayangan hamda turli turkman qabilalari o'rtasidagi o'zaro nizolardan oqilona foydalana olgan Muhammad Amin mamlakatda nisbatan siyosiy osoyishtalik vaziyatini yaratishga erishdi. Bularning barchasi mamlakat iqtisodining ko'tarilishini ta'minlaydi. Jon saqlash uchun o'zga yurtlarga qochib ketgan fuqarolar yana qaytib kela boshladilar. Avaz Muhammad inoq davrida Xiva xonligi iqtisodiy jihatdan ancha mustahkamlandi.

Muhammad Amin ham, uning o'g'li Avaz (1790-1804) ham davlat hokimiyatini inoq unvonida boshqarganlar. Qozoqchigiz biylaridan soxta xonlar chaqirilib turilgan. Hokimiyat amalda inoq va maxsus kengash tomonidan

---

<sup>18</sup> I.SHodmonqulov, Q.Ergashev, H.Hamidov, N.Ergashev, I.Abdurahmonov, F.Ernazarov "O'zbekiston tarixidan ta'lim texnologiyalari" TDIU. 2006 y

boshqarilgan. Kengash tarkibiga qo'shbegi, mehnat, vazir va otaliqlar kirgan. Inoq va kengash soxta xon nomidan ish yuritgan.

Faqat Avazning o'g'li Eltuzar (1804-1806) hukmronligi davrida chetdan soxta xon chaqirish to'xtatildi. Nafaqat to'xtatildi, ayni paytda 1804- yildayoq chetdan chaqirilgan soxta xon Abulg'ozini taxtdan tushirib, o'zini xon deb e'lon qildi. Shu tariqa, qo'ng'irotlar sulolasi Xiva xonligi taxtini rasman egalladi. Bu sulola 1920- yilga qadar Xiva xonligini idora qildi.

Eltuzarxon xonlikda markazlashgan davlat siyosati yuritish uchun harakat qiladi. 1804- yilda Eltuzarxon Buxoroga yurish qildi. 1806-yilda Amudaryo bo'yida bo'lgan hal qiluvchi jangda Xiva qo'shinlari tor-mor etildi, Eltuzarxon ham halok bo'ldi.

Eltuzarxon vafot etgach taxtga uning ukasi Muhammad Rahim I o'tirdi. Muhammad Rahim I Xiva xonligini siyosiy jihatdan birlashtirishga kirishdi.

Ayni paytda turkmanlarni bo'ysundirish masalasi yetakchi o'ringa chiqdi. Turkmanlarning turli qabilalari qanchalik qattiq qarshilik ko'rsatmasinlar, birin-ketin bo'ysundirilib borildi.

Bo'ysunishni istamagan yovmut qabilasi Xurosonga ko'chib ketdi. Biroq, Eron hukumatining tazyiqi ostida, shuningdek, yaylov maydoni topilmaganligi uchun yana Xiva xonligi hududiga qaytib keldi. Endi ular Xiva xoni tomonidan ajratib berilgan hududga joylashishga majbur bo'ldilar. Shu davrdan boshlab yovmut qabilasining taqdiri Xiva xonligi bilan uzil-kesil bog'landi va ular xonlik fuqarolari tarkibiga olindi. Ularga ham soliq to'lash belgilandi. Shuningdek, xon qo'shiniga belgilangan miqdorda navkar yuborish majburiyati ham yuklandi.

Uzoq davom etgan urushlar va yillab sarson-sargardonlikda yurish yovmutlarni qishloq xo'jaligidan ancha uzoqlashtirib qo'ygan edi. Shu tufayli ular xon qo'shinida sidqidildan xizmat qildilar. Ulardan o'z zamonasining eng jangovar otliq harbiy qism tuzilganligi ham bejiz bo'lmagan.

Muhammad Rahimxon I o'zbeklar va turkmanlardan tuzilgan qo'shinga tayanib yirik zodagonlar qarshiligini sindirish uchun shiddatli kurash olib bordi. Bu kurashda o'z raqiblarini birin-ketin bo'ysundira bordi.

Muhammad Rahim I ga dushmanlik ruhidagi Orolbo'yi zodagonlari guruhi qattiq qarshilik ko'rsatdi. 1811 - yilda uning ham qarshiligi sindirildi. Qo'ng'iroq shahri yakson qilindi. Xiva xoni mustaqil bo'lib ajralib chiqqan qoraqalpoqlarni bo'sundirishga kirishdi. Qoraqalpoqlar Buxoro amiri Haydardan yordam olishga harakat qildilar. Biroq, bunga erisha olmagach, Xiva xonligiga bo'sunishga majbur bo'ldilar<sup>19</sup>.

1812-1820- yillar oralig'ida qozoqlarning Kichik juz xonligi hududiga 2 marta hujum uyushtirildi. Buning oqibatida, xonlik hududlarining yanada kengayishiga erishildi.

1813- yilda Shimoliy Xurosonda joylashgan turkmanlarning takya qabilasi Xiva xonligiga qaramligini tan olishga va belgilangan hajmda soliq to'lab turishga majbur etildi.

1822- yilda esa Marv shahri xonlikka qo'shib olindi. 1824yilda Yangi Marv shahri bunyod etildi.

Muhammad Rahimxon I bo'sundirilgan qabilalar zodagonlarining qabila orasidagi mavqeyi nihoyatda qudratli bo'lganligini hisobga olib, Ularga u yer-mulk va turli imtiyozlar in'om etgan. Bu omil xonlikda siyosiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishi kerak edi.

Muhammad Rahimxon I davrida xonlik siyosiy jihatdan birlashtirildi. Ayni paytda mamlakatda nisbiy barqarorlik ta'minlandi. Uning hududlari yanada kengaydi.

Xiva xonlari Olloqulixon (1825-1842) va **Muhammad Amirxon (1846-1853)** davrida ham o'zaro urushlar to'xtamadi. Olloqulixon Buxoroga 7 marta, Xurosonga 5 marta yurish qilgan bo'lsa, Muhammad Aminxon Marvgacha 10 marta yurish qiladi. o'nlab shahar va qishloqlar talanadi. Zulm, talonchilik davom etdi. Xalq turmushi og'irlashib bordi.

---

<sup>19</sup> Azamat Ziyov «O'zbek davlatchiligi tarixi T. «SHarq» 2000 y. -B.122.



## **2-BOB. QO'NG'IROTLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA XIVA XONLIGINING ICHKI VA TASHQI SIYOSATI.**

### **2.1. XVIII-XX asrlarda Xiva xonligining ichki siyosati.**

Temuriylar o'rtasida kelib chiqqan o'zaro qonli urushlar bois, XV asrning oxirlari -XVI asrning boshlariga kelib, ularning davlati har taraflama o'zining kuch-qudratini yo'qotadi. Movaraunnahrda Shayboniylar hukmronligi o'rnatildi. Muhammad Shayboniy vafotidan keyin esa o'lka hayotida yana alg'ov-dalg'ov yillar boshlandi. Shu sababli bu erda mustaqil uch xonlik vujudga keldi. Xonliklar davrida ham o'lkada birlik, tinchlik bo'lmadi. Bu o'z navbatida xonliklarni Chor Rossiyasi va Sho'rolar hukumati tomonidan yo'qotilishiga sabab bo'ldi.

Xiva xonligida boshqaruv tizimi juda murakkab bo'lib, urug'chilikka asoslangan byurokratik tizim mavjud edi. Xivada boshqa xonliklardan farqli o'laroq inoq degan lavozim bo'lib, bu lavozimni egallagan odam xondan keyingi odam hisoblanib, amir-ul-umaro, ya'ni hukmdorlar hukmdori deb atalardi. Xonlikda devonbegi ham bo'lib, u xonning o'zidan keyingi amaldor hisoblanardi. Yana qo'shbegi degan lavozim bo'lib, unga xonlikning janubiy qismidagi o'troq aholi buysunardi. Bu erda xon, vazir va qushbegidan tashqari yana 5 kishidan iborat xon maslahatchilari (ular urug' boshliqlaridan tuzilardi) bo'lgan har urug' boshliqlaridan (inoqlar va otaliqlar) 2 kishi davlat boshqaruviga kirgan.

Xiva xonlik boshqaruvida yasovullar shtati bo'lgan. Yana yuzboshi, mingboshi kabi amaldorlar bo'lgan. Yana joylardagi amaldorlar o'zlarining quyi boshqaruv tizmlariga ega bo'lib, o'z erlarini mustaqil boshqarishgan. Xonlik o'z navbatida okruglarga bo'lingan bo'lib, ularni hokimlar va qozilar boshqargan. Xonlikda yashovchi turkman, qozoq va qoraqalpoqlar hokimlarga buyso'nmay, faqat o'zlarining urug' boshliqlariga itoat qilganlar. Turkmanlarda ular bek hamda vakillar deyilsa, qoraqalpoq va qozoqlarda biy deb atalganlar. Xonlikda din ahllari: so'filar, shayxlar katta hurmat e'tiborga ega bo'lganlar.

Xonlikda XIX asr 1 yarmida ham feodal munosabatlarning rivojlanib

borishiga qaramay, o‘tmish patriarxal hayot qoldiqlari saqlanib qolayotgan edi. Er hamda suv xon, yirik feodallar qo‘lida edi. Ayrim feodallar qo‘li ostidagi erlar 15 ming tanobni tashkil qilganda, oddiy jamoa a‘zosi bo‘lgan dehqonning eri 1-2 tanobdan oshmas edi.

Rus elchisi (Moskva) Ivan Xoxlov ma‘lumotiga ko‘ra XVII asrda xon qo‘shinlari soni 15 mingdan 30 mingga bo‘lgan.

Xiva xonligi iqtisodini bu davrda og‘ir soliqlardan tushgan pullar tashkil qilgan. Iqtisodiy hayot xonlikda juda og‘ir bo‘lgan. Xiva xonligida erning bir qismi hukmronlik qildayotgan sulola a‘zolariga (to‘ralarga), shuningdek harbiy boshliqlarga (sarkardalarga) hamda vaqf erlari sifatida masjid-madrasalarga berilgan. Bu erlarda ishlovchi ijarachilar “bevatanlar”, “yarimchilar” deb atalganlar. Oddiy mehnatkash xonga “salgut” deb atalgan og‘ir er solig‘ini to‘lagan. Yana “begar” deb atalgan majburiyat bo‘lib, bunga asosan har bir xonadondan bir kishi 12 kun davomida xonga ishlab bergan. Aholining dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan qismi suvni etishmasligidan azob chekkan. Boylarning erlarida qullar ishlab zilgan. Shahardagi hayot bu davrda og‘ir bo‘lgan. Shahar aholisi hunarmandchilik, ayrimlari dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Bug‘doy, arpa ekkan, qurt boqishgan. Savdo kam rivojlangan. Chunki qaroqchilar hujum qilib turgan. Savdoni og‘ir ahvolga tushishi shahar aholisi hayotini yomon ahvolga tushirib qo‘yganini 1558 yilda xivani kuzatgan Jenkinson yozadi<sup>20</sup>.

1573-1575 yilda Amudaryo o‘z izini o‘zgartiradi natijada eski izi atrofidagi joylashgan qishloq va shaharlarda hayot to‘xtaydi. Odamlar eski Urganchdan, yangi Urganch janubroqqa o‘tib yashaydigan bo‘ladi.

Amudaryo eski o‘zanini qurishi xonlik markazini Xivaga ko‘chishiga sabab bo‘ladi.

Amudaryo o‘zanini o‘zgarishi mamlakat iqtisodiy hayotiga katta ta’sir qildi. Xonlik xazinasi bo‘shab, hatto amaldorlarga ham yillab oylik to‘lanmay qoldi.

Qishloq xo‘jaligida asosan qo‘l mehnatidan foydalanilgan. Mehnat qurollari

---

<sup>20</sup> Gulyamov H.G. Srednyaya Aziya I Rossiya: istoki formirovaniya mejgosudarstvennix otnosheniy. T., "Universitet" 2005 g. 3-60 st.

qoloq bo'lgan. Bu o'z navbatida xonlikda iqtisodiy ahvolni yomonligiga sabab bo'lgan Har uch xonlikda, jumladan Xiva xonligida ham o'z puli bo'lgan. Bu pullar oltin, kumush tangalar va mis puldan iborat bo'lgan.

XVIII asr boshlariga kelganda iqtisodiy tushkunlik vujudga keldi. Bunga sabab shu davrda o'zbeklar bilan turkmanlar o'rtasidagi to'xtovsiz urushlar, Buxoro xonlarining Xiva xonlari ichki ishlariga aralashuvi, Qozoq qolmiqlarini to'xtovsiz hujumlari, Eron shohi Nodirshohni Xorazmni 1740 yilda bosib olishi (Elbarsxon davrida) bo'ldi.

Bundan foydalangan Petr I 1714-1717 Xorazmga Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasini yubordi. Bu vaqtda Xiva taxtida Sherg'ozixon o'tirgan edi. (1715-1718 yillar)

Xiva xonligida aholi XIX asr I yarmida 350000-500000 ni tashkil qilgan. Asosiy qismi o'troq aholi edi. Bir qismi chorvachilik bilan shug'ullangan.

Xiva xonligining ijtimoiy-siyosiy tuzumi XIX asr oxiri — XX asr boshlarida deyarli o'zgarmadi. Rossiya imperiyasi hukumati Xivani doimiy nazoratda tutar va ichki siyosatdagi, shuningdek, tashqi siyosatdagi arzimasi o'zgarishlarni Xiva hukumati Turkiston general-gubernatori bilan kelishib olishi lozim edi. Xon ustidan nazorat qilish maqsadida 7 kishidan iborat Kengash (devon) ta'sis etilgan bo'lib, ulardan to'rt nafari podsho hukumati ma'muriyati vakillari edi.

Amudaryoning bir zamonlar Xiva xonligi tasarrufida bo'lgan va Gandimiyon shartnomasiga ko'ra Rossiya ixtiyoriga o'tgan o'ng qirg'og'i hududida Turkiston general-gubernatorligining Amudaryo bo'limi tashkil etilgan bo'lib, uning boshlig'i ayni mahalda Rossiyaning Xiva xonligidagi vakili sifatida mamlakatni boshqarishda xonning hamma harakatlari ustidan nazoratni amalga oshirar edi.

Xonlik qo'ng'iroq urug'i avlodiga mansub xon boshida tu-ravchi feodal monarxiya edi. Qo'ng'iroqlar siyosiy, ijtimoiy hayotda va harbiy ishlarda uningsuyangan tog'i edi. Qo'ng'iroqlarning yillik tarixga ega va o'zbek xalqining madaniy rivojlanishi-da muhim rol o'ynagan turkiy urug'dir. Xon cheklanmagan mustabid ma'muriy-sudlov va harbiy ho-kimiyatga ega edi. U

mamlakatni qo`ng`irot urug`i zodagonlari, saroy a`yonlari va oliy ruhoniylar guruhi madadiga tayanib boshqarardi. Demak, siyosatni, davlat faoliyatini belgilashda xon hokimiyati Xiva xalqining manfaatlari bilan hech bir mushtarak jihatlari bo`lmagan, tor xudbinona manfaatlardan kelib chiqib, ish olib borar edi.

Lashkar Xiva davlatida xalq qarshiligini bostirish va davlat yaxlitligi uchun kurash vositasi edi. U uyushmagan, tartibsiz va nochor qurollangandi. Lashkar xonning yasovul qo`shinlarini (uni **yasovulboshi** boshqarar edi) ifoda etuvchi 1,5 ming kishidan iborat muntazam qo`shin, harbiy harakatlar davrida yig`ilib keluvchi xalq lashkari va turkman otliq sipohiylaridan iborat bo`lgan.

Xiva xonligi ma`muriy jihatdan 20 ta bekklik yoki viloyatlarga bo`lingan edi. Ulardan eng yiriklari Hazorasp, Urganch, Qiyot, Ko`hna Urganch, Xo`jayli, Qo`ng`irot edi. Ulardan har biriga xon tomonidan tayinlangan bek yoki hokim rahbarlik qilar edi. Xiva shahri va uning tevaragi xonning tasarrufida bo`lgan. Ana shu mansabdor shaxslarning barchasi xorazmlik oddiy dehqonlarni ekspluatatsiya qilish va ulardan olinadigan soliqlar hisobidan kun kechirar edi.

Sudlov hokimiyatida ham beboshlik hukm surar, hokimiyatga qarshi arzimas jinoyat uchun o`lim jazosi qo`llanar edi.

**Devonbegi** (devonxona mutasaddisi) xonning oliy amaldorlari va yaqin maslahatchisi bo`lgan.

Din arboblari mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga ulkan ta`sir ko`rsatar edi. Xiva Buxorodan keyingi islom dini markazi sanalardi. Bu yerda dindorlar qadamjosiga aylangan 60 dan ortiq **avliyo** dahmalari mavjud edi. Mamlakatda qariyb 45 ming o`quvchi ta`lim oladigan 15 mingga yaqin **maktablar** bo`lgan. O`quvchilardan ayrimlari maktabni bitirib, oliy o`quv yurtiga o`qishga kirar va bu yerda 10 yilgacha ta`lim olishardi. Bunda asosiy fanlar: ilohiyotshunoslik, arab grammatikasi, islom falsafasi va huquqi, shuningdek, elementar arifmetika va geometriyadan ta`lim berilar edi. Madrasa talabalari imtihon topshirganlaridan keyin bo`sh turgan qozi, imom va boshqa nufuzli, serdaromad lavozimlarni egallashlari mumkin edi.

Aholi orasida *so`fiylik* tariqatiga ixlos qo`ygan kishilar ko`pchilikni tashkil etar edi. Xorazmda XII asrdayoq asos solingan kubraviya tariqati ayniqsa keng tarqalgan va katta ta`sir kuchiga ega edi. Ju tariqatga eigashgan kishi alohida so`fiylar jamoasiga rahbarlik qiluvchi o`z ma`naviy piri — *eshonning muridiga* aylanib qolar va o`z xohish-irodasidan butkul voz kechar edi. Ma`naviy pirlaiga bo`ysungan muridlar o`z daromadlarining bir qismatni eshonga berishardi. Xivada so`fiylik ayollar orasida ham keng tarqalgan edi.

Xiva xonligida darveshlik ham keng yoyilgan bo`lib, qashshoq darveshlar — *qalandarlar* jamoasiga birlashgan, uning a`zolari meros tariqasida darbadarlik va qashshoqlikda kun kechirardilar. Qalandarlar islom va hokimiyatga mutelikni targ`ib etgan holda aholining barcha qatlamlariga katta ta`sir o`tkazar edi.

Yer egaligi Shakllari . G`alla yetishtirish qishloq xo`jaligining asosiy tarmog`i bo`lib qolaverdi. Bundan tashqari, butun o`rta Osiyoda sevib iste`mol qilinadigan sholi, jo`xori va suli yetishtirilar edi. XIX asrning 90-yillaridan boshlab, Rossiya bilan savdo-sotiq rivojlanib borgani sayin paxta yetishtirishga ixtisoslashuv ham jadal kechdi.

Xonlikdagi yerlarning asosiy qismi xon va uning amaldorlariga tegishli edi. Amaldor va a`yonlarga haq to`lash uchun puli bo`lmagan Xiva xonlari ularga davlat yerlarini ehson qilishardi. Xonlikdagi hamma yerlar ikki qismga: sug`oriladigan yerlar — *ahya* va sug`orilmaydigan yerlar — *adraga* bo`linar edi. Shuningdek, yer egaligining *amlok* (davlat yerlari), *mulk* (xususiy yerlar) va vaqf (masjid va madrasa yerlari) shakllari ham mavjud edi. Xon, amaldorlari va ularning qarindoshlari soliqdan ozod edilar.

Yirik yer maydonlari diniy muassasalar tasarrufida bo`lgan. Xonlikda jami sug`orma yerlarning 40 foizi masjidlar mulkiga berilgan. Masalan, 64 ta masjid va madrasa XIX asrning so`nggi choragida 205 ming tanobdan ziyod yerga egalik qilgan. Xonlar dindorlarga nisbatan hurmat-izzatda bo`lishgan. Ularning ko`pchiligi soliqlardan ozod etilgan. XIX asrning oxirida qariyb 4 ming ruhoniylar oilasi barcha soliqlardan ozod etilgandi.

Soliq va majburiyatlar .Yerning katta qismi Rossiya imperiyasi tasarrufiga

o`tishi sababli, xonlik ma`muriyati zararni yangi soliqlar joriy etish yoki ilgari mavjud bo`lganlarini oshirish yo`li bilan qopladi. Xiva xonligida turli majburiyatlar, (doimiy yoki favqulodda) soliqlarning qariyb 25 turi bo`lgan. Bu yig`imlar miqdori xonlar va amaldorlar zo`ravonligiga bog`liq bo`lgan. Dehqonlar yer solig`i — solg`ut, chorva solig`i — zakot, o`tloqlardan foydalanganlik uchun cho`ppuli, turarjoylari uchun o`tov solig`i to`lashgan.

Bunday soliqlardan tashqari dehqonlar turli-tuman majburiyatlar — *begorni* bajarishga ham majbur edilar. Sug`orish tizimi bilan bog`liq bo`lgan ishlar — *kachi* ular orasida eng og`iri bo`lgan. Xiva dehqonlari har yili kanallarni tozalashga, ko`tarmalarni qurish va qayta tiklashga, to`g`onlar va ko`priklarni ta`mirlashga chiqishlari lozim edi. Dehqonlar o`z ish qurollari va ovqati bilan kelishgan. Ishga chiqmaganlar esa muayyan mablag`ni xazinaga to`lashi shart bo`lgan. Jarchi o`z foydasiga "*afanakpuli*" yig`gan, ishlar nazoratchisi va mutasaddisi ham o`z ulushini olgan. Sug`orish tizimidagi ishlar dehqonlarni ezib ishlatishning eng og`ir shakllaridan biri edi..

Aholining 90 foizini tashkil etgan dehqonlar sug`orma yerlarning atigi 5 foiziga egalik qilishardi. Yersiz va kam yerli dehqonlar esa yirik zamindorlar yerlariga va vaqf yerlarida ishlab berishardi. Dehqonlar ulushbay yoki hosilning teng yarmi tizimi bo`yicha mehnat qilishgan. Ishlar yakunlanganidan keyin odatda yer egasiga hosilning 40—50 foizini berishgan. Ulushchilar *chorakorlar*, teng yarmiga ishlovchilar esa *yarimchilar* deb atalgan. Yeri ham, asbob-uskunalari ham, ishchi qoramoli ham bo`lmagan dehqonlar esa zamindorlar qo`lida har qanday shart asosida ishlashga majbur edilar. Ularni *xizmatkor* (batrak) deb atashib, ovqatlanishlariga zo`rg`a yetadigan arzimas haq berib ishlatishardi. Ularning yelkasiga zo`raki shartnomalar yuki osilgan edi. Qarzdor dehqonlar o`z qarzlarini uzish uchun ma`lum vaqt davomida ishlab berishlari lozim edi. Qarzini to`lamasdan turib ular xo`jayini xizmatidan keta olmasdilar.

Shu zaylda, yersiz dehqonlar , soni yildan-yilga o`sib bordi. Ular tobora xonlar, beklar va ularning amaldorlariga qaram bo`lib boraverishdi. Bularning bari Xiva xonligining umumiy iqtisodiy va ijtimoiy ahvoriga salbiy ta`sir o`tkazdi.

XVIII-XIX asrlarda xonlikda muntazam qo‘shin mavjud bo‘lib, uning tuzilishi ham Buxoronikiga o‘xshash bo‘lgan. U asosan, otiqlardan tashkil topib, qo‘mondonilikni *lashkarboshi*, *yuzboshilar* boshqarishgan. Askarlar tinchlik paytida dehqonchilik va boshqa kasblar bilan shug‘ulanishgan. XIX asr 30-y.larida qo‘shin soni qariyb 40 ming kishi edi. Askar xizmatidagilar soliq va jamoa ishlaridan ozod qilinib, har bir harbiy yurishda qatnashganligi uchun 5 oltin tanga, jangda rag‘bat ko‘rsatganlar 10-100 tanga olgan. Xon saroyida esa muntazam yaxshi qurollangan askar xizmat qilgan (1000 kishi). Qo‘shinning asosiy qismi qilich, o‘q-yoy, nayza bilan qurollangan; ba’zi qismlar miltiq bilan qurollangan.

Erga egalik turlari. O‘rtta Osiyoning barcha davlatlari singari, Xiva xonligida ham er asosiy boylik hisoblangan. Buxoro amirligidagi kabi ular egalik shakliga ko‘ra uch guruhga bo‘lingan: *davlat erlari (amlak)*, *shaxsiy mulk (xususiy erlar)*, *vaqf erlari*. Biroq, er egaligi Buxoro xonligidagi bir qancha farq qilardi: xon va uning qarindoshlari barcha erlarning deyarli yarmiga egalik qilishgan. Qolgan erlar davlat ixtiyoriga olingan (vaqf erlaridan tashqari). Davlat va xususiy erlar dehqonlarga ijaraga berilgan. Dehqonlar olgan hosilning yarmini ijaraga to‘laganlar va shu sababdan ularni “yarimchilar” deb ham atashgan. Mayda er egalari xonavayron bo‘lib borganlar va oxir-oqibatda erlaridan mahrum bo‘lganlar.

Qishloq xo‘jaligi va sug‘orish ishlari. Xiva xonligida o‘troq aholi dehqonchilik, ipakchilik, ko‘chmanchilar esa asosan chorvachilik bilan shug‘ullangan. Xonlikning iqtisodiy hayotida sug‘orishga asoslangan dehqonchilik muhim o‘rin egallagan. XVI asr o‘rtalarida Yangiariq va Toshli Yormish, 1602 y. Arab Muhammad, 60-80 y.larda Shohobod va Yormish, XIX asr boshlarida Amudaryodan Lavzan arig‘i chiqarildi va keyinchalik katta kanalga aylantirildi, 1815 y.da Qilichniyozboy kanali qazildi. Dehqonchilikda bug‘doy, paxta, makkajo‘xori, arpa, shuningdek bog‘dorchilik, polizchilik, sabzavot ekinlari etishtirilgan. Chorvachilikda quy, echki, tuya, qoramol, otlar boqilgan. Ayniqsa qorako‘lchilik yaxshi rivojlangan.

Hunarmandchilik. Hunarmandchilik shaharlarda rivojlangan bo‘lib, ip, ipak va jundan gazlamalar to‘qish keng tarqalgan, shuningdek, kosibchilik, kulolchilik, temirchilik, zargarlik, qurolsozlik va b. turlar ham rivojlangan.

Savdo-sotiq. Ichki va tashqi savdo mamlakat uchun muhim sanalgan. Xususan Buxoro xonligi, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Rossiya hamda ko‘chmanchi xalqlar bilan savdo aloqalari o‘rnatilgan. Xiva, Urganch, Hazorasp, Xonqa, Toshhovuz, Xo‘jayli, Gurlan, Chimboy kabi shaharlar hunarmandchilik va savdoning markazlari sanalgan. Rossiyaga turli gazlama, paxta, ipak va b. mollar olib borilgan. U erdan temir, cho‘yan, po‘lat, charm, tunuka, movut, to‘tiyo, qand va b. mollar keltirilgan. Xonlikning eng yirik shaharlari – Xiva, Ko‘hna–Yangi Urganch sanalgan. Xiva shahri XVII asr boshlaridan 1920 yilgacha xonlik poytaxti bo‘lgan, u qadimda Xeyvad deb atalgan. XIX asr o‘rtalarida shahar atrofi 6 km. Uzunlikdagi devor bilan o‘ralgan; XVIII-XIX asrlarda shaharda ko‘plab me‘moriy inshootlar qad ko‘targan. Ularning turkumiga ko‘ra Xiva O‘rta Osiyoda yagona shu uslubda qurilgan shahar sanaladi. U Ichan qal‘a (devor uzunligi 2200 m.) va Dishan qal‘a (devor uzunligi 6250 m.)lardan iborat. Xivadagi Sayid Alovuddin maqbarasi, ko‘hna ark, jome‘ masjidi, Oq majid, Uch avliyo maqbarasi, Sherg‘ozixon maqbarasi, Olloqulixon karvonsaroyi va boshqalar muhim tarixiy me‘morchilik yodgorliklari sanaldi.

Muhammad Rahimxon II (1864-1910) xonlik qilgan davrida oldingi xonlar kabi xonlikni ma‘muriy boshqarish ishini takomillashtirishga harakat qildi. Xivadagi Ko‘hna Ark va Toshhovli saroyida ishlab turgan qonun chiqaruvchi, ma‘muriy va sud organi vazifasini bajargan Oliy Kengashda ichki va tashqi siyosatning muhim masalalari muhokama etilib turgan. Kengashda nufuzli a‘yonlar — qushbegi, mehtar, devonbegi, naqib, shayhislom, qozikalon, otaliq, biy, xonning yaqin qarindoshlari qatnashardilar. Xonlikda mavjud 26 beklikni boshqargan bek va hokimlar xon tomonidan tayinlangan. O‘zbeklar yashaydigan bekliklar noiblik va machit-qavmlarga bo‘linib, ularni noiblar va oqsoqollar boshqarishgan. Qozoq–qoraqalpoqlar yashaydigan hududlar 66 biy va otaliqlar tomonidan idora etilardi.



Turkmanlar urug'larini esa sardorlar va oqsoqol muhrdorlar boshqarishgan. Qozilar shariat va odat qonunlariga asosan hukm chiqarganlar.

Muhammad Rahimxon davrida mavjud otliq navkarlar va sarbozlardan iborat piyoda askarlardan muntazam harbiy qo'shin bo'lib, u vaqti vaqti bilan 40-70 mingga etgan. Xon qo'shini asosan qilich, qalqon, nayza bilan qurollangan. Keyinchalik rus to'plari, ingliz miltiqlari ham olib kelina boshladi. Turkman va jamshidlar xon qo'shining asosiy tashkil qilgan navkarlar 13 mingga yaqin bo'lib, ularga er-suv ajratilgan va soliqlar kam solingan. Xivada xonning shaxsiy soqchilari, darvozabonlar, mirshablar, tungi nazoratchilar ham bo'lgan.

1870 yilda Xiva shahrida taxminan 700 dan ortiq mayda hunarmand kosiblarning ustaxonasi bo'lgan. SHu jumladan, shahardagi 54 bo'yoqchilik, 37 ta etikdo'zlik, 33 maxsi-kavushdo'zlik, 16 ta ko'nychilik ustaxonalari xon buyurtmasi va aholining kundalik zaruratini qondirish uchun ishlardi. Shaharda do'konlari bor 200 dan ortiq savdogarlarning 56 nafari baqqollik, 38 tasi bazzozlik, 32 tasi choy va tammakifurushlik, 15 tasi choponfurushlik qilardi<sup>21</sup>. Degrezlik ustaxonalari, metall buyumlar ishlab chiqaradigan ustalar, asosan, Hazoraspeda to'plangan edi.

1873 yilda Rossiya bosqinchilarining Xiva xonligini istilo qilishlari uchun azaliy mustaqil davlatda barcha shart-sharoitlar pishib etilgandi. Avvalo uzoq yillar yonma-yon bir tom ostida yashab kelayotgan turkiy millatlarning boshlari qovishmadi, ular orasida milliy va diniy nizolar muntazam ro'y berib turdi. Markaziy Osiyodagi xonliklarning tarqoqligi, etuk va adolatli podshoh yo'qligi ohir oqibatda uch xonlikning rus xukumatining tobe quliga aylanishga, xalqning esa ikki tamonlama ezilishiga olib keldi. Peterburgdagi oq podshohning qo'g'irchoq xokimlariga aylangan xonlar turli-tuman temir tersaklar, orden-medallar evaziga o'z xalqini ezib, xo'rladilar, yurt boshiga misilsiz soliqlar yukladilar. Yurtning asil boyliklari shimolga tashib ketila boshladi. XIX asrning 2-chi yarmi va XX asr boshlariga kelib, Xivada oddiy fuqoroning tirikchiligi xavas qiladigan darajada emasdi. Bosqinga qadar xonlikning fuqorolaridan oladigan soliqlari turi yigirma to'rttaga borardi. 1873 yilgi Gandimiyon shartnomasiga ko'ra

---

<sup>21</sup> Yo'ldoshev M. Xiva xonligida feodal er egaligi va davlat tuzilishi, 95–bet.

esa Xiva xoni Rossiyaga 2-million 200 ming rubl tovon puli to'lashi shart edi. Ma'lumki bu yirik qiymatni xon va amaldorlari emas oddiy xalq to'lashi kerak bo'lardi. Xon xazinasini to'ldirib turish uning amaldorlari, hokimlarini boqish uchun fuqorolar yigirma to'rt hil soliq to'lashga maxkum edi. Bular –Solg'it:- Er uchun pul solig'i, Zakot:-sotiladigan mol xisobidan, Daxyak:-xosilning beshdan yoki o'ndan bir qismi uchun. Cho'p puli– o'tloqlardan foydalangani uchun. Otliq puli:- er va suv uchun tukmanlardan olinadigan soliqlar shular jumlasiga kirardi. Bu soliqlarni undirish jarayonida bir necha marta shaxsan ishtirok qilgan Amudaryo bo'limi vakili guvoxligicha noxolol va noto'g'ri taqsimlangan soliqlarni to'lash paytida xon amaldorlari muomilaga emas (tayoq va qamchilarga ko'proq suyanardilar deb yozgan ) S.GIAL. SSSR F 183 op 1.d .16.2.<sup>22</sup>

Xonlikdagi dehqonlarning boshiga tushgan soliq va majburiyatlar ularning tirikchiligi bir tekisda o'tishga ta'sir qilar, qashshoqning o'rta xol, o'rtaxolning boy bo'lishiga to'sqinlik qilardi. Yil 12 oy dalada ter to'kkan dehqon yil oxiri-xosil xirmonida etishtirgan maxsulotning yarmini turli xil soliqlarga berib o'z oilasini bahorga qadar boqishga etar etmas don bilan qolardi. Ko'pincha qish oylarida doni tugab boylardan kelajak xosil xisobidan qarz ko'tarishga majbur bo'lardi.

Shaharda yashovchi ishchilarning ahvoli ham o'rta xol bo'lgan. Ular ruslar tamonidan qurib ishga tushirilgan zavodlarda 13-15 soatlab ishlardi. Shu paytda shahardagi zavodlar hayoti bilan tanishib chiqqan graf Palen shunday deb yozadi:-  
“ Bu erdagi ko'plab zavodlar rus fuqorolariga tegishli bo'lib, xech qanday xafsizlik texnikasiga rioya qilinmasdi, uskinalar palaportish o'rnatilgan, bug' qozonlari avariya ahvolidi, meditsina xizmati yo'q, zavod ma'muriyati bilan ishchilar o'rtasida munosabat yaxshi emas” (Palen. K.K. Otchet po revizii turkistanskogo kraya. ch 1. otd.2. 1910. 332 bet.<sup>23</sup>

Ishchilar faqat diniy bayramlardagina dam olardilar. Zavod xo'jayini ularni istagan paytda bo'shatishi kasallansa mehnat xaqi bermasligi qonunlashtirilgandi.

---

<sup>22</sup> A. Abdurasulov “XIVA” Toshkent “O'zbekiston” nashryoti 1997 yil 106,107 betlar

<sup>23</sup> A. Abdurasulov “Xiva tarixiy-etnografik ocherklar” Toshkent 1997 yil. 35-bet.

Faqat baxtsiz xodisa tufayli mehnat qobiliyatini yo‘qotgan jabrdiyda ozroq xaq olishi mumkin bo‘lardi.

Xonlikning Xiva, Yangi Urganch, Toshxovuz, Xonqa, Hazoraspl va boshqa shaxarlarida kapitalistik sanoat ishlab chiqarish korxonalarini qurila boshlandi. 1885 yilda rus ishbiarmoni K.M.Chernikov mahalliy boy Avazboy qozi Madiyorov bilan sherikchilik asosida paxtaga ishlov beruvchi zavod qurdi. 1890 yilda Xonqada rus ishbiarmoni Manuylov yana bir paxta tozalash zavodi qurdirdi. Bundan biroz oldin, 1888 yilda “Bolshaya Yaroslavskaya manufaktura” savdo–sanoat shirkati vakili I.D.Kuzin xon qabulida bo‘lib, paxta tozalash zavodi qurish uchun ruxsat olgandi. Shu maqsadda Yangi Urganchlik Yoqub Ibrohimboydan 2,5 tanob er sotib olinib, paxta tozalash va moy zavodi qurila boshlandi. Bug‘ bilan ishlaydigan va AQSHdan keltirilgan 5 ta jin, 2 ta yarim avtomat tarzda ishlovchi press bilan jihozlangan korxonada 25 ming pud paxtani tozalash quvvatiga ega bo‘lgandi<sup>24</sup>. 1891 yilda Xivada hususiy paxta tozalash zavodi qurildi. 1893 yilda Hazorasplik mahalliy Madrahimboy ham hususiy paxta tozalash zavodi qurdi. Zavodga 3 ta jin uskunasi, 1 ta preslovchi dasgoh, 2 ta elektr energiyasi etkazib beruvchi dizel o‘rnatilgan edi<sup>25</sup>.

Xiva xonligidagi ekin maydonlarining aksariyatini don ekinlari, birinchi navbatda jo‘hori egallagan. Paxta etishtirishga esa e‘tibor ruslar istilosidan keyin sezirlarli darajada qaratila boshlandi. Ammo xonlikda azaldan ekilib kelinayotgan paxtaning “g‘o‘za” deb nomlangan Misr navidan olingan hom–ashyo Rossiya to‘qimachilik korxonalarini dastgohlariga to‘g‘ri kelmadi. SHu davrda Turkiston o‘lkasida Janubiy Amerikadan keltirilgan paxtaning “Siaylend” navini tajriba tariqasida ekish boshlangandi. Yangi navning hosil to‘plash davri uzun bo‘lib, 1880 yilda u Meksikadan keltirilgan tezpishar “Upland” paxta navi bilan almashtirildi. 1885 yilda Dyukov firmasi Xiva xoni devonbegisi ajratgan erga 10 pud amerika paxtasi urug‘ini ekdi va undan 150 pud sof paxta tolasini oldi. Xiva

---

<sup>24</sup> Xudoyberganov M. Xorazmpaxta tozalash sanoati tarixi. — T.: SHarq, 2004. 9, 78– bet.

<sup>25</sup> Xudoyberganov M. Xorazmpaxta tozalash sanoati tarixi, 92, 94–bet.

xonligi erlariga 1901 yildan boshlab “Upland” paxta navi keng ko‘lamda ekila boshlandi<sup>26</sup>.

XIX asr oxirlarida Xiva xonligidagi sug‘oriladigan er maydoni 1 mln. tanobdan ziyod bo‘lgan. Xonlikda davlat (podsholik) erlari, hususiy kishilarga qarashli mulk (atoyi va yorliqli) hamda diniy muassasalarga berilgan vaqf er egaligi mavjud edi. Eng unumdor va sug‘orilishi qulay erlar xon va uning yaqinlari, boylar, amaldorlar, dindorlarga tegishli edi. Xonning erlari “atoyi mulk” va “yorliqli mulk” deb atalgan hamda avloddan-avlodga meros bo‘lib yoki yorliq bilan berilgan. Xon o‘z erlarini mulkdorlarga va ijarachi dehqonlar (batrak, mardikor, koranda, bewatan,) ga foydalanish uchun ma’lum muddatga berardi. Xonlikda diniy muassasalar, masjid, madrasa, qabriston va muqaddas joylarga xon, amaldorlarga ajratilgan vaqf erlar mavjud edi. Ulardan soliq deyarlik olinmas va ersiz, ot-ulovsiz dehqonlar ishlatilib, daromad qilinardi.

Yer maydonlari hajmiga qarab qishloqda yashayotgan mulkdorlar a‘lo, avsat va adno degan guruhlariga ajratilgan. Soliq solishda 10 tanobdan ortiq erga ega bo‘lgan “a‘lo” mulk egalari yiliga 3 tilla, 10 tanobgacha eri bo‘lgan “avsat” mulki egalari 2 tilla va 5 tanobgacha eri bo‘lgan “adno” mulki egalari 1 tilla to‘lash majburiyati yuklangan. Ijarachilar 15 tanob erdan 34 tanga, 10 tanob uchun — 22,6 va nihoyat 5 tanobgacha er uchun — 11,3 tanga miqdorida soliq to‘laganlar<sup>27</sup>. O‘troq va chorvador aholisi xiroj (er solig‘i) va zakot (chorva-mol) solig‘i to‘lashga majbur edilar. Bundan tashqari, juzya (jon boshiga), savdo solig‘i (tamg‘a), bog‘ solig‘i (tanabana) kabi soliqlar bo‘lgan. Aholi qazuv, begar, qochuv, otlanuv, boj puli, tarozi haqi, mirobona, darbozabon, mir tuman haqi kabi qo‘shimcha soliq va majburiyatlarni ham bajarardi. Xon oilasi va uning qarindoshlari, oqsoqollar, beklar, dindorlar, sipohilar, amaldorlar, sarbozlar, navkarlar, yuzboshilar, 13 yoshga etmagan va vasiylari bo‘lmagan etimlar soliqlardan ozod etilganlar.

---

<sup>26</sup> Xudoyberganov M. Xorazmpaxta tozalash sanoati tarixi. — T.: SHarq, 2004.9, 14–bet.

<sup>27</sup> Yo‘ldoshev M. Xiva xonligida feodal er egaligi va davlat tuzilishi, 76, 98–bet.

Xiva xonligida Ovro‘pa ishlab chiqarish usuli va madaniyatini tarqatishda juda ko‘p xalqlar xizmat qilgan. Ular orasida menonit nemislari alohida o‘rinda turadi. Bir vaqtlar Prussiyadan Quyi Volga bo‘ylariga ko‘chib kelgan nemislarning harbiy xizmatga safarbar etilishiga norozi bo‘lgan bir qismi Turkiston general-gubernasiga ketishga ruxsat so‘ragandi. Natijada fon-Kaufman roziligi bilan Samara gubernasidan ko‘chib kelgan 10 ta nemis oilasi Toshkent yaqinidagi Koplombek hovlisiga joylashtiriladi. Yangi kelayotgan nemislarning bir guruhi Buxoro amirligidagi chegara qishloq bo‘lgan Zirabuloqqa, yana biri esa — Petro-Aleksandrovska joylashtiriladi. Amudaryo bo‘limiga kelgan nemislarni kutib olgan general Grotten Xelm ularni Xiva xonligining Lavzon kanali yaqiniga o‘rnatishni Muhammad Rahimxonga taklif qiladi.

1883 yil bahorida Lavzon yaqinida yashay boshlagan nemislar o‘zlariga zarur boshpana qurish, tirikchilik uchun zarur bo‘lgan ekinlar ekish va chorva mollarini boqish ishlariga kirishib ketadilar. Ammo ularning turmushi notinch bo‘lib, yovmut turkmanlarining bosqinchilik tajovuzlari ko‘p bo‘lib turardi. Qo‘lga qurol olmaslik va qon to‘kmaslikni urf-odat qilgan nemislar esa o‘zlarini himoya qilaolmasdilar.

Murakkab sharoit haqida Petro-Aleksandrovskdagi rus ma‘murlari habar topgach, xondan biron chora-tadbir qo‘llashni iltimos qiladilar. Xon nemislar oldiga Qosim devon ismli amaldor boshchiligida askarlarni yuboradi. Biroz vaqt ahvol bilan tanishgan va nemislarning hunarmandligidan voqif bo‘lgan Qosim devon ularni Xiva yaqiniga ko‘chirish haqida xonga taklif kiritadi. Natijada 40 ga yaqin nemislar oilasiga xonning Yangiariqdagi Sho‘rko‘l yaqinidagi eridan qishloq qurish uchun joy ajratiladi. Yangi qishloqqa berilgan nom nemislarning Sirdaryo bo‘yiga dastlab kelib o‘rnashgan Oqmachit qal’asi bilan bog‘liq edi.

Tez orada qishloqda uy-joy, cherkov, maktab qurish ishlari boshlab yuboriladi. Tartib bilan evropacha qurilayotgan yangi imoratlar mahalliy aholining xavasini keltiradi. Nemis duradgorlari xon saroyida yog‘ochdan parket pollarni to‘shab berdilar. Xiva shahri ko‘chalarida brichka shaklidagi to‘rt g‘ildirakli yuk aravalari va yumshoq faytonlar yura boshladi. Vilgelm Panner ismli nemis

fotografiya suratchiligiga asos soldi. Xon va badavlat amaldorlarning uylaridagi katta xonalarda tunukadan golland pechlari va kamin shaklidagi isitish qurilmalari paydo bo‘ldi. Ularning eng go‘zallari Asfandiyorxonning Nurullaboydagi xashamatli saroyini bezagan.

Nemislarning Xiva xonligi turmushidan besovita habardor bo‘lgan German Yantsen “Xavf–hatarli Turkistonda: musulmonlar orasidagi hayot” nomli kitob yozgan va u 1988 yilda Germaniya va Shveysariyada nashr qilingan<sup>28</sup>. Unda nemislarning o‘lka halqari bilan birodarlashish, bir biriga yordam berish, hamdardlik sahifalari haqida iliq gaplar aytilgan. Yarim asr davom etgan birgalikdagi hayot mahalliy aholi kabi nemislarni ham juda ko‘p vojealarni boshidan kechirishga majbur qildi. Qatag‘onlar chig‘irigiga tushgan ushbu jafokash xalq o‘z o‘y–joyi, mol–mulking ko‘p qismini va qadrdon do‘st–birodalarini tashlab Sharqiy Qozog‘istonga badarga bo‘lib ketdi.

XIX asr o‘rtalari va oxirgi choragida ko‘zga ko‘ringan adabiy muhitining yirik namoyandalaridan biri — Komil Xorazmiy (1825-1897) edi. U o‘z davrining iste’dodli shoiri, tarjimoni, bastakori, ko‘zga ko‘ringan davlat arbobi va hattoti bo‘lgan va mirzaboshi, devonbegi lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan. Bastakorlik sohasida u maqomi “Rost”ning chertim va aytim yo‘llarini qog‘ozga tushirgan. Komil Xorazmiyning maqomlarni ilk bor notaga tushurish usuli — “Tambur chizig‘i” deb atalgan. Yangi usul asosida Xorazmning 6,5 maqomi to‘ldirilib, tambur chizig‘iga joylab notalashtirildi. Shoir va shoh Feruz davri musiqa madaniyatini yuksak cho‘qqiga ko‘targan Komil Xorazmiyning ishini o‘g‘li Muhammad Rasul Mirzo va shogirdlari davom ettirib, yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarishga erishganlar.

Muhammad Rahimxon davrida xonlikda maorif va sog‘liqni saqlash ishlariga e’tibor qaratildi. 1880 yilda Xivada birinchi ambulatoriya ishlay boshladi. 1884 yilda xon saroyida birinchi rus-tuzem maktabi tashkil qilindi. XX asr boshlarida Xiva xonligida 1500 ta eski uslubdagi maktablar, 130 ta madrasa bo‘lib,

---

<sup>28</sup> Safarov O., Sultonov O. Oqmachit xotiralari // Xorazm haqiqati, 1993, 23 mart; Matniyozov M. Xiva xonligida yashagan xalqlar va ularning xonlik ijtimoiy–siyosiy hayotida tutgan o‘rni va roli. — 62–68–bet.

ular da 50 mingdan ortiq talaba bilim olgandi. Aholining savodxonlik darajasi ham ancha ko‘tarildi.

Ruslar istilosidan keyin Xiva xonligida tabiblar bilan bir qatorda aholiga vrach va felsherlar tomonidan tibbiy xizmat ko‘rsatila boshlandi. 1882 yilda Muhammad Rahimxonni davolash uchun Qazalidan harbiy vrach N.Norvillo yuborildi. 1884 yilda Xivaga rus vrachlari Kolpakov va Kolossovskiyalar keldilar. 1887 yildan Xivada ochilgan felsherlik ambulatoriyasida vrach Kreshkov ishladi. 1891 yilda Xivadagi felsherlik punkti ishini tekshirish uchun Petro–Aleksandrovskdan vrach I.M.Avdakushin va akusher–ginekolog Navostruevskaya, 1897 yilda esa — vrach Kimberg kelishgan<sup>29</sup>.

1897 yilda Xiva xonligida keng tarqalgan chechak kasalligi epidemiyasi tarqalishidan cho‘chigan Amudaryo bo‘limi boshlig‘i polkovnik A.S.Galkin Muhammad Rahimxonga yozgan maktubida hech bo‘lmaganda xonlik shahar va qishloqlaridagi aholi orasida emlash ishlarini bajaradigan odam ajratish va unga 15 so‘m miqdorida maosh belgilashni taklif qilgan<sup>30</sup>. 1897 yilda Xiva felsherlik punktida vrach Popov va feldsher N.Kostenko ishladi.

Xiva davlat hujjatlari orasida Petro–Aleksandrovska va Shabboz kasalxonalarida davolangan xonlik fuqarolarining xizmat haqqini to‘lamasdan qochib ketganlari va qarzlarni undirishda yordam so‘rab yozilgan rus ma‘muriyatining ko‘plab xatlari saqlanadi<sup>31</sup>.

1874 yilda Sayyid Muhammad Rahimxon buyrug‘i kitob chop etish uchun Shveysariyaning Jeneva shahrida ishlab chiqarilgan dastgohlar olib kelindi. Shartnoma asosida ishga taklif qilingan Ibrohim Sulton ismli eronlik matbaachi O‘rta Osiyoda birinchi toshbosmani (litografiya) ishga tushirdi. U shogirdi Otajon Abdol o‘g‘li bilan birga 1874 yilda “Devoni Munis”ni bosmadan chiqardi. Ibrohim Sulton bir yildan keyin yurtiga qaytib ketdi. O.Abdolov esa kitob bosishni davom ettirdi. Xiva litografiyasida 1876 yilda Abu Nasr Farohiyning “Nisobus-sibiyon”

---

<sup>29</sup> Sadikov A.S. Nekotorie dannie o zdravooxranenii v dorevoluytsionnoy Xive // Materiali po izucheniyu Sredney Azii i Uzbekistana. Nauchnie trudi TashGU. Novaya seriya, vip. 233. Istoricheskie nauki, kn. 48. — Tashkent, 1964. — S. 3.

<sup>30</sup> O‘zR. MDA, f. I–2, op. 1, d. 149, l. 76.

<sup>31</sup> O‘zR. MDA, f. I–125, op. 1, d. 273, l. 1, 3, 6, 8 va boshqalar.

(“Bolalar nasibasi”), 1879 yilda Shermuhammad Munisning “Munis ul-ushshoq”, 1880 yilda Alisher Navoiyning “Hamsa”sidan “Hayratul abror” va 1882 yilda “Hazoyin ul-maoniy” va Muhammad Rizo Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin”, 1897 yilda Muhammad Rahim Feruzning “Devoni Feruz”, 1909 yilda Tabibiyning “Majmuot ush-shuaro” kitoblari bosildi<sup>32</sup>.

Sayyid Muhammad Rahimxonning 1898 yil 12 apreldagi farmoniga muvofiq, qadimiy yodgorliklar, muzeybop buyumlar to‘plana boshlandi. Yig‘ilgan noyb buyumlar va kitoblar 1890 yilda Toshkentda, 1895 yilda Nijniy Novgorodda, 1900 yilda Parijda, 1904 yilda Amerikaning Missuri shtatida bo‘lib o‘tgan xalqaro ko‘rgazmalarda namoyish qilindi.

O‘rta Osiyodagi siyosiy inqiroz va mavjud davlatlarning bir-biri bilan kelishmasligi oqibatida ular birin-ketin chor Rossiyasi tomonidan bo‘ysunirilishi natijasida Xiva xonligi ham yarim qaram mamlakatlar qatoridan o‘rin oldi. Iqtisodiy jihatdan ojiz va siyosiy jihatdan huquqlari cheklangan davlatning kelugsi taraqqiyoti deyarlik butunlay chor ma’murlarining nazorati ostiga olindi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon o‘z davlatida o‘zi hukmron bo‘lmagan bir sharoitda Gandimiyon sulh shartnomasi barcha bandlarini o‘z vaqtida bajarishga harakat qildi. Hattoki 2 mln. 200 ming so‘mlik o‘lpon ham muddatidan ilgari to‘lab, tugatildi.

1882 yilda Muhammad Rahimxon ilk bor Russiyaga safar qildi va imperator Aleksandr III dan xonlikning iqtisodiyoti uchun zarur zavod va farikalarni qurish, savdo-sotiq aloqalarini mustahkamlash, bir vaqtlar siyosiy mahbus sifatida hibsga olingan amaldorlarni ozod qilishni so‘radi. Vaziyatning o‘zgarganligi va xonning itoatgo‘yligi bois yuqoridagi iltimoslarning ayrimlari qondirildi. Xiva va Rossiya o‘rasidagi sal kam chorak asrlik iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar XX asrda amalga oshiriladigan tadbirlar uchun keng yo‘l ochib, yangi imkoniyatlarni yaratdi.

---

<sup>32</sup> YAzberdiev Almaz. K voprosu o nachalnom priode knigoizdatelskoy deyatelnosti Xivinskoy litografii (1874–1880) // “Izvestiya” AN Turkmenskoy SSR. Seriya: Obshestvennie nauki, 1971, № 4; Matrasulov SH. Pervaya tipografiya v Xorezme // “Xorezmskaya pravda”, 1994, 22 sent.; Axundjanov E.A. K istorii razvitiya knijnego dela v Xive // Obshestvennie nauki v Uzbekistane, 1997, № 7-8. — S. 100–103; YUldashev U. Ot litografii do kompyutera // “Xorezmskaya pravda”, 2003, 19 iyunya.



XIX asrning 70-80 yillaridayoq xonlikda yuritilayotgan siyosatga qarshi bir qancha g'alayonlar bo'lib o'tdi. Unda tukmanlar, qozoqlar va o'zbeklar qatnashgan, o'sha davr xujjatlarida yozilishicha isyon rahbarlariga murivat ko'rsatilmagan. Biybozorda 4-nafar o'zbek, Toshhovuzda ikki o'zbek va ikki turkman osib o'ldirilgan, Ilollida esa 20-kishi xibsga olinib ularning ikkisi qatl qilingan. Qo'zg'olon ko'targan Uroz qozi, onasi, akasi o'ldirilgan 1898 yilda qo'zg'olon ko'targan kuli yovmutlar sordori Oqsapak Saxarxon o'g'li bilan birga, 1902-yilda Mahmud Otal boshidan judo qilingan.

Bu keskin choralar ezilgan xalqni qo'rquvga sololmadi. G'alayonlar kuchayishining oldini ololmadi. 1900-1902 yillarda xonlikning janubiy-g'arbiy qismida xalq g'alayonlari yashin tarzida avj olib ketdi.

Chor xukumati ham xon maxkamasi ham faqat qurol kuchi qo'rqitish bilan endilikda ommani qo'l ostida saqlab turish mushkulligini anglab etdilar va 1903 yilda xon yovmut turkmanlarining g'alabalariga yon berishga majbur bo'ldi. Matmurod devonbegi turkmanlar ustidan nazorat qiluvchilar vazifasidan ozod qilinib o'rniga Xudoyor qushbegi mutasaddi qilib tayinlangan, uy solig'i esa 20 – tangaga kamaytirilgan.

Rossiyada XX asr boshida ro'y bergan inqilobiy xarakatlar ta'siri Xivaga ham etib kelishi natijasida soliqlardan ruslarni va mahalliy boylarni zulmidan bezgan el sinfiy tabaqalanishning mohiyatini anglab etdi. Bu o'z navbatida g'alayonlarning mazmuniga siyosiy talablarni ham qo'shib yubordi. G'alayonlar avvalgidek betartib norozilik va ko'tarilishdan, uyushgan boshqaradigan kuchga aylandi. Ularda aniq maqsad ko'rini boshladi. 1902 yilda Safar Ali ismli yovmutning soliq to'lamaganligi ta'sirida yovmutlar yo'lto'sarlik harakatlarini boshlab yubordilar. Natijada xon Sayyyid Abdulla to'raga taxtni boshqarishni topshirib, o'zi o'zbek va chovdir turkmanlardan to'plangan lashkarlarga bosh bo'lib, Toshhovuzga borib 14 kun turdi. Xonning topshirig'i bilan oldinroq Taxta tumanidagi yovmutlar ustiga yuborilgan Nurjon Botir isyonchi Safar Alining kallasini kesib keldi. SHundan so'ng, Taxtaga yuborilgan shahzoda Asfandiyorxon

va Naqibxo‘ja ismli amaldor yovmutlardan soliq yig‘ib oldi va ularning arzlarini tingladi.

Xon esa Hiloliy va Oqupada biroz to‘xtagach. Ko‘hna Urganchdagi avliyolar qabrlari va maqbaralarini ziyorat qildi. Keyin besh kun davomida Xivaga qaytayotgan vaqtida oldiga chiqqan din arboblari va oddiy xalqning duoyi–fotihasini olib, poytaxtga omon–eson qaytib keldi. “Faqirga kitobi “tarixi Tabariy”ni forsiy tilidan turk tilga tarjima etmak xizmatini buyurib erdilar, bu sababdan rikobi humoyunda keta olmay amri oliylari bila qolib erdim. Man ham istiqbollariga chiqib duo qildim”<sup>33</sup>,— deb yozgandi muarrih Bayoniy.

1903 yilda shahzoda Asfandiyorxon Mahmud Vafo karvonboshi va Islomxo‘ja hamrohligida Peterburgga safar qildi. SHu yili xonning inisi Otajon to‘ra dunyodan o‘tdi. U Kamron tahallusi bilan she‘rlar yozib turardi. Otajon to‘radan Muhammad Amin, Sayyid G‘oziy to‘ra va Sayyid Asad to‘ra ismli o‘g‘illar yodgor bo‘lib qoldi. 1907 yilda xonning kichik ukalari Ollayor to‘ra 47 yoshida, 1909 yilda To‘ramurod to‘ra 54 yoshida vafot qildilar.

1905 yilda Xonqa, Xazarasp, Bog‘otda Matyokub pishik qo‘zg‘olon ko‘tardi shu yilning bahorida Qo‘ng‘irotda, kuzida Ko‘hna Urganchda o‘zbeklar va qozoqlar uyushgan xolda xarakat qilib boy va amaldorlarning ekin maydonlarini mol-mulklarini vayron qildilar. Xon bu xarakatlarni chor qo‘shinlari va navkarlar yordamida bostirdi lekin soliqlarni undirishdan cho‘chib qoldi. Amudaryo bo‘limi boshlig‘ining Turkiston General- gubernatoriga 1905 yil 18-aprelda yozgan xatida kuli yovmut qabilalarining soliq to‘lashdan bosh tortganlari mana ikki yilki xon bu soliqlarni to‘plashga yurak yutib xarakat qilolmayotganini aytadi.

1905 yil ohiriga kelib ahvol shu daraja yomonlashdiki Xon va uning amaldorlari ham uylarida tinch yashay olmay qoldilar. Qashshoqlashgan va norozi xalq avval boshda maxalliy boylarning tanobini tortib qo‘yishi, ularning mol-mulkini tolon-taroj etib, o‘zlarini jazolashi oddiy xaqiqat edi. Xon ham isyonlar tufayli toboro bo‘shab qolayotgan g‘azna taqdirini va o‘z taxtini tinchini o‘yladi.

---

<sup>33</sup> Bayoniy M.YU. SHajarayi Xorazmshohiy // “Meros” to‘plamida, 246–bet.

1908 yilda Muhammad Rahimxon payg‘ambar yoshiga to‘lgani sababli, o‘g‘li Asfandiyor to‘ra va Bosh vazir Islomxo‘jani bosh qilib, elga katta to‘y berdi.

1910-yilga kelib rus ma‘murlari Turkistonda ba‘zi bir isloxiy xarakatlarni o‘tkazishga majbur bo‘ldilar. Shu asosda Xiva xoni ham 1910-yilda besh bandli maxsus qarorni imzoladi, ularda quyidagi chekinishlar o‘z aksini topgandi.

1. Begor mavsumida qazuvchilardan yig‘iladigan 50- tiyinlik (salkam 3-tanga) soliqni bekor qilish.

2. Qazuv davrida qatnashgan kishilarga xon xazinasidan har odamga ikki tanga (40-tiyin) xizmat xaqi to‘lash.

3. Begor davrida dehqonlar va ishchilarning qazuvdan boshqa ishlarga, boy boyonlarning shaxsiy xo‘jaliklariga majburiy ishga jalb qilish ham bekor qilindi.

4. Mansabdor shaxslarga ma‘lum miqtor moyana tayinlandi, pora olish qat‘iy taqiqlandi. Xukumat odamlari, hokimlar o‘z oldiga ish yuzasidan kelgan kishilardan xizmat xaqi olishi sha‘riyat qoidalariga zid, deb e‘lon qilindi.

5. Er solig‘ini aniq belgilash maqsadida erlarni va vaqf erlarni qayta xisobga olish va qayta o‘lchab chiqish belgilab qo‘yildi.

Lekin bu tadbirlar 1910 yil 16- avgustda Muhammad Rahimxon II o‘limi tufayli amalga oshmay qog‘ozda qolib ketdi. Muhammad Rahimxon II vafot qilganda 66 yoshda bo‘lib, uning jasadi Sayyid Muhammad Mohiro‘yi maqbarasiga dafn qilindi. Taxtda 47 yil 15 kun o‘tirgan Muhammad Rahim Bahodirxon shubhasiz Xiva xonligi tarixida o‘chmas iz qoldirgan davlat arboblardan biri edi<sup>34</sup>.

Muhammad Rahimxon o‘zining uzoq yillar davomidagi xonlik davrida juda ko‘p voqealarning guvohi bo‘ldi. “Ma‘lum bo‘lsinkim, xon hazratlari bag‘oyat mushfiq–fuqaro va bag‘oyat xayrdo‘st kishi erdilar”<sup>35</sup>,— deb yozgandi Bayoniy.

---

<sup>34</sup> Muhammad Rahimxonning yurak zotiljami oqibatida vafot qilganligi haqida xabar bergan “Niva” gazetasi o‘zining 1910 yildagi 45–sonida xonga Orenburg kazak qo‘shinlari general–leytenat va 1902 yildan **hazrat** unvoni berilganligi haqida yozadi. U 20 yoshida voris sifatida taxtga ko‘tarilgan bo‘lsa, endilikda uning 37 yashar o‘g‘li Sayyid Asfandiyor to‘ra podsho hazrati oliylari ruxsati bilangina otasi taxtiga o‘tirishi mumkinligini qayd qiladi. Unga ham Orenburg kazak qo‘shinlari general–mayori unvoni berilgan. Ushbu manbani tasdiqlovchi xujjat hozirda “Ichan-qal‘a” davlat muzey qo‘riqxonasining, “Xiva xonligi tarixi” bo‘limi ekspozitsiyasida saqlanmoqda.

<sup>35</sup> Bayoniy M.YU. SHajarayi Xorazmshohiy // “Meros” to‘plamida. 252–bet.

Uning davrida Xiva xonligi chor Rossiyasiga qaram davlatga aylandi. Xonlikning katta hududi tortib olindi va fuqarolari zimmasiga og‘ir majburiyatlar yuklandi. Xonning qobiliyati va amalga oshirgan siyosati natijasida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda sezilarli darajada ijobiy siljishlar bo‘ldi.

1903 yilda aka–uka Kraftlar Yangi Urganchda bank idorasini ochdilar. Keyinchalik ushbu bankning filiallari Xonqa, Mang‘it va Gurlanda tashkil etildi. 1910 yilda Kraftlar oilasi Urganchdagi yog‘ zavodini sotib olib, uni AQSH, Germaniya, Angliyadan keltirilgan asbob–uskunlar bilan qayta jihozladilar<sup>36</sup>.

1905 yilda viloyatdagi paxta zavodlarida 103 ta uskuna ishlab turadi. Keyingi 2 yil oralig‘ida “Poznanskiy va sheriklar” manufaktura agentlari Yangi Urganch, Toshhovuz, Mang‘it, Xiva, Xonqa, Gurlanda paxta tozalash zavodlari qurdilar. Xorazmda Shlossberg va og‘a-inilar” degan ishbilarmonlarning zavodi ishlay boshladi. Yusufboy Hayitboev, aka-uka Matvafo va Matsapo Baqqolovlar, Rizaev, Madiyurov, Boboniyozboy, Matniyozboy kabi mahalliy puldorlar ham paxta tozalash zavodlari qurdilar. 1904 yilda Pitnak qal’asi yaqinida Boboniyozboy, Egamberdi noib va Mergan hojilar sherikchiligida ikki jiqli payta tozalash zavodi ishga tushirildi. Zavod yonida bug‘ bilan ishlaydigan un tortish tegirmoni ham qurildi. Oradan biroz vaqt o‘tgach, Mulla Matyozboy ismli pitnaklik boy uch jiqli yana bir paxta tozalash zavodini ishga tushirdi. Zavoddagi 15 ot kuchiga teng dvigatel yordamida kuniga 100–120 kg. paxta tozalanib, 45–50 kg. tola olinardi. 1912–1918 yillarda Matyozboyning zavodidagi ishlarga Andrey ismli rus ishchisi boshchilik qilgan<sup>37</sup>.

1911 yilda Petro–Aleksandrovslik ishbilarmon Pavel Aleksandrovich Gurlanda paxta tozalash zavodi qurdi. Uni boshqargan injener Qaymachnikov nazorati ostidagi ishchilar 6 ta g‘o‘zani maydalash uskunlari va 3 ta paxtani chigitdan tozalash jin mashinalari yordamida kuniga 20–30 ta, har birining og‘irligi 100–110 kg. keladigan payta toylarini tayyorlashardi<sup>38</sup>.

---

<sup>36</sup> Xudoyberganov M. Xorazm paxta tozalash sanoati tarixi, 12–bet.

<sup>37</sup> Qurbonboev S. Pitnak tarixi. — Urganch: Xorazm, 2001. — 20–bet.

<sup>38</sup> Xudoyberganov M. Xorazm paxta tozalash sanoati tarixi. — 14, 88–bet.

Xiva xonligida 36 ta paxta tozalash zavodlaridan tashqari, 11 ta g'isht, 8 ta beda urug'i tozalash, 4 ta charm ishlash, 4 ta yog'-sovun zavodlari ham bo'lgan. Paxta tozalash zavodlarida kerosin yoqilg'isi yordamida harakatlanuvchi dvigatellar o'rnatilgan bo'lib, ularning quvvati 15–45 ot kuchidan oshmasdi. Faqat bir necha yirik paxta tozalash zavodlarni elektr yordamida yoritish maqsadida kichkina dinamli stansiyalar o'rnatilgan edi. Zavod va fabrikalarda yollanib ishlayotgan mehnatkashlarning ahvoli ham ayanchli edi. Ular kuniga 10–12 soat ishlar va juda oz miqdorda xaq olardilar. Bunday ahvol mehnatkashlarning mustamlakachilar zulmiga qarshi noroziligini tobora kuchaytirib bordi. Ba'zi zavod fabrikalarda ishchilarning zulmga qarshi namoyish va norozilik harakatlari bo'lib turardi.

Qishloq xo'jaligi sohalarini rivojlantirish ishlariga ham e'tibor ortdi. Dehqonlarning mehnati sanoat ishchilariniki kabi juda og'ir bo'lib, asosiy ishlarni qo'l kuchi, ho'kiz, ot, eshak va tuyalar yordamida bajarardilar. 1909 yilgi ma'lumotlarga qaraganda xonlikdagi jami ekin maydonlari — 226983 desyatini tashkil qilgan bo'lib, shundan bug'doy ekiladigan maydonlar — 53579 desyatina (24,3 %), tariq — 8470 desyatina (10,6%), jo'xori — 31884 desyatina (14,3%), mosh — 5526 desyatina (2,8%), qovun — 13099 desyatina (5,9%), arpa — 5959 desyatina (2,7%), beda — 35277 desyatina (15,9%), paxta — 34775 desyatina (15,8%) va boshqa ekinlar 9081 desyatina maydonlarni (3,9%) egallagan<sup>39</sup>. Xorazm dehqonlari azaldan don ekinlari qatorida bug'doy, arpa, ayniqsa oq jo'huri ekishga ko'proq e'tibor beradilar. Shu bilan bir qatorda sabzavot va poliz ekinlari, chorva uchun uchun o't, em–hashaklarni ko'proq etishtirishga harakat qilardilar.

Paxta xom–ashyosining bahosi bug'doy va boshqa turdagi don mahsulotlariga qaraganda deyarlik 2 marta yuqori bo'lsada, xonlikdagi barcha sug'oriladigan er maydonlarining faqat 16,3 foizini paxta egallab turardi, xolos. Ayrim tadqiqotchilarning arxiv hujjatlariga tayangan holda ko'rsatishicha, 1900–1916 yillar orasida Xiva xonligida paxta etishtirish 21 marta o'sgan. 1916 yilda

---

<sup>39</sup> Lobachevskiy V. Xivinskiy rayon. — T., 1912. — 74–bet.

xonlikda 60 ming tanob erga paxta ekilgan bo‘lib, undan 86400 pud paxta xom-ashyosi olingan va hosildorlik 11 sentnerni tashkil qilgan<sup>40</sup>.

Xiva xonligida etishtirilgan va dastlabki ishlov berilgan paxta tolasining ko‘p qismi Rossiyaga jo‘natilgan hamda uning hajmi tinimsiz ortib borgan. Agar 1883 yilda Xiva xonligidan Rossiyaga 300 ming pud paxta olib ketilgan bo‘lsa, 1909 yilda 600 ming pud, 1910 yilda 700 ming pud va 1913 yilda 735 ming pud “amirkoni” navli .va 100 ming pud mahalliy “g‘o‘za” navli paxta tolasi olib ketilgan<sup>41</sup>.

1887-1896 yillarda har yili xonlikdan 178 ming pud paxta chiqarilgan bo‘lsa, 1906-1916 yillarda o‘rtacha 767 ming pudga etgan<sup>42</sup>. Paxta hom-ashyosi bilan savdo qilish natijasida ayrim xivaliklar juda katta boylik orttirishga muvaffaq bo‘lishgan. Natijada ular ham zavod-fabrikalar qurishga, sudho‘rlik bilan oldi-sotdi muomalasini kengaytirishga harakat qilganlar. Xususan, 1904 yilda Rossiyaga sotilgan paxtadan xivaliklar 4 mln. so‘m daromad qilgandilar<sup>43</sup>. Mahalliy boylar orasida Yu.Salimjonov, D.J.Nurov, J.Ibrohimov, A.Allaberganov, E.Do‘shanov, V.Botirov, K.Yusupov, X.Avazjanov, Matvafo va Matsafo Baqqolovlar, Atabaev, Madiyorov, Rizaev kabilar bo‘lgandi. Ular Rossiyaga paxta hom-ashyosidan tashqari beda urug‘i, qorako‘l teri, chit, ipak, ko‘rpalar, paxtadan va ipakdan bo‘lgan choponlar, qovun va qoq mevalar va ko‘plab boshqa mollarni ham chiqarib turganlar.

XX asr boshlarida Rossiyaning Ivanovo-Voznesensk gubernasidagi fabrikalarning arzon matolari, Moskvalik Sapojnikovlar firmasining ipak mollari, Germaniyaning “Zinger” firmasi ishlab chiqarayotgan tikish mashinalarini keltirish ko‘paydi. Shuningdek, xonlikka neft mahsulotlari, emal va temir idish tovoqlar, mehnat qurollari, miltiq va o‘k-dorilar, ayollarning taqinchoqlari, Tula samovarlari va grammafonlar va dori-darmonlar ko‘plab olib kelindi.

---

<sup>40</sup> Xudoyberganov M. Xorazm paxta tozalash sanoati tarixi. — 14-bet.

<sup>41</sup> To‘xtametov T.G. Rossiya i Xiva v kontse XIX — nachale XX veka.-M., 1969 — 104-bet.

<sup>42</sup> Istoriya Uzbekskoy SSR. V 2-tomax. T. 1. — T.: Gosizdat, 1956. — S. 323.

<sup>43</sup> Sadikov A. Ekonomicheskie svyazi Xivi s Rossiey. — S. 28.

Xiva xonligiga rus kapitali kirib kelishi natijasida ko'pgina savdo-tijorat firmalari va banklar xonlikda idoralar va omborxonalar ocha boshladilar. Urganchda "Katta Yaroslavl manufakturasi", "Og'a-ini Nobellar", "Moskva savdo-sanoat jamiyati", "Sindal", "Poznanskiy", "Kavkaz va Merkuriiy", "Nadejda", "Vostochnaya obshchestva", "Rossiyskoe transportnoe obshchestvo" kabi monopolistik birlashmalarning idoralari ishlay boshladi. Ularning xodimlari mahalliy savdogarlari bilan hamkorlikda chet elga jo'natiladigan mahsulotlar va xonlikka keltirilayotgan tovarlarni joylashtirish ishlarini yo'lga ko'yardilar. Oldi-sotdi muomalalarida operatsiyalarida paxta olib sotuvchi tarozibonlar, paxta zavodi egalari, sudxo'rlar bog'lik orttirardilar.

Xonlikdagi savdo, tovar-pul munosabatlari kengayishida bank-kredit tarmoqlarining o'rni mustahkamalan boshladi. 1909 yilda Yangi Urganchda "Rus-xitoy banki" bo'limi, 1910 yilda "Rus-Osiyo banki" filiali, 1915 yilda Sibir va Moskva savdo banklari agentlari ishlay boshladilar. Banklar paxta xom-ashyosi va boshqa tayyor mahsulotlar sotib olish uchun mablag'larini ayamadan sarflardilar. Ba'zida banklar paxta va boshqa xom-ashyoni olish uchun kredit pullarni to'lab qo'yar, raqobatchilarni sindirishning usullarini tinmay joriy etardilar. Xonlikdagi yirik banklarning xizmatidan Asfandiyorxon va yirik amaldorlari, moliyaviy jihatdan kuchli zavod egalari va savdogarlar keng foydalanib turishardi.

Xonning o'g'li Isfandiyor to'ra otasidan keyin qayin otasi bosh vazir Islom Xo'jani yordami bilan xonlik taxtiga o'tirdi, aksiga olib 1910-11 yillarda qurg'oqchilik bo'lib, xalq qashshoqlashdi, paxatchilik shu darajada kuchaydiki, Xon va uning amaldorlari soliqlarda belgilangan miqtordagi don-dunni talab qilib, tortib olishga o'tdilar. Xonning soliq to'lamagan kishilarni jazolarga tortish haqidagi farmoni xonlikning barcha xududlarida xalq g'alayonlarini avj olishiga turtki bo'ldi.

Qo'zg'olonlar ommoviy tus olishini oldini olish uchun Vaziri Akbar Islom Xo'ja xonning yangi farmonini e'lon qildirdi. "Bozordagi soliqlar tartibga solinsin, ko'priklar qurilsin, yo'llar obod bo'lsin, vaqf erlari qayta xisoblansin, fuqoralarimizning bundan keyingi osoyishta, farovon turmush kechirishi bilan

bogʻlik masalalar oʻrganib, tez fursatda hal qilinsin. Biz tamonimizdan amalga oshirilishi lozim boʻlgan bu ishlarga hech kim toʻsqinlik qilmasligi shart. Ushbu ishlarni amalga oshirishni xurmatli Islom xoʻja Ibrohim xoʻja oʻgʻliga topshirdik» deyiladi farmonida.

Xoʻsh Isfandiyorxon shaxs sifatida kim edi. U Muhammad Rahimxon II oʻgʻli, otasi singari shoir, yaʼni “**Farruh**” taxallusida sheʼrlar bitgan, soatsoz va qilichsoz usta, el kezgan savdogar rus-tuzem maktabida oʻqigan, oʻrta boʻyli, sargʻish saqolli, qozoq yuzli kishi boʻlgan.

Hukmdordan iltifot koʻrgan Muhammad Yusuf Bayoniy ham Asfandiyorxon haqida “Ul hazrat ulamoni koʻp doʻst tutar erdilar va sheʼriyati gʻarroning irtivojiga saʼy etar erdilar va bagʻoyat raiyatparvar va shavqatgustar va odilu–bozil kishi erdilar”<sup>44</sup>,— degan ulugʻ soʻzlarni yozgandi.

Islom xoʻja kuyovi Isfandiyorxonni otasi singari saltanatni odilona boshqarishga ishonardi. Isfandiyorxon farmoni kuchga kirib, soliqlar bir muncha kamaytirilgan, obodonchilik ishlari olib borilgan oʻsha yilning oʻzida Islom xoʻja xonlikda olib borilishi zarur boʻlgan isloxot rejasini ishlab chikdi. Isloxat dasturi 10-banddan iborat boʻlib, oʻsha vaqt uchun taraqqiyparvarlik mezonlari asosida ishlab chiqarilgandi. Isfandiyorxon dasturni koʻzdan kechirib, 10- bandni ham tasdiqlagan.

1. Xonlikdagi barcha mansabdor shaxslar davlat tomonidan maosh oladilar. Oldingi qoida boʻyicha soliqlardan tushgan daromadning bir qismini maosh tariqasida xarajat qilish bekor qilinadi.

2. Dehqonlardan olinadigan er soligʻi, qazuv puli bekor kilinadi. Soliq toʻlovchilarning toifasi qatʼiy belgilab qoʻyiladi.

3. Zakot (Qaromol soligʻi), boj va xiroj soliqlari qayta koʻrib chiqiladi, savdo-sotiq soliqlari muvofiklashtiriladi.

4. Shariat qoidalari... (qoʻlyozmada boʻlgan keyingi soʻzlarni oʻqib boʻlmadi).

5. Erlarni sugʻorish yaxshilanadi.

---

<sup>44</sup> Bayoniy M.YU. SHajarayi Xorazmshohiy // “Meros” toʻplamida, 259–bet.



6. Yo‘l qurilishi va ariqlardagi ko‘priklarni yaxshilashga kirishiladi.
7. Barcha shahar va noyibliklarda bemorlarni dovolash uchun zamonaviy kasalxonalar quriladi, aloxida tibbiy xizmat ko‘rsatish yaxshilanadi.
8. Barcha turdagi vaqf erlar qayta xisob kitob qilinadi va ulardan tushgan daromadlar madaniyat maorifni rivojlantirishga sarflanadi.
9. Barcha maktablarda o‘qitish dasturiga ko‘ra, shuningdek, Yangi usul maktablarida rus tili, jo‘grofiya, tarix darslik sifatida o‘qitiladi.
10. Xon xazinasidagi xisob-kitob qattiq nazorat qilinib, alohida kirim-chikim daftarlari yuritiladi.

Ushbu isloxlarni o‘tkazilishi xonlikda qat’iy tartib intizom o‘rnatish, davlat mulkini talon taroj qilmaslik, soliq to‘lovchilarning uni o‘zlashtirishi, avvallari soliq tufayli kelib chiqadigan isyonlarning oldini olishga sabab bo‘lardi. Shu kabi bu isloxtlar Xorazmga jadidlar orzusidagi taraqqiy etgan davlatlarning ilm-fan, texnika yutuqlarini olib kirishga xizmat qilardi.

Isloxat xon tomonidan tasdiqlangach, hayotga joriy qilina boshlandi. Avvallari soliq undiruvchilarning xalqdan yig‘ib olgan soliqning ma‘lum bir qismini o‘ziga olib qolishi kabi talon-tarojlikka chek qo‘yildi. Soliq to‘lashning qattiq nazorat ostiga olinishi turkman va qoroqolpoqlarning doimiy ravishda bo‘lib turadigan isyonlarining oldini oldi. Davlat er egaligi, mulk er egaligi, vaqf er egaligining aniq xisob kitobini qilishga kirishildi. Rossiyadan quruvchi muxandislar, er tuzuvchilar Xorazmga olib kelinib, ishga jalb qilindi. Ular bilan birgalikda xonlikdagi kanallarga temir ko‘prik o‘rnatish loyixasi tuzildi, mavjud barcha maydonlarni o‘lchab chiqishga kirishildi. Xiva shahrining Yangi loixasi tuzilib, unga ko‘ra, shahar eniga 3-barobar kengayishi kerak edi.

Asfandiyorxon dastlabki ishlaridan biri — Xiva qal’asining orqa tarafidagi erlarni obodonlashtirish bo‘ldi. Yangi Xiva deb nom olgan bu erdagi Urganch darvozasi buzilib, o‘rniga kirish–chiqish uchun qulay 2 yo‘lakli yangi darvoza qurish ishi Otajon devonga buyurildi. Darvozaga yaqin joyda Otajon devon pochta–telegraf binosi uchun yangi imorat qurish ishlarini ham boshlab yubordi.

1911 yilda Asfandiyorxon Peterburgga safarga otlandi. Xonga hamroh boʻlganlar orasida Islomxoʻja, Husayn Muhammad devonbegi, Muhammad Vafo karvonboshi, Tolibxoʻja ismli amaldor bor edi. Xivaliklar 18 kun deganda Rossiya poytaxtiga etib bordilar. Imperator qabulida boʻlgan vaqtida Asfandiyorxon Xivada shahzoda Aleksey nomiga kasalxonada qurishga ruxsat soʻradi<sup>45</sup>. Ushbu taklif maʼqullangandan keyin, Islomxoʻja Peterburg harbiy meditsina akademiyasi professori V.N.Sirotinidan qurilishi rejalashtirilayotgan kasalxonada ishlashga loyiq tajribali vrachni tanlashda yordam berishni iltimos qildi.

Asfandiyorxon oʻz hamrohlari bilan 11 kun davomida Peterburg atrofidagi goʻzal joylarni tamosha qilgach, Moskva orqali yurtiga qaytdilar. Moskvada Islomxoʻja Soldatenkov nomidagi shahar kasalxonasi bosh vrachi F.A.Gete bilan uchrashdi va uning tavsiyasi bilan arxitektor A.P.Roopdan Xivada quriladigan kasalxonada binosi loyihasini tayyorlab berishni soʻradi. Kasalxonadagi teri–tanosil, koʻz va yuqumli kasalliklari, jarrohlik va davolash boʻlimlarida 50 oʻrin rejalashtirilgan boʻlib, ularni qurishga 250 ming soʻm ajratildi<sup>46</sup>. Xivadagi pochta binosi qarshisida barpo etila boshlagan kasalxonada qurilishi Rahimbergan devonga topshirildi va u 1912 yilda qad rostladi.

1913 yil 10 fevralda Asfandiyorxon oʻz amaldorlari bilan Romanovlar sulolasining Rossiyada 300 yillik hukmronligiga bagʻishlangan tantanalarda qatnashish uchun Chorjoʻydan poezdga oʻtirdi. 16 feralda Peterburga etib borgan xivaliklar ikki oy davomida poytaxtda ushlanib qoldilar. Shu vaqtda oʻtkazilgan bir qator muzokaralar natijasi va bosh vazir Islomxoʻjaning saʼy–harakatlari bilan Xivada qurilayotgan kasalxonada ishlash uchun vrachlarni taklif qilish masalasi nihoyasiga etkazildi<sup>47</sup>.

Asfandiyorxon va uning hamrohlari Rossiyadan 1913 yil 12 martda qaytib keldilar<sup>48</sup>. Shu yil may oyida professor Sirotinin Xiva kasalxonasi vrachi lavozimiga Saratov guberniyasida ishlayotgan qobiliyatli jarroh va koʻz

---

<sup>45</sup> OʻzR. MDA, f. I-2, op. 1, d. 305, l. 233.

<sup>46</sup> OʻzR. MDA, f. I-2, op. 1, d. 305, l. 252.

<sup>47</sup> Maxmudov M. Pervaya bolnitsa v Xorezme // "Sov-e zdr-e", 1984, № 1. — S. 67–69.

<sup>48</sup> OʻzR. MDA, f. I-2, op. 1, d. 305, l. 56.

kasalliklarini yaxshi biladigan shifokor Aleksey Fedorovich Ansimov nomzodini taklif qildi<sup>49</sup>. 1913 yil 4 iyulda Xivaga kelgan A.F.Ansimovga ishonch bildirildi va u zarur jihozlarni olib kelish uchun Moskvaga jo'natildi. Yo'l-yo'lakay, 1913 yil 15 iyulda A.F.Ansimov Toshkentda Turkiston general-gubernatori vazifasini bajaruvchi Flug qabulida bo'ldi va Xiva kasalxonasida 1 sentyabrdan ishga tushishga ruxsat oldi<sup>50</sup>.

Kasalxonadagi ikkinchi vrach lavozimiga Namangan viloyatidagi Pop qishloq vrachlik punktida ishlayotgan Gulsum Jaffarovna Asfandiyorova taklif etildi<sup>51</sup>. 1908 yilda Peterburg ayollar meditsina institutini tugatgan G.J.Asfandiyorovning otasi — polkovnik Sultan Jafar Asfandiyorov Turkiston general-gubernatori devonxonasi tarjimoni sifatida ko'p marta Xivada bo'lgan, ayrim vaqtlarda xonning Rossiyaga qilgan safarlarida hamrohlik ham etgandi<sup>52</sup>.

1913 yil 23 sentyabrda Xivadagi kasalxona ishga tushirildi. SHu munosabat bilan Asfandiyorxon Turkiston general-gubernatori nomiga quyidagi telegrammani jo'natdi: “Siz hazrati oliylariga shuni ma'lum qilamanki, men tomondan Xivada martabasi oliy taxt vorisi, buyuk knyaz Aleksey Nikolaevich nomiga qurilgan kasalxona shu yilning 23 sentyabrida, general-mayor S.Seyl, ulamolar va amaldorlar ishtirokida, meditsina hizmati ko'rsatish uchun ochildi”<sup>53</sup>. General-gubernator A.V.Samsonov o'zining javob telegrammasida xonga minnatdorchilik bildirish<sup>54</sup> bilan cheklanib qolmasdan, unga xat ham yozdi. Unda shunday so'zlar bor: “Xalqingiz tomonidan sizning nomingiz hamma vaqt duo qilinadi. Holbuki, o'z xalqi baxti uchun yashash har bir hukmdorga saodat

---

<sup>49</sup> O'sha manba. — Il. 5–7, 233.

<sup>50</sup> O'sha manba. — I. 259.

<sup>51</sup> Mahmudov M. Sayyid Islomxo'ja nomi berilsa // “Xorazm haqiqati”, 1993, 30 iyun; Mahmudov M. Xorazm: tarix, odamlar, voqealar. — Urganch, 2004. — 139–bet.

<sup>52</sup> S.Asfandiyorovning 1898 yil 18 oktyabrda yozgan tarjimai holida Kichik Juz sultoni Abulhayr avlodidan ekanligi va deyarlik 30 yil davomida tarjimon sifatida Turkistonda ishlayotganligi, 1874 yilda uylanganligi va 8 ta farzandi borligi haqida ma'lumot beradi. To'plagan biroz mablag'i oilasini ta'minlab turish va bolalarini tarbiya qilish uchun sarflanganligi, Toshkent yaqinida sotib olgan 2 er uchastkasi qo'ldan ketganligi sababli nafaqada yashash og'irligi haqida yozadi. “Ichon-qal'a” davlat muzey- qo'riqxonasining “Xiva xonligi tarixi” bo'limi ekspozitsiyasida 1888 yilda Muhammad Rahimxon Feruz, Matmurot devonbegi va Komil Xorazmiy bilan tushgan S.Asfandiyorovning surati **KP??????** bilan namoishga qo'yilgan.

<sup>53</sup> O'zR. MDA, f. I–2, op. 1, d. 305, l. 233.

<sup>54</sup> O'sha manba. — L. 237.

keltiruvchi omil hisoblanadi. O‘ylaymanki, Xiva xalqi g‘amho‘rlik va kelajakdagi himmatli ishlarinigiz uchun sizdek oliy zotdan yana ko‘p mehribonliklar ko‘radi’<sup>55</sup>.

Xivadagi kasalxonaning ochilishi marosimida qatnashgan Bayoniy yozgandi: “Ushbu yil zulqa‘da oyida dorushshifo, ya‘ni duxturxonaning binosi itmomga etdi. Xon hazratlari onda yaxshi to‘y berib, tamomi ulamo va tamomi to‘ralar, beklar va tamomu amaldoru oqsoqollar va tamomi elni da‘vat etdilar va Rusiya duxturlaridan ikki duxturni talab etib kelturmish erdilar. Biri muzakkar (erkak) va biri muannas (ayol) erdi. Ul ikkovi viloyatning tamomi zukuru anosdin (erkagu–ayol) bemor bo‘lg‘onlarga mudovo (shifo) etmakka mutakaffil (kafil) bo‘lib, ul duxturxonada qaror toptilar. Olarga vofir vazifalar ta‘yin etdilar. Tamomi xaloyiq xushhol bo‘lib, zukur va anosdinkim, bemor bo‘lsa kelib shifo topib ketar edilar’<sup>56</sup>.

Xiva kasalxonasining dovrug‘i tez orada butun Quyi Amudaryo havzasida yashayotgan xalqar orasiga keng tarqaldi. “Xiva kabi xonlikning shahar–qishloqlari aholisi ham kasalxonaga tibbiy xizmat so‘rab, o‘z istagi bilan murojaat qiladilar’<sup>57</sup>,— deb yozgandi bosh vrach A.F.Ansimov o‘zining 1914 yil 22 fevralda Amudaryo bo‘limi boshlig‘i nomiga yozgan maktubida. 1913 yilning oktyabrda kasalxona va uning qoshidagi ambulatoriya 1577 erkak va 1162 ayolni, noyabrda — 2222 erkak va 1976 ayolni, dekabrda — 2358 erkak va 1609 ayolni qabul qildi<sup>58</sup>. Qisman pullik xizmat joriy etilgach, 1914 yil yanvarida 1596 erkak va 1128 ayol qabul qilindi, ya‘ni murojaat etuvchilar soni oldingi oyga nisbatan 1238 nafarga kamayib ketdi<sup>59</sup>. Bunday holatning sabablari qatorida A.F.Ansimov kasalxona aptekasidagi zarur dori–darmonlarning etishmasligi va ularning narxi qimmat ekanligini ko‘rsatgan. Vaziyatni yaxshilash uchun Urganch va Xivada dorixonalar ochish taklif etilgandi.

---

<sup>55</sup> O‘sha manba. — L. 226–orqasi.

<sup>56</sup> Bayoniy M.YU. SHajarayi Xorazmshohiy // “Meros” to‘plamida, 264–bet.

<sup>57</sup> O‘zR. MDA, f. I–2, op. 1, d. 309, l. 15.

<sup>58</sup> O‘zR. MDA, f. I–2, op. 1, d. 309, l. 15–orqasi.

<sup>59</sup> O‘zR. MDA, f. I–2, op. 1, d. 309, l. 15–orqasi.

Ammo A.F.Ansimov keyinchalik o'zining ushbu tashabbusidan aziyat chekkanligi tarixiy hujjatlarda ko'rinib turibdi<sup>60</sup>. Chunki Petro–Aleksandrovskdagi farmatsevt Matvey Bersudskiy aptekasining Yangi Urganchda ochilgan filialida tibbiy dori–darmonlar o'rniga ko'proq aroq–vino mahsulotlari sotilishi mahalliy aholi bu erda ishlayotgan ruslarning salomatligiga zararli ta'sir ko'rsata boshlagandi.

1916–1917 yillarda Xiva xonligida ro'y bergan noxush siyosiy voqealar kasalxona ahvoliga ham o'ta qattiq zarar etkazdi. Ajratilayotgan mablag'larning kamligi, tibbiy xodimlar hayotining doimiy xavf–hatar ostida qolishi ularning Toshkent va Moskvaga ketib qolishlarini tezlashtirdi. Xonlik aholisi xotirasida yorqin iz qoldirgan Xiva kasalxonasi faqat 1920 yil yozidan boshlab yana o'z faoliyatini rus vrachlari yordamida tiklay oldi, xolos.

## **2.2. Xiva xonligining tashqi siyosati.**

XVI asrdan boshlab tarix sahnasida muhim iz qoldirgan O'rta Osiyo xonliklaridan biri Xiva xonligidir. Xiva xonligi Buxoro amirligi kabi o'zining geografik jihatdan qulay joyda joylashganligi va suv yo'li bilan taminlanganligi sababli O'rta Osiyodagi eng rivojlangan davlatlardan bo'lgan. Xiva xonligi karvon yo'llari ustida joylashgan. Ayniqsa, u Rossiyaning Buxoro bilan savdo aloqalarida muhim o'rin egallagan. Xiva xonligi G'arb bilan Sharq o'rtasidagi savdoda faol qatnashgan. Xonlikning tashqi savdo aloqalaridagi keng ishtiroki uning hunarmandchilik taraqqiyoti bilan bog'liq. Xonlik poytaxti bo'lgan Xiva shahri hunarmandchiligi uzoq tarixiy ananalarga ega. O'rta asrlarda shahar hunarmandchiligi ixtisoslashtirilgan edi. Jumladan, Xivada gilam to'qish, yog'och o'ymakorligi, to'quvchilik va boshqa hunarmandchilik tarmoqlari mavjud bo'lgan.

1753 yil Xiva va Buxoroda bo'lgan rus savdogari D.Rukavkin paxta ekinining mo'lligi va hunarmandchilik korxonalarini ochish uchun davlatning ma'lum tartib qoidalarining yo'qligini yozadi. Uning xabariga ko'ra, bu erda hech

---

<sup>60</sup> O'sha joyda. — 1. 46–47.

qanday ruxsat olmasdan, xoxlagan cha zavodlar, yani korxonalar ochish mumkin bo'lgan. Bu o'rinda albatta xivaliklarning xususiy korxonalarni ochishga davlat tomonidan to'siqning bo'lmaganligi etirof etiladi.

XIX asrning 30-40-yillarida Xivada hunarmandchilik sohalarining eng muhimlaridan biri zargarlik hisoblangan. Zargarlar tilla buyumlar, taqinchoklar yasashda feruza, koral, marvarid, lal, zumrad, rangli shisha, sapfir kabi toshlardan ko'p foydalangan.

XIX asrning ikkinchi yarmida saqlanib qolgan hunarmandlar va savdogarlar nomlari, Xiva bozorlarida tovarlar xilma-xilligi haqida tasavvur qilishga imkon beradi. Jumladan, pazachier haydash asboblari yasovchilar, xarrak-temirchilar, kuchanchi-buyincha yasovchi ustalar, misgar, zargar, pichoqchi, qinchi, bo'yoqchi, choponfurush, telpakdo'z, konchi, kovushdo'z, tavoqchi, qulfgar, kiyizfurush, juvozchi, sholikor-sholitegirmonida ishlovchi, qassob, tuzchi, kallapoz-qo'y kallasi sotuvchilar, baliqchi, nonvoy, choy va tamaki sotuvchilar, baqqollar, yog'och furushlar, ko'mirchi, shamchi, sovunchi, sarrof, jarchi va boshqalar.

Bozorlarda bazi hunarmandlarning do'konlari ham bo'lib, mahsulotni shu erda ham tayyorlagan va ham sotgan. Demak, do'kon ham korxonona, ham rasta vazifasini o'tagan. Masalan: temirchi, misgar, tunkachi, sandiqchi va boshqalar. Po'stindo'zlar, ipak mato to'quvchilar, etikchilar va boshqalar uylarida ishlaganlar, va bozor kunlari mahsulotni bozorga olib chiqib sotganlar<sup>61</sup>. Xiva ananaviy metall buyumlar ishlab chikarish markazi bo'lib, XIX asrning o'rtalarida u erda 38 misgar bo'lgan.

Shunday qilib, Xorazmning hunarmandchiligi iqtisodiy hayotda muhim rol o'ynagan. Eng muhim badiiy buyumlar yasash ananalari Xorazm ustalaridan meros bo'lib kelgan.

Mamlakatda hunarmandchilikning rivojlanishi bevosita iqtisodiy taraqqiyotga, ichki va tashqi savdo aloqalarining rivojlanishiga zamin yaratgan.

---

<sup>61</sup> Fayziev A.F. Remeslo Xivi v pervoy polovine XIX veka.//Pozdnefederalniy gorod Sredniy Azii. Toshkent. 1990 g. Str. 170

Demak, serqirra hunarmandchilik tarmoqlarining mavjudligi Xivaning azaldan moddiy va ma'naviy madaniyat markazi bo'lib kelganligini, xivaliklarning boshqa davlatlar bilan iqtisodiy-savdo aloqalarini davom ettirib kelganligini XVI asrda ham kuzatish mumkin, degan xulosa qilishga imkoniyat beradi.

Xiva xonligi XVI asrda Rossiya, Hindiston, Eron, Buxoro xonligi bilan savdo aloqalarida bo'lgan. Xivaning tashqi iqtisodiy aloqalarini Xivaga kelgan rossiyalik va chet ellik elchilarning, hamda Rossiyaga borgan xivalik elchilarning keltirgan ma'lumotlarini tahlil qilish asnosida yoritishga harakat qilamiz.

Jumladan, 1585 yil 11 noyabrda xivalik elchi Xo'ja Muhammadning Rossiya podshosi Fedor Ivanovichga keltirgan tortiqlari orasida tillo zari yuritilgan har xil ranglar bilan bo'yalgan, qimmatboho mashhad kamoni ham bo'lgan<sup>62</sup>. Bu esa Xivaning Eron bilan savdo qilganligining bir isboti hisoblanadi

A.Chuloshnikov XVI asr o'rtalarida Moskva davlatining O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini yoritish jarayonida rus hukumatining Hindistonni bilishga intilishini ham e'tibordan chetda qoldirmagan. Ko'rib o'tilganidek, XVI asr ikkinchi yarmidan e'tiboran Rossiya Hindistonga boradigan karvon yo'llarini qidirib O'rta Osiyo va Eronga maxsus elchiliklar jo'natgan edi. Bu vaqtlarda Rossiya bilan Hindiston o'rtasida bevosita iqtisodiy munosabatlar yo'lga qo'yilmagan bo'lsa ham, hind tovarlari o'rtaosiyolik savdogarlar orqali Rus erlariga kirib kelgan. A.Chuloshnikov o'rta asrlarda O'rta Osiyo bilan Rossiya o'rtasida savdo aloqalarining quyidagi usullari mavjud bo'lganligini e'tirof qiladi. Birinchidan, shox va xonlar o'rtasidagi savdo bo'lib, ular ishonchli vakillari – shaxslar, mehmonlar va savdogarlar orqali amalga oshirilgan. Ikkinchidan, xususiy savdogarlarning erkin tovar ayirboshlashi, va nihoyat, uchinchidan, hadya tariqasida xon va elchilarning nodir buyumlarni ayirboshlashi<sup>63</sup>.

XVII asrda ham Xiva xonligi bilan Rossiya o'rtasida elchilik va savdo aloqalari davom etgan. Elchilar Xiva xoni nomidan rus podshosiga tortiqlar olib borgan. Hadyalar tarkibida hind tovarlari ham bo'lgan. Masalan, 1641 yil noyabrda

---

<sup>62</sup> Materiali po istorii Uzbekskoy, Tadjikskoy i Turkmenskoy SSR. CH. 1. M., 1932. s. 99.

<sup>63</sup> CHuloshnikov A. Torgovlya Moskovskogo gosudarstva s narodami Sredney Azii XVI-XVII vv. V kn.: Materiali po istorii Uzbekskoy, Tadjikskoy i Turkmenskoy SSR. CH. 1. L-1932. s. 68

Xiva elchisi Muhammad Amin Bahodir tomonidan 100 ta hind viboykasi olib kelinganligi, elchining o'zida boshqa tovarlar qatorida 100 bo'lak hind chiti, 4 idishda nil bo'yog'i bo'lganligi ma'lum<sup>64</sup>.

1646 yil 1 sentyabrda xivalik elchi Nazar Nodirqulov Astrobodda yo'lda kelayotgan vaqtida o'g'irlangan tovarlari ro'yxatida boshqalar qatori 6 ta hind dokasi, 5 ta hind tillo izufrey, 9 ta hind viboykasi, qo'y terisidan ishlangan 10 ta hind bosh kiyimi bo'lgan<sup>65</sup>. 1645 yilda Xiva xoni Abulg'ozixon hind podshosiga xat yozib, unda ilgari urganch xonlari hind shoxlari bilan tinchlikda yashashgan va savdogarlar bir-birlarining tomonlariga qatnab turganligini aytib, endilikda ikki mamlakat o'rtasidagi o'sha do'stlik va savdo aloqalarini davom ettirishni taklif qilgan. Hozirda esa Urganch xoni Hindiston shoxi bilan do'stlik aloqalari o'rnatgan bo'lib, savdogarlar bir-birlarining mamlakatiga qatnab turadi, deb bu haqda 1646 yil 7 noyabrda Astraxanga borgan Xiva elchisi Shayxbobo ma'lumot bergan<sup>66</sup>. Shu kabi xabarlar asosida XVI-XVII asrlarda Xiva bilan Hindiston o'rtasida do'stona siyosiy va iqtisodiy savdo munosabatlari o'rnatilgan, deyish mumkin.

1667 yil 19 dekabrda Xiva elchisi Po'lat-Muhammad mahkamada Xiva xoni Hindiston shoxi bilan bordi-keldi qiladi va savdogarlar har ikki tomonga borib erkin savdo kiladilar deb javob bergan. Urganchdan Hindistonga quruqlik yo'li bilan bir yarim oyda boradi, degan. Ularning tovarlari hind, doka, qalampirmunchoq, dolchin, buyoq va boshqa tovarlar<sup>67</sup>.

Rus elchisi Ivan Fedotov 1669 yil 13 iyunda Xiva xoni Anusha xon huzurida bo'lgan va Rossiyaga qaytib kelgach, o'z axborotida buxoroliklar va xivaliklar bir-birlari bilan o'zaro savdo qilishi, bozorlarda uchratgan tovarlari, ularning narx-navosi haqida ma'lum qilgan. U Urganchlik savdogarlar Buxorodan viboyka, ip gazlama va rang-barang ipak matolari keltirishini, lekin, buxorolik savdogarlarning Xiva va Urganchga kam kelishini e'tirof etgan. SHu bilan birga

---

<sup>64</sup> Materiali po istorii Uzbekskoy, Tadjikskoy i Turkmenskoy SSR. CH. 1. L-1932. s. 168

<sup>65</sup> O'sha asar. 198 b.

<sup>66</sup> O'sha asar. 317 b.

<sup>67</sup> Russko-indiyskie otnosheniya v XVII veke. Sbornik dokumentov. M., IVL., 1958. s. 162.



I.Fedotov hindlar va balxliklar Xivaga kelishmaydi hamda Xivada hind omborlari ham yo‘q, deb xabar beradi. Qizig‘i shundaki, elchi Xiva bozorlarida sotilayotgan tovarlar narxini Astraxanda sotilish narxi bilan taqqoslab, bu tovarlarni Rossiyada sotishdan foyda chiqmaydi, deb hisoblagan<sup>68</sup>.

I.Fedotov ko‘rsatmalaridagi hindlar va balxliklarning Xiva bilan savdo qilishmasligi haqidagi xabari ikki yil avval, ya‘ni 1667 yildagi Xiva elchisi Po‘lat Muhammadning bergan ma‘lumotlariga zid keladi. Aftidan, I.Fedotov sharq davlatlarda savdoning o‘ziga xos tamonlaridan bexabar bo‘lgan. Ko‘p holatlarda O‘rta Osiyo xonlari bilan Hindiston shoxlari o‘rtasidagi savdo A.Chuloshnikov eslatib o‘tgan savdo usullari orqali amalga oshirilgan..

Mahmud ibn Vali “Bahr-ul asror” asarida Balx viloyati, uning jug‘rofik o‘rni, odamlari, poliz va sabzavot ekinlari haqidagi bo‘limda u erda etishtiriladigan va chetdan olib kelinadigan mahsulotlar haqida xabar berib, Xorazmdan ko‘ktarnay qovuni, Buxorodan qora qovun, mulla payandagi va daroyi, Samarqandning zagare qovuni va gilosi, shimoliy Xitoyning shaftolilari, Xorazmning tut daraxtlari, Marg‘ilonning charxi deb atalgan o‘riklari, Samarqandning sangak olmasi va boshqalarning Balxga keltirilganligi va hattoki u erda etishtirila boshlanganligini ta‘kidlaydi<sup>69</sup>.

Demak, Xorazm qovunlari Balxda ham mashhur bo‘lgan. Ma‘lumki, qovun suvsiz o‘smaydi, ko‘p sug‘orilsa unchalik shirin ham bo‘lmaydi. Mahmud ibn Vali Xorazmda sug‘ormasdan qovun etishtirish siri haqida ma‘lumot beradi. Uning yozishicha, yantoqning uzun tomiri uzunasiga kesilib, unga qovun urig‘i joylashtiriladi, ya‘ni ekiladi. Qovun o‘sib chiqib, pishgunga qadar yantoq ildizi suvi bilan oziqlanadi. Bunday qovun katta va shirin bo‘lgan<sup>70</sup>. Bu kabi qovun etishtirish usuli hozirgi kunda ham Buxoro viloyatining ba‘zi cho‘l xududlarida qo‘llaniladi. Mahmud ibn Vali Xorazmning rus erlari bilan savdodan katta foyda olishini ta‘kidlab o‘tgan edi.

---

<sup>68</sup> Xanikov YA.V. Poyasnitelnaya zapiska k karte Aralskago Morya i Xivinskago xanstva, s ix okrestnostyami. SPb., 1851. s.39-40.

<sup>69</sup> Mahmud ibn Vali. More tayn otnositelno doblestey blagorodnix (geografiya). Vvedenie, perevod, primechaniya, ukazateli B.A.Axmedova. T.: 1977. s.24-25.

<sup>70</sup> O‘sha asar. 44 b.

Xulosa shuki, XVI-XVII asrlarda Xiva xonligi doimo rus davlatining diqqat markazida bo'lgan. Elchilarning va o'rta asr mualliflarining bergan ma'lumotlariga ko'ra, xonlik Hindiston bilan yaqin savdo aloqalarida bo'lgan.

XVIII asrda Rossiya O'rta Osiyo xonliklari bilan yaqin savdo aloqalari o'rnatishga jadal kirisha boshlaydi. Bu davrda dengiz savdosining ahamiyati ortib bora boshlaydi. Savdogarlar Astraxandan Kaspiy dengizi orqali Mangishloqqa, u erdan quruqlik bilan Urganch, Xiva va Buxoroga borishgan.

O'rta Osiyodagi agrar masalalar bilan shug'ullangan E. Zelkina o'rta asrlar boshlarida Evropa bilan Hindiston o'rtasidagi savdo aloqalarida O'rta Osiyoning alohida o'rni bo'lganligi, bu davrda savdo-sotiq juda ham gullab yashnaganligi, ammo, XVI-XVII asrlarda bu savdo bir oz sekinlashgan bo'lsa, XVIII asrda yana jonlanish sezilganligini ta'kidlaydi. Muallif o'rta asr bozorlaridagi qul savdosiga ham e'tiborini qaratgan. Qulchilik bozori ko'proq Xivada bo'lganligi extimol. Zelkina ma'lumotiga ko'ra, Xivaning katta bozorlarida 200 tagacha qullar bo'lgan, O'rta Osiyoda qullar mehnati samarasiz bo'lib, ular asosan uy ishlarida va dalalarda ishlatilgan. U Xiva va Buxoroning Eron bilan chit, movut va qullar orqali qizg'in savdo qilganligini ta'kidlaydi<sup>71</sup>.

XVIII asrning 40-yillari oxirlaridan Erondagi ichki vaziyatning og'irligi va g'alayonlar hind savdosiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatgan. Eronda xonavayron bo'lgan hind savdogarlari endilikda e'tiborlarini O'rta Osiyo savdosiga qaratishga majbur bo'lgan. Avvallari unchalik rivojlanmagan hind savdosi, XVIII asrning ikkinchi yarimida muntazam davom etadigan va keng miqyosda olib boriladigan bo'ldi.

Demak, birinchidan, Xiva xonligi Eron bilan savdo aloqalari o'rnatgan bo'lgan, ikkinchidan xiva tovarlari hind savdogarlari qo'li bilan Rossiyaga olib borilgan, uchinchidan hindlar Eron orqali Xiva-Rossiya savdosida vositachi rolini bajargan.

XVIII-XIX asrlarda Xiva xonligi muayyan dinamik taraqqiyot bosqichiga erishgan edi. Qo'shni Buxoro amirligi, Qozoq juzlari va bebosh turkman

---

<sup>71</sup> Zelkina E. Ocherki po agrarnomu voprosu v Sredney Azii. M.: 1930. s. 20.

urug'larining murakkab o'rovi sharoitida bo'lishiga qaramay, xonlikda ba'zi stabil holatlar kuzatiladi. SHu davrda Xiva o'zining tashqi savdo munosabatlariga ham katta ahamiyat bergan. Lekin to'plangan materiallar shuni ko'rsatadiki, Xivaning tashqi iqtisodiy munosabatlari ko'proq Rossiya va u orqali g'arb mamlakatlari tomon intilgan. Xuddi shuningdek, G'arb mamlakatlarining, xususan, Angliyaning Xivaga qiziqishi va u orqali Eronga chiqish tendensiyasi paydo bo'lgan. Aslida bu intilish XVI asrdan boshlab kuzatiladi. Masalan, Angliyaning Moskvada tashkil etilgan savdo kompaniyasi Ioan Grozniy yorlig'i bilan A.Jenkinson rahbarligidagi savdo ekspeditsiyasiga sabab bo'lgan.

Bu o'rinda Xivaning sharq mamlakatlari bilan savdo munosabatlari qanday kechgani masalasi etarli darajada ma'lumotlar bilan ta'minlangan emas. Bu haqda XVI-XIX asrlar orasida Xivaga kelgan ko'plab savdo karvon ekspeditsiyalari tomonidan berilgan hisobotlardagi ma'lumotlargagina tayanilishi mumkin. Shu bilan birga Xivaga jo'natilgan G'arb mamlakatlarining, xususan, Rossiya va Angliyaning XVIII-XIX asrlar davomidagi savdo ekspeditsiyalari ma'lumotlariga ham alohida to'xtalishni maqsadga muvofiq deb topdik. Jumladan, 1726 yilda Xivadan Subxonqulibek boshliq elchilik missiyasi Peterburgga kelib Ekaterina 1 saroyida qabul qilingan. Elchilikning maqsadi Petr 1 davrida Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining halokati tufayli uzilib qolgan savdo-iqtisodiy munosabatlarni tiklash edi. Holbuki, Xiva tomonidan Petr 1 ga qadar Rossiya bilan aloqalar o'rnatish maqsadida 1585 yilda Xo'ja Muhammad boshchiligidagi, 1641 yilda Muhammad Amin Bahodir, 1646 yilda Nazar Nodirqulov, shu yilning o'zida Shohbobo rahbarligidagi bir qancha elchilik missiyalari va nihoyat Petr 1 ning o'zi davrida Shoxniyozxon elchiligi amalga oshirilganligi yuqorida ta'kidlab o'tildi.

XVIII asrning 20 – 40 –yillari Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklari bilan aloqalarida biroz sustkashlik seziladi. Bu holat Bekovich – Cherkasskiy ekspeditsiyasining halokati tufayli 1716- yildagi Rossiya bilan Xiva o'rtasidagi savdo iqtisodiy aloqalarining to'xtatilishi bilan bog'liq edi..

1726 yilda Peterburgga xivalik elchi Subxonkulibek keladi. U rus hukumati oldiga Rossiya bilan Xiva o'rtasida savdo munosabatlarini qaytadan

yurgizish masalasini qo'yadi. 1726 yil 17 sentyabrda Oliy maxfiy kengash Rossiyadan Xivaga savdogarlarni jo'natish xivaliklar uchun ham, Xivadagi rossiyaliklar uchun ham foyda keltiradi, axir savdoning taqiqlanishidan ham xazina va ham savdogarlar zarar ko'rmoqda, degan xulosaga kelgan edi.

Subxonqulibek elchilik missiyasiga javoban Rossiya Oliy maxfiy kengashi Xiva bilan savdo munosabatlari o'rnatish to'g'risida maxsus qaror chiqargan va Astraxandagi tayanch punktidan foydalanib, o'sha paytlarda Rossiya bilan savdo aloqalarida mashhur bo'lgan Samarqandlik Yodgor Alimov rahbarligida Xivaga rus savdo karvoni jo'natiladi.

1728 yilda Xivaga jo'natilgan ushbu karvon boshlig'i Yodgor Alimovga Rossiya savdo aloqalari uchun nafaqat Xiva haqida, balki Buxoro, Samarqand, Balx, Badaxshon, Koshg'ar, Toshkent, hatto Boburiylar Hindistonining Kobul va Laxor shaharlarigacha - qanday imkoniyatlar borligini o'rganish vazifasi topshirildi. Ushbu savdo karvonini himoya qilish uchun Yoyiq kazaklaridan tuzilgan otliq askarlar ajratildi. Yuqoridagi Oliy maxfiy kengash qarorida Astraxanda va Rossiyaning boshqa shaharlarida Xiva va Buxorodan keltirilgan mollar bilan savdo qilishga ruxsat berilgan edi.

1729 yilda Yodgor Samarqandiy Rossiyaga Buxoro va Xiva xonlari nomidan elchilik yorliqlari bilan keladi. Xususan, unda Xiva xoni Rossiya savdogarlarining xavfsizligini ta'minlash majburiyatini olgan edi. Ikki yildan so'ng, ya'ni 1731 yilda Xiva xoni Ilbarsxon Astraxan gubernatori Izmaylovga maktub jo'natib, karvonlarning xavfsizligini ta'minlash haqida majburiyat olgan. Xon karvonlarni Astraxandan kemalarda Mang'ishloqqacha, va u erdan quruqlik yo'li bilan Xivagacha keladi. Xon Mang'ishloqda savdogarlar uchun tuyalar va himoya qilish uchun otliq askarlar hozirlab qo'yishni o'z zimmasiga olgan. Savdo karvonlari Xivadan Rossiyaga qaytishda yana Mang'ishloq orqali qaytishi va uning himoyasini tashkil qilishi va agarda favqulodda baxtsiz hodisa sodir bo'lsa, xon hamma aybni o'z zimmasiga olishi va ko'rilgan zararni to'lashi eslatilgan. Agarda karvon bilan baxtsiz hodisa dengizda sodir bo'lsa, u holda xon javob bermasligi ham ta'kidlangan. Xon savdo karvonlarining talanishini iloji boricha kamaytirish

va avvalgi savdo ishlarini qaytadan kengaytirishga umid bogʻlaganligini bildirgan edi.

Xuddi shunday mazmundagi majburiyatlar Xiva xoni tomonidan 1734 va 1736 yillarda takrorlangan edi. Va nihoyat, 1731 yil Rossiya hukumati polkovnik I.I.Garber rahbarligida Xiva va Buxoroga qoʻriqchilar bilan savdo karvoni joʻnatadi. Unga savdo yoʻllari xaritasini tuzish, Xiva va Buxorodagi iqtisodiy ahvol haqida maʼlumotlar toʻplash, Xiva va Buxoroning savdo aloqalari, ularga bir yilda qanday tovarlar va qancha miqdorda kerakligi haqida maʼlumotlar toʻplash topshirilgan edi. Bundan tashqari, Garberga Hindistonga borish yoʻlini aniqlash, oltin va qimmatbaho toshlar bor joylar haqida maʼlumotlar yigʻish vazifasi ham yuklangan edi. Lekin 1732 yili yuqoridagi koʻrsatmalar asosida joʻnatilgan karvon yoʻlda qozoq sultoni Botirxon tomonidan talangani sababli maqsadga erishaolmagan.

Shuni alohida taʼkidlamoq kerakki, Rossiyaga Oʻrta Osiyodan keltirilayotgan tovarlar orasida Eron tangalari ham boʻlgan. Masalan, 1749 yil Orenburg orqali Astraxanga 14 savdogar 17896 rub.lik 17 partiya tovarlar, shu jumladan, 10532 rub.lik 15 pud 10 funt ogʻirlikdagi kumushdan iborat boʻlgan 3 partiya tovarlar keltirilgan. 3 partiya kumush bu “abbosiy” deb ataluvchi eronning kumush tangalari hisoblangan. Oʻrtaosiyolik savdogarlar kumushni Orenburgda tovarlarga ayirbosh qilishgan. Kumushlar Moskvadagi pul zarbxonalarida har zolotnigi (rus oʻlchov birligi), yaʼni misqoli (4.25 grammga teng ogʻirlik oʻlchovi) 18 kop.dan yoki bir pudi 691 r. 20 k.dan qabul qilingan<sup>72</sup>. Rossiyaga kumush tangalar Xiva va Buxorodan oʻrtaosiyolik savdogarlar orqali keltirilgan. Demak, XVIII asr oʻrtalarida Xiva bilan Eron oʻrtasida savdo aloqalari qalinroq boʻlgan, degan xulosa qilish mumkin.

Xiva va Buxorodan Astraxanga tovarlarni oʻrtaosiyolik savdogarlar, yaʼni xivaliklar, buxoroliklar va turkmanlar olib kelgan. 30-yillarda Astraxanga keltirilgan jami tovarlarning taxminan 51% oʻrtaosiyoliklar zimmasiga tushgan.

---

<sup>72</sup> YUxt A.I. Torgovlya Xivi i Buxari s Rossiey cherez Astraxan (20-40-e godi XVIII v.) //Pozdnefeodalniy gorod Sredney Azii. T., 1990. s. 118.

Ular orsida xivaliklar etakchi mavqeni egallagan. 1734-1735 yillarda o'rtasoyolik savdogarlar Astraxanga 17 ming rublik tovar olib kelgan bo'lib, shundan 13 minggi xivaliklar zimmasiga tushgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Astraxan orqali Rossiya bilan Xiva va Buxoro xonliklari o'rtasidagi savdoda xivalik savdogarlar muhim o'rinni egallaganlar. Astraxan bojxonasiga keltirilgan tovarlarni ro'yxatga olish kitoblarida O'rta Osiyodan Rossiyaga keltirilgan tovarlar ro'yxati, tovarlarning o'lchov miqdori va narxlari haqidagi ma'lumotlarga asoslanib Rossiyaning O'rta Osiyo bilan savdosida xivalik savdogarlar etakchi o'rinni egallaganliklariga umid qilish mumkin. Xivaliklar o'zlari bilan mahalliy tovarlar qatori Eron va Hindiston tovarlarini ham Astraxanga olib borganliklarini ko'rishimiz mumkin.

Xiva xonligi tarixi va uning qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalari to'g'risida anchagina ma'lumotlar mavjud. Ma'lumotlarning aksariyati Rossiya tomonidan O'rta Osiyo xonliklarini, Eron va Hindistonni o'rganish maqsadida jo'natilgan elchilar va diplomatlar tomonidan yig'ilgan dalillardan iboratdir<sup>73</sup>. 1734 yili Angliya bilan Rossiya o'rtasida Rossiya orqali sharq mamlakatlari bilan tranzit savdo yo'llaridan foydalanish haqidagi bitim tuziladi. Bitim imzolangach, darhol, Rossiya kompaniyasining ingliz vakillari Rossiya orqali Eronga boradigan qulay savdo yo'llarini qidira boshlaydilar va shu maqsadda O'rta Osiyo, Ozarbayjon va Eronga bir necha xufiya ekspeditsiyalari tashkil qildilar.

Shu maqsadda, 1739 yili «Rus kompaniyasi»ning vakillari Djon Elton va Mungo Gremlar Xiva va Buxoroga jo'natilgan edi. Lekin Nodirshoxning O'rta Osiyoga hujumi xavfi haqidagi xabarni eshitgach, ular Astraxandan to'g'ri Eronga ketishni afzal ko'rishgan. Bu boshlangan ishni yakuniga etkazish maqsadida 1740 yil fevralda «Rus kompaniyasi» Xiva va Buxoroga yangi ekspeditsiya uyushtiradi. Uning tarkibida Georg Tompson va Regnald Xogg kabi josuslar bor edilar. Ular Xiva va Buxoroda savdo-sotiq sharoitlarini o'rganishlari kerak edi. Mazkur ekspeditsiya Rossiyaning janubi-sharqiy chegaralari va Qozog'iston cho'llari

---

<sup>73</sup> YUnusova L.I «Torgovlya gorodov Sredniy Azii, Azerbaydjana i Irana v 30-40-x gg. XVIII v. (po evropeyskim istochnikam) //Pozdnefeodalniy gorod Sredney Azii. T.: 1990. s.122-128.

orqali yo'lga tushadi. G.Tompson va R.Xogglarning kundaliklari Eronda bo'lgan «Rus kompaniyasi» savdogari Jonas Xonvey kitobida nashr qilingan. Bu kitobdan, muallifning va XVIII asrning birinchi yarmida Eronga kelgan boshqa evropaliklarning yo'l kundaliklari o'rin olgan. Ushbu kitobdagi ma'lumotlar XVIII asrning 30-40-yillarida O'rta Osiyo shaharlari, Ozarbayjon va Erondagi ichki va tashqi savdoning ahvoli, shaharlar hunarmandchiligi to'g'risidagi xabarlardan iborat. G. Tompson va R.Xogg 1740 yili 9 sentyabrda Yoyiq shahri orqali Qozog'iston cho'llari, Orol dengizining shimoliy-g'arbiy qirg'oqlari orqali o'tib Xivaga kirib kelishgan. Ingliz josuslari Xivadagi ichki savdoning holatini tahlil qilib, ular faqat Buxoro va Eron bilan savdo qiladilar, hayvon, mo'yna va terilarni qirg'iz (qozoq-A.R) va turkmanlardan oladilar deb, xabar qiladi. Qirg'izlar va turkmanlar xivaliklar uchun xavfli qo'shni hisoblanishgan ekan. Xivada uncha ko'p bo'lmagan paxta ekilgan, o'rtacha sifatli qo'y terisi (qorako'l bo'lishi mumkin), uncha ko'p bo'lmagan xom ipak etishtirgan va ipakdan mahsulot ishlab chiqarilgan.

Shunday qilib, ular Xivada ingliz sanoatini qiziqtiradigan xom ashyo manbai kam deb qayd etishadi. Hind tovarlariga kelsak, G.Tompson va R.Xogglar bu erda bo'lganlarida hind tovarlarini ko'rishmagan. Ular Xivaning Buxoro va Eron, hamda qo'shni ko'chmanchilar bilan savdo qilganliklarini e'tirof etishgan<sup>74</sup>.

Inglizlar Xivada o'zlarining tovarlari uchun bozor ham qidirgan, lekin izlanishlar natijasida ular Evropa tovarlariga xivaliklarning ehtiyoji kamligini sezishgan. SHuning uchun bu erda foydali savdo qilishga ko'zi etmay, foydadan ko'ra sarf-xarajat miqdori oshib ketadi, deb hisoblashgan. Boj masalasida, musulmon bo'lmaganlarning tovarlaridan 5%, musulmonlarnikidan esa 2,5% boj solig'i olingan. Demak, ingliz tovarlari uchun imkoniyatlar ancha cheklangan bo'lgan. «Rus kompaniyasi» josuslari Xivada, Nodirshox qo'shinlari Xivani egallashganigacha, ya'ni, 1740 yili 15 dekabrgacha qolishgan. Ular o'z tovarlarini eronliklarga sotib bo'lishgan, ammo pullarini hali olishmagan ekan.

---

<sup>74</sup> O'sha asar. s 124.

R.Xogg eronliklarga nasiyaga bergan mollarning pullarini olish maqsadida Xivada qolgan, so'ng Rossiyaga qaytmoqchi bo'lgan. G. Tompson esa Buxoroga jo'nagan. R.Xogg faqat 1741 yili aprel oyida Xivadan jo'nab ketishga muvaffaq bo'lgan. Yo'lda o'g'rilar tomonidan talangan R.Xogg Orenburg orqali 1742 yil bahorda Peterburgga etib borgan.

Buxoroga kelgan G.Tompson savdo aloqalarining ilgarigi davrga nisbatan yomonlashganligini ko'radi. U Buxoroda etishtiriladigan va ishlab chiqiladigan mahalliy mahsulot turlari bilan, Buxoro bozorlari va uning tashqi savdo aloqalari bilan qiziqadi. G.Tompson buxoroliklarning evropa tovarlariga ehtiyojini o'rganib, buxoroliklarning evropa tovarlariga talabi kamligini, movut kabi tovarlardan faqatgina bosh kiyim tikishda foydalanishini aniqlagan. U evropa tovarlarini Buxoro bozorlariga olib kelib, tavakkal qilishdan foyda yo'q, degan xulosaga keladi.

G.Tompson Buxoroda boj solig'i olinishiga o'z e'tiborini qaratgan. Buxoroda hamma keltiriladigan mollardan 1%, olib chiqiladigan mollardan esa 10% soliq olingan. Tinchlik davrlarida boj solig'idan keladigan foyda yiliga 1000 dukatni tashkil qilgan. Xuddi shunday, Xiva xoni xazinasiga tushadigan boj solig'i foydasi yiliga 100 dukatgacha etgan. Shundan ko'rinib turibdiki, Xivada Buxoroga nisbatan savdo aylanishi ancha past bo'lgan.

Bu kabi xolatni biz XVI asr o'rtalarida Xiva va Buxoroga kelgan A. Jenkinson ma'lumotlarida ham uchratgan edik. Bir asr muqaddam Jenkinsonning bergan fikrini G.Tomson va R.Xogglar ham tasdiklab turibdi. Har ikkalasi Buxoro bozorlarida o'zlari olib kelgan movutga xaridor topa olishmagan va bu erda Evropa tovarlari narxi hu darajada pastki tavakkal qilib, xatarli yo'llar bilan tovarlarni olib kelib sotishdan foyda yo'q, degan xulosaga kelishgan.

Aftidan, G.Tompson va R.Xogglar ushbu ma'lumotlarning Rossiya orqali o'tishini hisobga olib, rus hukumatining va rus sanoat doiralarining diqqatini ataylab chalg'itishga uringan ko'rinadi. Mazkur ekspeditsiyadan keyin G.Tompson Buxoroga, R.Xogg esa Peterburga qaytib ketadi.



Xuddi shu davrda Ozarbayjon, Eron va Kaspiybuyi viloyatlarining o'rganilishi natijasida inglizlar bu xududda savdo qilish foydali deb bilishgan. Ular bu xududlardan nafaqat ingliz tovarlari uchun bozor, balki xom ashe manbai sifatida foydalanishni afzal ko'rishgan.

Yuqorida zikr etilgan D.Elton va M.Gremlarning ekspeditsiyasi o'z yo'nalishi bo'ylab vaziyatni o'rganib, ular Mashhadda savdo kontorasini ochib, u orqali ingliz mollari Eron, Afg'oniston, Hindiston va O'rta Osiyoga tarqatish mumkin degan xulosaga keladilar. Buning uchun tovarlarni Londondan Peterburgga, so'ng Astraxan, u erdan Kaspiy dengizi orqali Astrobod va so'ng Mashhadga olib kelishi kerak edi.

Shunday kilib, ekspeditsiyalar natijasida ingliz savdogarlari orzulariga erishgan. D.Elton va M.Gremlar Kaspiy dengizi bo'ylarida ingliz savdosini kengaytirishdan katta foyda olish mumkin deb hisoblashgan. Hatto Eron shoxi Nodirshoxning o'g'li Rizoqulidan «Rus kompaniyasi»ga savdo qilish uchun imtiyozlar berish haqida farmon ham olgan edi.

Yuqoridagi ikkita kompaniya vakillarining bergan ma'lumotlarini tahlil qilish natijasida ularning bir biriga qarama-qarshi xulosaga kelishgani ma'lum bo'ldi. D.Elton bilan M.Grem Volga-Kaspiy savdo yo'li Eronga borish uchun juda qulay va bexavotir, hamda bu erda, Eron va Ozarbayjon viloyatlarida ingliz savdosini kengaytirish Angliya uchun katta foyda keltiradi, deb hisoblashgan.

Shunisi e'tiborga molikki, XVIII asrda hind savdogarlari Astraxanda ham savdo qilishgan ekan. Ma'lumotlarda hind savdogarlarining turli mamlakatlardan, xususan, Xiva va Buxorodan Astraxanga tovarlar olib kelganligi qayd etiladi. Jumladan, 1733-1734 yillarda hind savdogarlari Rossiyaga, xususan, Astraxanga Bokudan 126 to'p, Gilyandan 56 to'p, Darbanddan 12 to'p, Xivadan 3 to'p va Buxorodan 1 to'p tovarlar; 1744-1745 yillarda Gilyandan 50, Bokudan 24, Darbanddan 23, Shemaxadan 1 to'p tovarlar keltirgan. Lekin 1744-1745 yillarda O'rta Osiyodan hind savdogarlarining mol olib kelganligi daftarlarda qayd qilinmagan ekan. XVIII asrning birinchi yarmida hindlarning O'rta Osiyo bilan savdo aloqalari biroz kamroq bo'lgan. Jumladan, 1737 yil hind savdogarlari

Xivadan 1187 rub.lik, 1739 yil 1740 rub.lik va 1742 yil 1181 rub.lik tovar keltirgan. Ma'lumotlarga ko'ra, xiva va buxoro ip gazlamalari, paxtasi, oshlangan qo'y terisi va qo'zi terisini Eronda sotib olishgan. Demak Xivadan hind savdogarlarining Xiva tovarlarini kam olib kelishining sababi, bu tovarlarni hindlar Erondan sotib olib, so'ng Astraxanga keltirilganligi ekan.

Xulosa shulkim, mavjud manbalar, elchi va savdogarlarning ko'rsatmalari, elchilarning kundaliklarida e'lon qilingan xabarlar bizga Xiva xonligining tashqi iqtisodiy aloqalari to'g'risida muhim ma'lumotlarni berishi bilan hozirgi kunda ham o'zining qimmatini saqlab qolmoqda. Keltirilgan dalilalarga asoslanib, Xiva xonligi XVI-XVIII asrlarda Buxoro, Eron, Hindiston va Rossiya davlatlari bilan qizg'in savdo va diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'ygan deyish mumkin.

### **§ 2.3. XIX asrda Xiva xonligining tashqi iqtisodiy aloqalari**

Xiva xonligining qo'shni sharq davlatlari bilan savdo aloqalarini o'rganish uning Rossiya bilan iqtisodiy aloqalari majmuida ko'rib chiqsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi, O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya bilan tashqi iqtisodiy aloqalari so'nggi o'rta asrlarda yildan – yilga tobora jadallashib borganligi va Rossiya tovarlari O'rta Osiyo xonliklari orqali Xitoy, Hindiston , Eron va boshqa mamlakatlarga kirib borganligi kuzatiladi.

Demak, Xiva Rossiya bilan na faqat siyosiy va iqtisodiy munosabatlar o'rnatgan, hattoki u Rossiyaning sharq davlatlari bilan aloqasida vositachi davlat ham bo'lgan. Rossiyaning Xiva va Buxoroga va ular orqali sharq davlatlariga jo'natgan savdogarlari va missiyalarining yozma bildirishnomalari, hisobotlari biz uchun manba vazifasini o'taydi, chunki ularda Xiva xonligining siyosiy va iqtisodiy hayoti haqida batafsilroq malumotlar talayginadir. Masalan: N.A.Xalfin Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo munosabatlarida xivaliklarning muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. Xivaliklar tuyalarda tovarlar bilan Buxoroga borishgan, u erda buxoro tovarlari va chet el

mollarini olib Orengburg, qirgiz cho'llari orqali, yoki Mang'ishloq va Kaspiy dengizi orqali Astraxanga borishgan<sup>75</sup>.

O'rta Osiyo bilan Hindiston va Afg'oniston o'rtasidagi iqtisodiy-savdo aloqalari to'g'risida XIX asrning 30-yillari boshlarida maxfiy topshiriq bilan Buxoroga safar qilgan ingliz agenti Aleksandr Borns ko'p xarakterli ma'lumotlar beradi. A.Borns Astrobod bilan Xiva savdo aloqalari yo'lining notinchligi va doimiy hujum xavfi tufayli unchalik taraqqiy etmaganligini bayon qiladi. Astrobodga bir yilda bitta yoki ikkita Xiva karvoni kelgan bo'lib, ularning har birida 80 yoki 100 tuya yuk keltirilgan. Borns xabariga ko'ra, Xiva bilan Astrobod oralig'i karvon uchun xatarli bo'lganligi sababli savdo karvonlari Kaspiy dengizining sharqiy qirg'oqlari bo'ylab yurgan<sup>76</sup>.

XIX asrning 30-yillari boshlarida O'rta Osiyo bozorlarida ingliz va rus tovarlari o'rtasidagi raqobat tobora kuchaya boradi. Shu davrlarda ingliz tovarlari Afg'oniston orqali O'rta Osiyo xonliklariga, rus tovarlari esa O'rta Osiyo xonliklari orqali Afg'onistonga ko'proq kirib kela boshlaydi. Natijada afg'on savdogarlari xalqaro savdo munosabatlariga tobora keng jalb qilina boshlangan. A.Borns xabariga ko'ra, afg'on savdogarlari rus yarmarkalariga ham tashrif buyurishgan. Buxoro savdogarlari afg'on savdogarlarining ingliz tovarlarini O'rta Osiyo bozorlariga olib kelayotganligidan narozil bo'lishgan<sup>77</sup>.

1838 yilda Qandahor, G'azna, Kobul, Qunduz, Balx, Buxoro kabi Xiva karvonsaroylari ham nil bo'yog'iga to'lib ketgan. Ma'lumotlarga ko'ra 1838 yil Buxoro bozorlarida nilning pudi ikki tillo-yu to'rt yoki besh tangadan sotilgan. Lekin o'sha yillardagi bo'yoqlar sifati avvalgilardan ancha past bo'lgan ekan. Shuning uchun nilning narxi tushib ketgani rost emish. Bundan avg'on savdogarlari sezilarli zarar ko'rishgan. 1838 yili har bir tuya yukdan (16 pud) bir tillodan zarar ko'rilgan ekan<sup>78</sup>.

---

<sup>75</sup> Xalfin N.A. Rossiya i xanstva Sredney Azii (pervaya polovina XIX v.). M., 1974.

<sup>76</sup> Borns A. Puteshestvie v Buxaru. CH. III. M., 1949. c. 172.

<sup>77</sup> Sokolov A.YA. Torgovaya politika Rossii v Sredney Azii i razvitie russko-afganskix torgovix otnosheniy. T. 1971. s. 38.

<sup>78</sup> Svedeniya o proizvodenyax i torgovle Buxarii. Vir. iz jur. «Manufaktura i torgovlya». 1840. Xmir kol. Srednyaya Aziya. T. 1.

Orenburg general-gubernatori Perovski ham afg'on savdogarlarining Buxoro va Xivaga ko'plab ingliz tovarlarini olib kelayotganligini e'tirof qilib, ularni rus tovarlariga nisbatan ancha past narxlarda sotayotganligidan mamnun bo'lgan. Biroq, shunga qaramasdan ingliz tovarlarining xaridorlari kam. Buning sababi afg'onlar ingliz tovarlarini Buxoro va Xiva tovarlariga ayirbosh qilmasdan, faqat naqd pulga sotishadi, deb ta'kidlagan edi<sup>79</sup>.

Afg'onistonning ichki va tashqi tranzit savdo aloqalarida mamlakatda yashovchi afg'on savdogarlari kabi tojiklar, hindlar va eronlik savdogarlar katta rol o'ynagan. Ko'chmanchi afg'on qabilalari hisoblangan povinda vositachi rolini bajargan. Elfinston ma'lumotiga ko'ra, povinda orasida XIX asr boshlarida 3000 f.sterl. boylikka ega bo'lgan bir nechta savdogarlar bo'lgan. Ular O'rta Osiyo bilan Hindiston o'rtasida hamkorlik qilgan.

XIX asrning 40-yillarida Rossiyada Xiva xonligi haqida bir qator maqolalar e'lon qilina boshlaydi. Jumladan, 1840 yilda e'lon qilingan G.Gilmersenning "Xiva, v nineshnem svoem sostoyanii" maqolasida Xivaning Afg'oniston bilan savdo qilishi, hattoki, Xivada 15 afg'on oilasi yashaganligi, ular asosan savdo qilish uchun Xivaga kelishganligi, ba'zilar tabiblik bilan ham shug'ullanganligi ta'kidlangan<sup>80</sup>.

U makolada karvonlardan boj solig'i pul bilan olinishi va aniq soliq miqdori belgilanmaganligi, soliq avval Urganchda, keyinchalik Xivada olinganligini xabar kiladi. U xonlikning qovun, tarvuz, qovoq, sariq va oq sholg'om, turup, sabzi, qand, no'xot, piyoz, turk loviyasi, bodring, kartoshka kabi ekin turlari haqida ma'lum kilib, Xivaning ho'l mevalarga boy emasligi sababli juda qimmat bo'lganligini va uni faqat badavlat kishilar sotib olishganligini ta'kidlagan. Mayiz va jidda Mashhaddan keltirilgan va u aroq tayyorlashda ishlatilgan. Bir pud Eron mayizi 16 tanga (8 rub.) turgan. Mahalliy uzumdan kuchsiz aroq tayyorlangan va uning bir shtofi (chelakning o'ndan bir qismiga barobar keladigan vino, aroq o'lchovi va shu miqdordagi aroq, vino) 5 tanga turgan. Bir funt olma Xozaraspda

---

<sup>79</sup> Sokolov A.YA. O'sha asar. s.38.

<sup>80</sup> Gilmersen G. Xiva v nineshnem svoem sostoyanii. Vir. «Otechestvennie zapiski». 1840. s. 105.

taxminan 10 kop. bo'lgan, tarvuz va qovunlar arzon bo'lib, katta qovun 3 kop.dan 5 kop.gacha sotilgan. Gilmersen Xiva qo'shinlari qilich, nayza, miltiq bilan qurollanganligi, sardorlari sovut kiyganligi, sovut Erondan keltirilganligini ta'kidlagan<sup>81</sup>.

1840 yilda bosilib chiqqan ikinchi maqolada Xivanig ichki va tashqi savdo aloqalari to'g'risida ma'lumot berilgan. Mamlakat ichki savdosi unchalik muhim bo'lmay, unda asosan g'alla va mayda narsalar, qullar sotilganligi xabar qilingan.

Mazkur maqolada Xiva butun Osiyoning savdo yo'llari kesishgan joyda joylashgan, undan Hindiston, Xitoy, Eron, umuman Sharqiy va Janubiy Osiyo mamlakatlariga boradigan yo'llar boshlanadi, deb uning geografik jihatdan qulay ekanligini e'tirof qila turib, yana Xivaning cho'l zunasida joylashganligi uchun o'zining mahsulotari bilan keng savdo qilolmaydi, deb qo'shib qo'yilgan. Xiva Rossiyaga boradigan hamma qisqa savdo yo'llari kesishgan joyda joylashgani uchun Osiyo tovarlari uchun ombor vazifasini o'taydigan joy bo'lib qolgan. Sartlar Osiyoning turli joylaridan tovarlar sotib olib, ularni Orenburg va Astraxanga etkazib bergan va u erda o'z tovarlarini yupqa movut, barxat, kumush, tillo, qand, igna, ustara, pichoq, yupqa bo'z, ko'zgu, qog'oz, mis, qo'rg'oshin va cho'yan idishlar, hamda boshqa Evropa tovarlariga ayirbosh qilgan<sup>82</sup>.

1840 yillarda Buxoroda bo'lgan Xanikov Buxoroning Xiva bilan savdo munosabatlari haqida ma'lumotlar qoldirgan. Amudaryodan yozda o'tish qiyinligi sababli Buxoro Xivaga kuzning oxirlari va qishda savdo karvonlari jo'natgan. Xivadan Buxoroga asosan olma va oshlanmagan teri keltirilgan. Muallifning yozishicha, faqat shu ikki tovar bilan Buxoroda savdoni davom ettirish qiyin, shuning uchun xivaliklar Orenburgdan cho'yan va teri buyumlarini ko'proq sotib olib Xivaga keltirishgan. Rus metal buyumlarining bir qismi Buxoroga ham olib borilgan<sup>83</sup>.

Xiva xonligi haqidagi ma'lumotlardan biri 1843 yili «Manufaktur i

---

<sup>81</sup> O'sha asar. s. 117, 121.

<sup>82</sup> Xiva, ili geograficheskoe i statisticheskoe opisanie Xivinskogo xanstva, sostoyashego teper v voyne s Rossiey, zaimstvovannoe iz raznix otechestvennix i inostrannix pisateley, s izobrajeniyami kostyumov i vida goroda Xivi. M.: 1840. s. 79.

<sup>83</sup> Xanikov N. Opisanie Buxarskogo xanstva. SPb., 1843.

torgovlya» jurnalida nashr qilingan maqola hisoblanadi. Unda yozilishicha, Rossiya, Eron, Qo‘qon va Buxorodan metal buyumlar: qo‘rg‘oshin, mis, temir, cho‘yan oladi. Xiva tovarlari tuya va kemalarda suv yo‘li orqali Rossiya, Eron va Buxoroga olib borilgan.

Maqolada 1837 -1838 yillardagi tillo va kumush tangalar kursining muntazam o‘zgarib turishi haqida ma’lumot beriladi. Xabardan Xivada muomalada bo‘lgan pullar kursi haqidagi ma’lumot ham o‘rin olgan. Unda yozilishicha Xivada tillo pul zarb qilingan. 1 tillo 26-35 tanga yoki 15 rub.ga teng kelgan, 2 tanga (kumush pul) 1 abbosiy chaqaga teng kelgan, 1 abbosiy 1 rub.ga tenglashtirilgan. Demak, 1 tillo qiymat jihatidan 15 rub.ga mos kelsa, u holda 1 tanga 50 rus kop.ga to‘g‘ri kelgan. O‘sha paytda tillo va mis narxi oshib ketgan, ammo Erondan olinadigan kumush narxi pasayib ketgan ekan, tillo 15 rub.ga ko‘tarilgan.

Mazkur makolada Xiva orqali Rossiya Eron va Buxoro bilan savdo qilishi va Xivadan ketadigan tuyadan bir zolotnikdan, Xivaga kirib keladigan tovarlardan esa 1/40 miqdorda soliq olinishi xabar qilingan. Bozorlarda va savdo bo‘ladigan joylarda boj solig‘i olingan. Sotilgan tuya uchun xazinaga 3 rub., ot, ho‘kiz va qoramol uchun 1 r., qo‘ydan 50 kop. soliq olingan<sup>84</sup>.

G.I.Danilevskiyning «Opisanie Xivinskogo xanstva» asaridagi ma’lumotlar orasida Xivaning Qo‘qon kabi Hirot va Mashhad bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri savdo aloqalariga ega emasligi, vaholanki, savdo karvonlari Erondan to‘g‘ri Marv orqali o‘tib, Xiva xonligining hech qayerida to‘xtamay to‘g‘ri Buxoroga o‘tib ketishi qayd etilgan. U Xiva xonligi haqidagi barcha ma’lumotlarni tahlil qilib, Xiva uchun yagona va mumkin bo‘lgan savdo Rossiya bilan savdodir, degan xulosaga kelgan. Xivaliklar o‘zining karvonlirini rus tovarlari bilan to‘ldirib Xivaga olib ketishi mumkin, deb hisoblagan. Boshqa mualliflar kabi, G.I.Danilevskiy Xivada musulmon savdogarlardan 2%, rus savdogarlaridan 5% boj solig‘i olinganligini ta’kidlaydi. Masalan deydi u, 1842 yil Rossiyaga keltirilgan va olib ketilgan tovarlar 700000 rub.gacha etgan bo‘lib, boj solig‘i 35000 rub.ni tashkil qilgan<sup>85</sup>.

---

<sup>84</sup> Svedeniya o Xivinskom xanstve. Vir. iz jur. “Manufaktur i torgovlya”. 1843. Xmir. kol. T. 9. S. 105, 129, 130, 149.”

<sup>85</sup> Danilevskiy G.I. Opisanie Xivinskogo xanstva. ZIRGO, 1851. Kn.: 5. s. 136.

1850-54 yillarda Rossiyaga Buxorodan Orenburg va Troitsk orqali 1193 r. 43 k.lik jami 60 p. 51 f., Toshkentdan Troitsk orqali 21300 r.27 k.lik 1,317p. 34 f. choy keltirilgan. Demak, choy asosan Xitoydan Toshkent orqali Rossiyaga ko'prok keltirilgan ekan. 1853 yilda Xivadan Rossiyaga 160 r.s.ga 4 pud indigo keltirilgan<sup>86</sup>.

P.Nebolsin ma'lumotlariga ko'ra, XIX asr o'rtalarida Xiva Eron va Buxoro bilan savdo qilgan bo'lib, Erondan, deyarli birgina Mashhaddan Xivaga uzunligi 36 arshin (0,711 metr ga teng uzunlik o'lchovi), ya'ni 25 metr) va eni 11-12 vershok (4,4 sm ga barobar uzunlik o'lchovi) ya'ni 48,4-52,8 sm lik) mayda gullik va qirg'oqlari yashil yirik guldastali chit o'ramlari keltirilgan. Bunday chitlarning bir bo'lgi 1,5 tillodan 2 tillagacha sotiladi. Bu tovarlar evaziga Xiva Eronga tanga pul, rus va mahalliy charm, rus movuti, xiva ipagi, kunjut va boshqa buyumlarni chiqaradi. Xivaga Koshg'ardan Qo'qon orqali ko'k choy keltirilgan<sup>87</sup>.

XIX asr 70-yillarida nashr qilingan maqolada Xivaning Astrobod bilan savdo aloqalarida yovmud turkman qabilasi faol ishtirok etgan bo'lsa, cho'l orqali Mashhad Buxoro savdosida esa tekya turkman qabilalari qatnashganligi hikoya qilinadi. Cho'l xududlaridan Xivaga va u erdan Buxoroga asosan qullar, otlar, tuyalar, qo'ylar, gilamlar, kiygiz va mayda qaqir-ququrlar olib borilgan. Qullar fakat pulga sotilgan, kolganlari esa ayirbosh qilingan. Xiva va Buxorodan g'alla, qo'zi terisi, rus metal buyumlari va ip gazlamalar turkman qabilalariga chiqarilgan<sup>88</sup>.

Xiva va cho'l xududlari orqali savdo aytaylik asrlar davomida davom etib kelmaganda edi, XIX asrning 70-yillarida bu darajadagi savdo haqida gap bo'lishi ehtimol edi. Xulosa shulkim, Xiva va Turkmanlar yurti o'rtasidagi savdo o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganki, buni sotiladigan tovarlar ro'yxati ham tasdiklaydi. Xivaning

Astrobod bilan savdosi esa yovmud qabilalari orqali amalga oshirilgan bo'lib, yovmud turkmanlari 100-150 tuyada taroq uchun ishlatiladiga qoraqayin

---

<sup>86</sup> Grigorev V.V. Razbor sochineniya P.I.Nebolsina: "Ocherki torgovli Rossii s Sredneyu Azieyu". 1856. s. 175.

<sup>87</sup> Nebolsin P. Ocherki torgovli Rossii s stranami Sredney Azii, Xivoy, Buxaroy i Kokanom. SPb., 1856

<sup>88</sup> Nashi slsedi v Sredney Azii. Xiva i Turkmeniya s bolshoyu kartoyu. SPb., 1873. s. 34.

daraxti va unchalik ko'p bo'lmagan neft keltirishgan. Eronga chegaradosh turkmanlar ot, tuya, qo'y, gilam, to'z, neft chiqargan, uning o'rniga Erondan qurol, yog'och, porox, tamaki, bo'yok va mevalar keltirilgan<sup>89</sup>.

Xulosa shulkim, mavjud manbalar, elchi va savdogarlarning ko'rsatmalari, fundamental asarlar, hamda rus axborotida e'lon qilingan maqolalar bizga Xiva xonligi haqida, qolaversa xonlikning tashqi iqtisodiy aloqalari to'g'risida muhim ma'lumotlarni berishi bilan hanuzgacha o'z qadrini saqlab qolmoqda. Ko'rib o'tganimizdek, Xiva xonligi XIX asrda Rossiya bilan juda yaqin savdo-iqtisodiy munosabatlariga kirishgan. Xonlik an'anaviy savdo aloqalarini davom ettirgan holda Buxoro, Eron va Hindiston bilan ham munosabatlarni jadallashtirgan. Hattoki, xonlik Rossiya bilan sharq davlatlari o'rtasidagi savdo munosabatlarida vositachi davlat vazifasini ham bajargan.

Biroq Rossiya O'rta Osiyoni bosib olish maqsadlarida Angliya manfaatlari bilan to'qnash kelib qoldi.

1764 yili Hindistondan Fransiyani siqib chiqarilib, uning mustamlakasiga aylantirilishi natijasida Buyuk Britaniya «nigohini» O'rta Osiyoga qaratilishi Rossiyani tashvishga solib qo'ydi va bu ikki imperiya o'rtasida o'zaro raqobat ko'chaydi. Inglizlar josuslik maqsadlarida 1824 yili Markfordni, 1831 yili A. Byornsnini Buxoroga, 1843 yili kapitan Ebbortni Xivaga, Volerni Buxoroga yuborib, O'rta Osiyo to'g'risida ma'lumotlar to'play boshladilar. 1838-1842 yillarda ingliz-afton urushlari natijasida mag'lubiyatga uchrasada O'rta Osiyo bozorini qo'lga kiritish maqsadidan voz kechmagan edi. Angliya hukumati 1841-1842 yillarda o'z maqsadlarini ko'zlab Rossiyaning O'rta Osiyoni istilo qilishining oldini olish maqsadlarida Stoddart va Kannolini xonliklariga maxsus missiya bilan yubordi. Xonliklarning harbiy kuchlarini birlashtirishga Qo'qon va Xiva xonlari (Sheralixon va Olloqulixon) rozi bo'lishdi. Buxoro amiri Nasrullaxon esa ingliz elchilarini qatl qildirdi. Chor Rossiyasi va xonliklar o'rtasida nifoq urug'ini sochib, undan ustakorona foydalandi. Podsho Rossiyasining O'rta Osiyoni tezroq eg'allashidan asosiy maqsadlari nimalardan iborat edi?

---

<sup>89</sup> O'sha asar. 123-b.



1. Bu davrda Rossiya - G'arbiy Evropa mamlakatlari va AQSHdan iqtisodiy jihatdan orkada qolayotgan edi: 1860 yil Rossiya Fransiyadan 7,2 barobar, Gyormaniyadan 9 barobar, Anliyadan 18 barobar kam sanoat mahsuloti ishlab chiqargan edi. Ishlab chiqarilgan mahsulotining sifati past, tannarxi esa yuqori edi. SHu sababli rus tovarlari Evropa bozorida raqobatga bardosh beraolmas edi. Rossiya uchun yangi bozor tekin xom-ashyo manbai kerak edi.

2. 1855-1857 yillardagi Qrim urushida Rossiyaning mag'lubiyatga uchrashi natijasida Bolqondagi «orzusini» amalga olmaganligi O'rta Osiyoning ahamiyatini yanada oshirdi. Ikkinchi tomondan urushda Angliyani Turkiya tomonidan turib Rossiyaga qarshi urushganligi uchun «otni qamchilab O'rta Osiyoni bosib olish unga dimlomatiya tarsakisini» bermoqchi bo'ldi.

3. AQSHdagi 1861-1862 yildagi fuqarolar urushi natijasida Amerika paxtasini Evropa va Rossiyaga kelmay qolishi natijasida Rossiya engil to'qimachilikni qiyin ahvolga solib qo'ydi. Natijada Rossiyaning O'rta Osiyoga nisbatan tajovuskorlik harakati tezlashdi. O'rta Osiyoni Rossiya tomonidan bosib olinishi istilochilik va bosqinchilik harakati edi.

Chor Rossiyasining O'rta Osiyoni bosib olish harakatlarini 3 davrga bo'lish mumkin. Birinchi davr: Chor Rossiyasining O'rta Osiyoni bosib olish harakatlari XVIII asr boshlarida boshlangan edi. Birinchi intilish podsho Petr 1 zamonida 1714-1717 boshlangan edi. Ilk bor buyuk davlatchilik nuqtai-nazaridan turib O'rta Osiyoning boyliklariga ko'z olaytirgan Petr 1 edi. SHu maqsadda 1714 yili Preobrajenskiy polkining poruchigi knyaz Aleksandr Bekovich-CHerkasskiy boshchiligida yuborilgan ekspeditsiya Kaspiy dengizining Sharqiy kirogklarini o'rganib, Krasnovodsk kultigida istehkom qurishi, Xiva xonligiga etib borib xonni rus fuqaroligiga o'tishga undashi, undan Buxoroga o'tib amirni ham Rossiya panoxiga o'tkazishi kerak edi. Amalda ekspeditsiya Krasnovodsk qo'ltig'ida 3 ta istehkom qurdi. Askarlarni bezgak va boshqa kasalliklar bilan qirilib ketishi natijasida ekspeditsiya 1716 yili Astraxanga kaytib ketishga majbur bo'ldi.

Kapitan Ivan Buxgols boshchiligidagi ikkinchi ekspeditsiya 3727 piyoda 617 ta otliq, 2000 kazak askarlar, 230 dengizchi va 22 ta to'p bilan 1715 yilning

boshida Tabolsk yo'liga chiqib Irtish daryosi bo'ylab suzib bordi va Yalishev qo'li yonida qal'a qurdi. Ekspeditsiyami janubga yurishga qalmiqlarning hujumi yo'l qo'ymadi va qaytishda 1716 yili Omsk qal'asini qurib qoldiradi. Ikkala ekspeditsiya ham o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni to'liq bajara olmadi.

1717 yilda poruchik Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi yangi tuzilgan ekspeditsiya Orol dengizining - G'arbiy sohili bo'ylab Amudaryo orqali Xivaga etib SHERG'ozixon bilan muzokaralar olib boradi. SHERG'ozixon xiyla ishlatib ekspeditsiya a'zolarini qirib tashlaydi. Bekovich-Cherkasskiyning boshini esa Xiva bozori darvozasining tepasiga osib qo'yadilar. Qurilgan qal'alarni esa turkmanlar buzib tashlashadi. Shunday qilib, Petr I ning qabih niyatlari shu tariqa amalga oshmay qoladi. Petr I Buxoro xonligini o'ziga tobe qilish maqsadida 1718 yilda elchi F. Benevenini maxsus topshiriqlar bilan Buxoroga yuboradi. Podsho josus elchi orqali xonlikning iqtisodiy, harbiy, fuqarolik va diplomatik ahvoli haqida etarli tasavvurga ega bo'lmoqchi edi. F. Beneveni 1721 yilda Buxoroga etib kelib, o'z faoliyati davomida turli ma'lumotlarni podshoga etkazib ham turdi.

Bu vaqtda ya'ni, XVIII asrning birinchi choragida ko'chmanchi Qozoqlar Yoyiq daryosi va Kaspiy dengizidan Xiva xonligi chegarasiga bo'lgan ulkan hududda Katta, O'rta va Kichik juzga bo'lingan holda istiqomat qilar edilar. Qozoq sultonlari o'rtasidagi o'zaro urushlar ularni tobora zaiflashtirayotgan edi. SHu hududda yashagan qalmiqlar ham tez-tez Qozoqlar ustiga yurish qilib, qonli to'qnashuvlar bo'lib turar edi. 1723 yildagi ocharchilik Qozoqlarga yana qimmatga tushdi. Ular nochor axvolda tashkaridan yordam kutdilar. Kichik juz oqsoqoli Abulxayrxon 1730 yilga kelib . Rossiya davlatiga murojaat qilib, o'z juzining Rossiya panoxiga olishini suradi va 1732 yilda kichik juz Rossiya imperiyasi himoyasiga o'tdi. Abulxayrxon chul orqali O'rta Osiyoga o'tadigan va u erdan qaytadigan rus savdo karvonlarini talonchilik hujumlaridan himoya qilishni o'z zimmasiga oldi. Keyinroq 1739-1740 yillarda O'rta juz, 1747 yilda Katta juz ham Rossiya tobeligiga olindi. Kichik, O'rta va Katta juzlarning Rossiya tobeligiga o'tishi bilan rus hukumatining O'rta Osiyo tomon harakat qilishi uchun qulay imkoniyat yuzaga keldi.

Ikkinchi davr: Chor Rossiyasi, uning keyingi podsholari to XIX asrning ikkinchi yarmigacha asosan o'zining elchilarini josus sayyohatchilarni yuborish orqali Osiyoning tabiatini, boyliglarini, harbiy, iqtisodiy imkoniyatlarini" o'rganishga kirishadi. Birgina Nikolay I podsholigi (1833-1855) va Aleksandr II podsholigi (1855-1881) davrlar Qozog'istonda 103 ga yaqin harbiy qal'a va tayanch punktlari quriladi. 1840 yilning noyabrida Orenburg gubernatori general-mayor V. A. Perovskiy 2 ta zambarak, 40 ta arava, hamda 5000 piyoda askar, 10000 tuyadan iborat harbiy askari bilan Xivaga qarshi yurish boshladi. Biroq cho'ldagi qattiq sovuqlar, kiyim-kechak va suvni. etishmasligi natijasida kasallik ko'payadi. Petrovskiy esa orkaga kaytib ketishga majbur bo'ladi. Endi Rossiya xonliklar bilan diplomatik (ko'prok josuslik maqsadida) va savdo aloqalarini kuchaytirishga harakat qila boshladi. Shu bilan bir vaqtda Rossiya barpo etilgan istehkomlarda urush uchun zarur bo'lgan qurol-aslaha, oziq-ovqat zahiralari, bosqinchilik uchun yurishlarda qo'l keladigan barcha zaruriy ashyolarni tayyorlab bordi va XIX asrlarning ikkinchi yarmida faol harakatlarni boshlab yubordi. Bu uchinchi davr 1852 yildan boshlandi.

Xiva - Rossiya munosabatlarida muhim jihat shunda ediki, o'zaro savdodan har ikkala davlat ham birdek manfaatdor edi.

Xiva savdogarlari uchun Rossiyaga boradigan savdo yo'llari xavfsiz edi. Shuningdek, Xiva xonligida Rossiya zavod va fabrikalari ishlab chiqargan tayyor iste'mol tovarlariga ehtiyoj baland edi. Ayni paytda Rossiya Xiva xonligjga o'z tovarlarini sotadigan bozor deb qarar edi. Rossiya tovarlari Yevropaning ilg'or davlatlari tovarlari bilan raqobat qila olmayotgan bir davrda bu juda muhim edi. Ikkinchidan, Xiva xonligi, Rossiya sanoati uchun zarur xomashyo mahsulotlarini arzon narxlarda yetkazib beruvchi o'lka ham hisoblanardi.

Biroq har ikki davlat o'rtasida yaxshi qo'shnicilik munosabatlarining qaror topishiga to'sqinlik qilgan omillar ham mavjud bo'lgan. Bular: savdo karvonlariga hujum qilish xavfming mavjudligi, har ikki taraf tomonidan Kichik juz qozoqlarini va qoraqalpoqlarni o'z fuqarolari deb hisoblashlari; shuningdek, har ikki

tomonning o'zaro savdodan olinadigan boj hajmi masalasida uzoq vaqt bk to'xtamga kela olmaganliklari bilan bog'liq edi.

N. Muravyov ekspeditsiyasi. Rossiya hukumati - 1819- yilda Xivaga rus armiyasi zobiti N. Muravyovning ekspeditsiyasini jo' natdi. Ekspeditsiyaning maqsadi turkmanlar yerini, Xiva xonligining turkmanlar bilan munosabatini hamda yangi savdo yo'li ochilishi (Xiva - Turkmanlar yeri - Kaspiy dengizining sharqiy qirg'og'i - Boku - Astraxan) istiqbollari o'rganish edi.

Ekspeditsiya dastlab turkmanlarning yovmut qabilasi joylashgan hududda bo'ldi. Yovmutlarning Rossiya fuqaroligiga o'tish istaklarini o'igandi. Shundan so'ng N. Muravyov Xivaga yo'l oldi va Rahimxon qabuliga kirishga ham muvaffaq bo'ldi. Biroq Xiva xoni savdo yo'lining o'zlashtirilishiga rozi bo'lmadi va o'rta Osiyoning boshqa xonliklari bilan munosabatlarida Rossiya harbiy yordamiga tayanish mumkinligi haqidagi taklifni ham rad etdi.

Chunki Muhammad Rahimxon Rossiyaning yovmut qabi-l lasini o'z ftiqaroligiga qabul qilish istagi tagida aslida nima yotishini anglab yetgan edi. Bundan tashqari, Rossiya hukumatining savdo karvonlari xavfsizligini ta'minlash bahonasida chegarada mustahkam istehkomlar qurish haqidagi rejalari Xiva hukmron doiralarini cho'chitib ham qo'ygan edi.

S. Sialkovskiy va V. Peijovskiy ekspeditsiyalari. Rossiya hukumati savdo karvonlari xavfsizligini ta'minlash maqsadida qo'riqchi harbiy qism ajratishga qaror qildi. 1824- yilda Orenburg savdogarlari S. Sialkovskiy boshchiligidagi harbiy qism hamrohligida yo'lga chiqdi. Bu savdo karvoni Buxoro amirligiga borishi kerak edi. 1825- yilning yanvar oyida karvon Xiva qo'shini qarshiligiga uchradi. Xiva amaldori karvonning Buxoroga emas Xivaga yuborilishini talab qildi. S. Sialkovskiy bu talabni rad etdi va orqaga qaytishga qaror qildi. Xiva qo'shini Buxoroga olib boradigan savdo yo'lini bekitib qo'ydi. Bu hodisa Rossiya-Buxoro savdo aloqalariga katta ziyon yetkazish xavfmi tug'dirdi.

Xiva-Rossiya munosabatlari keskinlashgan bir sharoitda Muhammad Rahimxon I vafot etdi. Taxtga o'g'li Olloqulixon o'tirdi. U Xiva-Rossiya munosabatlaridagi keskinlikni yumshatishga urindi.

1826-1829- yil Uardagi Eron - Rossiya va 1828-1829- yillardagi Rossiya-Turkiya urushi Rossiyani Xiva bilan munosabatlarini yanada keskinlashtirishdan o'zini tiyishga majbur etdi. Bu orada Buyuk Britaniya razvedkasi o'rta Osiyo xonliklariga suqulib kira boshladi. Shunday sharoitda Buyuk Britaniya tovarlarining xonliklar bozorini to'ldirish xavfi ham vujudga keldi. Bundan tashqari, Eron bilan urush oqibatida Rossiya-Eron savdo-sotiq ishlarining ahvoli yomonlashdi. Bunday paytda o'rta Osiyo xonliklari bilan savdosotiqni har qachongidan ko'ra rivojlantirish dolzarb masalaga aylandi. Ayni paytda, Rossiya hukumati rus asirlarini ozod etishni ham talab eta boshladi. Biroq Rossiya hukumati Xiva xonligiga nisbatan o'z talablari doirasini tobora kengaytirib bordi. Chunonchi u keyinchalik Xivadan Amudaiyoda Rossiya savdo kemalarining suzishiga ruxsat berishini ham taiab eta boshladi.

Bora-bora Rossiya Xiva bilan munosabatni harbiy yo'l bilan tartibga solish yo'lini tanladi. Shu maqsadda 1839- yilda V. Perovskiy harbiy ekspeditsiyasi tashkil etildi.

Uning ixtiyorida 4 ming piyoda askar, 12 ta to'p va yuk ortilgan o'n ming tuya bor edi. Biroq Ustyurtning qattiq sovug'i, oziqovqat va yem-xashakning yetishmasligi oqibatida ekspeditsiya talafot ko'rdi. Oqibatda, V. Perovskiy orqaga qaytishga majbur bo'ldi. U 1840- yilning iyun oyidagina Orenburgga qaytib kela oldi.

Lekin ekspeditsiya izsiz ketmadi. V. Perovskiy ekspeditsiyasi Xiva xonini Peterburg bilan kelishuv yo'lini axtarishga majbur etdi.

Josus Jeyms Abbot. Xonlikda ingliz razvedkasi ham faoliyat boshladi. Chunonchi, 1840- yilda Xivaga kapitan Jeyms Abbot keldi va u Olloqulixon bilan uchrashdi. U Xiva xonini Rossiyaga qarshi harbiy istehkomlar qurishga da'vat etdi. U bunday istehkomlar qurilishi mumkin bo'lgan joylarni aniqlash bo'yicha ish olib borayotgan paytda Rossiya harbiylari tomonidan asir olindi va Peterburgga jo'natildi. U yerdan Londonga jo'natib yuborildi. Shu tariqa Buyuk Britaniya razvedkasi Xiva va Rossiya o'rtasida haibiy harakatlar keltirib chiqarishdek maqsadiga erisha olmadi.

«Majburiyatlar akti». Rossiya hukumati Xiva xonligi bilan munosabatlarga aniqlik kiritish maqsadida G. Danilevskiy boshchiligidagi elchilik missiyasini yubordi.

Muzokaralar davom etayotgan kunlarda Olloqulixon vafot etdi. Taxtni o'g'li Rahimqulixon egalladi. Muzokaralar yakunida 1842- yilning 27- dekabrda Xiva-Rossiya o'rtasida «Majburiyatlar akti» deb ataluvchi shartnoma imzolandi.

Aktda Xiva xonining Rossiya bilan tinchlik, mustahkam do'stlik munosabatida bo'lishi e'lon qilindi. Bundan tashqari, Aktda Xiva xoniga: Xivaning Rossiyaga nisbatan dushmanlik harakatlaridan voz kechishi, savdo karvonlarining hamda qozoq qabilalarining talanishiga yo'l qo'ymaslik; rus asirlarini saqlamaslik; Rossiya fuqarolarining shaxsiy va mulkiy xavfsizligini ta'minlash kabi majburiyatlar yuklandi.

Shuningdek, ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalariga ham katta e'tibor berildi. Chunonchi, boj to'lovlari Rossiya tovarlari qiymatining 5% miqdoridan oshmasligi belgilab qo'yildi. Biroq «Majburiyatlar akti» qog'ozda qolib ketdi. o'zaro munosabatlar keskinlashib bordi.

## Xulosa

O'rtta Osiyoda shakllangan uchta mustaqil - Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari tarixiga bag'ishlab alohida-alohida asarlar yaratilgan edi.

Bu tarixiy asarlar mazkur xonliklarning tarixini o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladilar. Xiva xoni va tarixnavisi Abulg'oziy tomonidan tarixiy asarlar yozish an'anasi, keyinchalik atoqli tarixnavislar va ajoyib shoirlar SHermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy va Muhammad YUSuf Bayoniy tomonidan davom ettirilgan edi. Xorazm tarixi bo'yicha yozilgan hamma tarixiy asarlarni o'zbek tilida ijod etgan mazkur tarixnavislar bir-birlarining ishini davom ettirib, uzoq davrni o'z ichiga qamrab olgan Xiva xonligi tarixini o'rganishda ajoyib ma'lumotlarga boy qator qimmatli tarixiy asarlar yaratildi.

Bitiruv malakaviy ishda ushbu asarlarning tahlili asosida Qo'ng'irotlarning hukmronligi davrida davlatning tashqi va ichki siyosatiga doir qator yangi fikrlar o'rganildi.

Qo'ng'irot urug'idan bo'lgan Eltuzar (1804 — 1806) o'zini xon deb e'lon qiladi. Shundan so'ng Xorazmda shu suloladan Muhammad Rahimxon I (1806 — 1825), Olloqulixon (1825-1843), Rahimqulixon (1843—1846), Muhammad Aminxon (1846 — 1855), Abdullaxon (5 oy), Qutluqmurodxon (7 oy), Sayid Muhammadxon (1856 — 1865), Muhammad Rahimxon II — Feruz (1865 — 1910), Asfandiyorxon (1910 — 1918)lar hokimlik qilgan. Xivalik tarixchi olimlar tomonidan XVII — XIX asr va XX asr boshlarida Xiva xonligi tarixi bilan bog'liq siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganishda mufassal ma'lumot beruvchi «Shajarayi turk», «Shajarayi tarokima», «Firdavs ul-iqbol», «Riyoz ud-davla», «Zubdat ut-tavorix», «Jomi' ul-voqeoti sultoniy», «Gulshani davlat», «Shohid ul-iqbol», «Shajarayi Xorazmshohiy» va «Xorazm tarixi» nomli qator qimmatli tarixiy asarlar yaratildi.

Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, bu qo'lyozma tarixiy asarlar o'z davrining ilg'or fikrli kishilari tomonidan yozilgan bo'lsa-da, o'sha davrdagi hukmdorlar ra'yidan o'tolmasdan, ularning manfaatlariga mos qilib yozilgan edi. Chunki mualliflar shu tarzda yozishga majbur edilar. Bu asarlarda qo'shni xalqlar sha'niga

aytilgan «tugʻyonkor», «isyonkor», «mufsid» kabi noloyiq iboralarni ham uchratamiz.

Oʻz davri va muhitining taʼsiri tufayli mavjud kamchiliklarga qaramay, Xorazmda tasnif etilgan mazkur tarixiy asarlar, Xiva xonligining XVII — XIX va XX asr boshlaridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini oʻrganishda aniq maʼlumot beruvchi asosiy manba boʻlib xizmat qiladilar.

Xiva xonligining siyosiy hayotida roʻy bergan katta voqealardan biri Xiva xonligini podsho Rossiyasi tomonidan bosib olinishi edi. Muhammad Yusuf Bayoniy oʻzining «Shajarayi Xorazmshohiy» asarida bu masalaga juda mufassal toʻxtalib oʻtgan va bu borada juda qimmatli maʼlumotlarni keltirgan.

Ayniqsa, shaharlarni mudofaa qilishda olib borilgan ishlar, koʻrsatilgan qarshiliklarga qaramay, Xiva xonligiga qarashli shaharlarning podsho Rossiyasi armiyasi tomonidan birin-ketin bosib olinishi va chor generallarining bu erda olib borgan shafqatsiz siyosati aniq koʻrsatib berilgan. Bayoniy shu davrda ana shu voqealar ichida yashagan, ularni oʻz koʻzi bilan koʻrgan va u voqealarning tirik shohidi edi. Bu masalani aniq maʼlumotlar asosida oʻrganishda va yoritishda Xiva tarixnavisi Bayoniy tomonidan yozilgan bu tarixiy asar katta ahamiyat kasb etadi.

Xiva xonligining Buxoro, Qoʻqon xonliklari, Rossiya va Eron bilan olib borgan diplomatik va savdo munosabatlarini oʻrganishda ham bu asarlarda anchagina maʼlumotlarni uchratamiz. Biz Abulgʻoziy, Munis, Ogahiy va Bayoniy asarlarini oʻqir ekanmiz, Xiva xonligiga Buxoro, Kuqon xonliklaridan, Rossiya va Erondan koʻplab elchilar kelganligi va ularga javoban u mamlakatlarga ham elchilar yuborilganini koʻramiz. Xonlikning iqtisodiy hayotida feodal er egaligi, sugʻorish ishlari va yangi erlarni oʻzlashtirish va soliq masalasi asosiy masalalardan edi. Bu masalalar boʻyicha ham mazkur tarixnavislarning asarlarida ancha maʼlumotlar keltirilgan.

Xonlikning iqtisodiy hayotida asosiy masalalardan biri boʻlgan soliq masalasiga kelsak, xivalik tarixchilar oʻz asarlarida voqealarni bayon etar ekanlar, xonlik hududida boʻlgan shaharlar va qishloqlarga kimlarning soliq yigʻish uchun borganligi, qaysi davrlarda qaysi xalqlarning Xiva xonligiga soliq toʻlaganliklari



haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tganlar. Savdogarlardan, shuningdek, Xiva xonligi hududidan o'tgan Buxoro xonligiga tegishli savdogarlardan ham olingan soliqlar haqida ham ba'zi ma'lumotlarni uchratamiz.

XVII — XIX asrlarda va XX asr boshlarida Xiva xonligida qurilish ishlari bo'yicha ham ma'lum ishlar amalga oshirilgan. Madrasalar, masjidlar, qal'alar, bog'lar, ko'priklar va boshqa shu kabi inshootlar qurilgan.

Qo'ng'irotlar hukmronligi XX asr boshlarida mustabid sovet davlati xokimiyatining o'rantilishi bilan inqirozga uchradi. Lekin ikki asrdan ortiq davrda hukmronlik qilgan bu sulola davrida Xiva xonligi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniyat va fan sohalarida etakchi davlat darajasiga ko'tarildi.

**3-BOB. MAVZU YUZASIDAN BIR SOATLIK DARS ISHLANMASI**  
**“Qo‘ng‘irotlar inoqlar hukmronligi davrida xiva xonligi ichki va tashqi siyosati” mavzusidagi ma‘ruza mashg‘ulotining texnologik modeli**

<b>Ma‘ruzaga ajratilgan vaqt</b> –2 s.	<b>Talabalar soni</b> – 20 nafar
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli</b>	Savol javob, ma‘ruza
<b>Mashg‘ulot rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Xiva xonligining vujudga kelishi.</li> <li>2. <i>Xiva xonligida qo‘ng‘irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi</i></li> <li>3. XVIII-XX asrlarda Xiva xonligining ichki siyosati.</li> <li>4. Xiva xonligining tashqi siyosati.</li> </ol>
<b>Mashg‘ulotining maqsadi</b>	Talabalarni Xiva xonligi taxtiga qo‘ng‘irotlarning kelishi va ularning ichki va tashqi siyosati bilan tanishtirish
<b>Pedagogik vazifalar:</b> <ol style="list-style-type: none"> <li>1) Xiva xonligining vujudga kelish tarixi bilan tanishtirish</li> <li>2) Xiva xonligi taxtiga qo‘ng‘irotlarning kelishi sabablarini tushuntirish.</li> <li>3) Xiva xonligining ichki va tashqi siyosatini</li> </ol>	<b>O‘quv faoliyati natijalari:</b> <ol style="list-style-type: none"> <li>1) Xiva xonligining vujudga kelish tarixi bilan tanishadilar.</li> <li>2) Xiva xonligi taxtida qo‘ng‘irotlarning xukumronlik tarixini o‘rganadilar.</li> <li>3) Xiva xonligining qo‘ng‘irotlar davridagi ichki va tashqi siyosati haqida bilimga ega bo‘ladilar.</li> </ol>
<b>Ta‘lim metod va usullari</b>	Blits-so‘rov, ekspert topshiriqlari, chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-

	ketligi, matn bilan ishlash, toifalash jadvali
<b>Ta'limni tashkil etish shakli</b>	Individual va kichik guruhlarda ishlash
<b>Didaktik vositalar</b>	Uslubiy qo'llanma, proektor, markerlar, tarqatma materiallar
<b>Ta'limni tashkil etish sharoiti</b>	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
<b>Nazorat va baholash</b>	Yozma (konspekt qilish) va og'zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat; ikki ballik shkala asosida baholash.

**“Qo‘ng‘irotlar inoqlar hukmronligi davrida xiva xonligi ichki va tashqi siyosati” mavzusidagi ma‘ruza mashg‘ulotning texnologik kartasi**

<b>Ish bosqichlari va vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O‘qituvchi</b>	<b>Talaba</b>
<b>Tayyorlov bosqichi</b>	Ma‘ruza mashg‘uloti mavzusi va rejalari bilan tanishtiradi. Ma‘ruza rejasidagi masalalarni konspekt qilishda foydalaniladigan adabiyotlarni taqdim etadi (1-ilova).	Daftarlariga yozib olishadi. O‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishadi.
<b>1. O‘quv mashg‘ulotiga kirish bosqichi (10 daq)</b>	1.1. Mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar va baholash mezonini bilan tanishtiradi (2-ilova). 1.2. Mavzu bo‘yicha blits-so‘rov o‘tkazib, talabalarni mashg‘ulotga chorlab oladi (3-ilova).	Savollarga javob beradilar.
<b>2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)</b>	2.1. Talabalarning Xiva xonligida qo‘ng‘irotlar boshqaruvi davridagi ichki va tashqi siyosatni o‘rganish maqsadida chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi metodini taqdim etadi (4-ilova).	Xiva xonligi tarixiga oid bilimlar tizimini to‘g‘ri o‘ringa joylashtiradilar
	2.2. Xiva xonligining ichki va tashqi siyosatidagi tub o‘zgarishlar anglab olinishiga erishish maqsadida ikki kundalikni to‘ldirishni so‘raydi (5-ilova).	Ikki qisimli kundalikni individual tarzda to‘ldiradilar

	2.3. Qo'ng'irotlar sulolasining olib borgan siyosatini tarixiy dalillar misolida o'rganiladi (6-ilova).	Kichik guruhlariga bo'linadilar va matn ustida ishlaydilar
<b>3. YAkuniy bosqich (20 daqiqa)</b>	3.1. Mashg'ulotga doir umumiy xulosalarni bayon etadi.	Tinglaydilar va fikr bildirishadi
	1.2. Talabalar tomonidan to'plangan ballarni e'lon qiladi.	O'z ballarini daftarlariga yozib olishadi

### 1-ilova

#### “Qo'ng'irotlar inoqlar hukmronligi davrida xiva xonligi ichki va tashqi siyosati”

Reja:

5. Xiva xonligining vujudga kelishi.
6. *Xiva xonligida qo'ng'irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi*
7. XVIII-XX asrlarda Xiva xonligining ichki siyosati.
8. Xiva xonligining tashqi siyosati.

#### Adabiyotlar:

1. X. Ziyoev. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T. «SHarq» .1998 y.
2. Icxoqxon Junaydullaxo'ja o'g'li Ibrat. Farg'ona tarixi. T. «Kamalak». 1991 y.
3. Davlatyor Raxim, SHohnazar Matrasul, Feruz - shoh va shoir qismati. T. «G. G'ulom», 1991 y.

4. Mulla Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston, Qarshi «Nasaf» 1992 yil.
5. Majid Hasaniy. Turkiston bosqini. T. «Nur»,1992y
6. Mirzaolim Mushrif. Qo‘qon xonligi tarixi. T. «G. G‘ulom».1995 y.
7. SH. Karimov. Qafasdagi kush orzusi.T. 1992Y.
8. Gulyamov H.G. Srednyaya Aziya I Rossiya: istoki formirovaniya mejgosudarstvennix otnosheniy. T.,”Universitet” 2005 g. 3-60 st.

**2-ilova**

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- 1) mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,5 ball;
- 2) topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 1,5 ball.

**3-ilova**

**“Qo‘ng‘irotlar inoqlar hukmronligi davrida xiva xonligi ichki va tashqi siyosati” mavzusiga doir blits-so‘rov savollari**

1. Xiva xonligi qachon tashkil topgan?
2. Xiva xonligi taxtiga qo‘ng‘irotlar sulolasi qachon keladi?
3. Xiva xonligining ichki siyosati nimalarda o‘z aksini topadi?
4. XIX-XX asrlarda Xiva xonligining tashqi siyosatida qaysi davlatlar etakchi o‘rin tutadi?
5. Xiva-Rossiya munosabatlarini tushuntiring?

**4-ilova**

**“Qo‘ng‘irotlar inoqlar hukmronligi davrida xiva xonligi ichki va tashqi siyosati”ni o‘rganish maqsadida chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi topshirig‘i**

**Quyida keltirilgan metodlar bilan tanishing va ularni mohiyatiga ko‘ra pastda ko‘rsatilgan ustunlarga joylashtiring.**

Xiva

SHayboniylar

Qo‘ng‘irotlar

Ichki siyosat

Tashqi siyosat

inoqlar

ijtimoiy

iqtisodiy

davlat

jamiyat

**Iqtisodiy tushuncha**

**ijtimoiy tushuncha**

**hududiy tushuncha**

**Xiva xonligi davlat boshqaruvi topshirig‘i**

Quyida keltirilgan jadvalning birinchi qismida Xiva xonligining davlat boshqaruviga oid jumlarlar keltirilgan. Jadvalning ikkinchi qismida jummalarga xos xususiyatlarni yozib qo‘yish lozim.

<b>Etnos nomi</b>	<b>Etnoslarga xos xususiyatlar</b>
Xiva	
Shayboniylar	
Qo‘ng‘irotlar	

**V. Guruhlarda ishlash:**

Har bir guruhga alohida-alohida topshiriq beriladi. Topshiriqqa javob matn asosida tayyorlanadi.

1- guruhga topshiriq.

Qo'ng'irotlar sulolasi qay tariqa hokimiyat tepasiga kelganligini bayon eting.

2- guruhga topshiriq.

Xonlikda inoqlar qanday mavqeni egallaganliklari va qo'ng'irot qabilasi boshlig'i Muhammad Amin inoq qay tariqa hokimiyatni egallaganligini ko'rsating.

3- guruhga topshiriq.



Muhammad Amin inoq va Muhammad Rahimxon I o'z hokimiyatlarini mustahkamlash yo'lidagi harakatlarini taqqoslab xulosa chiqaring.

4- guruhga topshiriq (iqtidorli o'quvchilar uchun).

Quyidagi tayanch tushunchalarga matn tuzing:

soxta xon, betaraf xon, siyosiy tarqoqlik, nisbiy barqarorlik.

3. So'ngra talabalar kichik guruhlarda matnni o'qishga kirishishadi. So'ngra kichik guruhlar navbati bilan o'zlariga taqdim etilgan matn mazmunini muhokama qilishdi: ayrimlari o'qilganlar yuzasidan o'z fikrini bayon etdi, qolganlari esa ularning fikrlarini to'ldiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YHATI

### I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

1. I. Karimov – O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li. Xalq so‘zi 31 avgust 2007 y.
2. I. Karimov Sharq gavhari – zamin sayqali. Samarqand shahrining 2750 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqi. Xalq so‘zi 26 avgust 2007 yil.
3. I. Karimov Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo‘lidan yanada izchil harakat qilish xalqimiz uchun farovon tkrmush sharoiti yaratish- asosiy vazifamizdir. T. ”O‘zbeiston” 2007 y.
4. I. Karimov Bu bayram barchamizniki – butun xalqimizniki (16 yillik tantanali marosimdagi bayram so‘zi) Xalq so‘zi 2007 yil 1 sentyabr.
5. I. Karimov Bunyodkor xalqimizning azmu shijoatining amaldagi ifodasi. Toshguzar – Boysun – Qumqo‘rg‘on temir yo‘lining ishga tushirilishiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali marosimda so‘zlagan nutqi. Xalq so‘zi 2007 yil 25 avgust.
6. I. Karimov O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi. Xalqaro ilmiy ommabop konferensiyadagi nutqi. Xalq so‘zi 2007 yil 15 avgust.
7. I. Karimov. O‘zbek xalqining islom madaniyati rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasining yuksak ehtiromlari. (Turkiston press nodavlat axborot agentligi muxbiriga bergan intervyusi) Xalq so‘zi 23 fevral 2007 yil.
8. I. Karimov «Biz tanlagan yo‘l demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li» T., t. 11, «O‘zbekiston», 2003 y. 266-267 betlar.
9. I.Karimov. Sog‘lom xalq, sog‘lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi. Prezident I.Karimovning O‘zR Konstitutsiyasining 16 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. «Ma’rifat», 2004 yil, 8-dekabr.
10. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokralashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T., «O‘zbekiston», 2005 y.
11. Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo‘lmaydi. T., «O‘zbekiston», 2005 y.

12. I. Karimov - «O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida...» T., O‘zbekiston. 1997 yil. 14-bet.

13. I. Karimov - «Tarixiy xotirasiz - kelajak yo‘q» T. SHarq 1998 yil.

14. I. Karimov «Biz tanlagan yo‘l demokratik taraqqiyot va ma‘rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li» T., t. 11, «O‘zbekiston», 2003 y. 266-267 betlar.

13. I.Karimov. Sog‘lom xalq, sog‘lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi. Prezident I.Karimovning O‘zR Konstitutsiyasining 16 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. «Ma‘rifat», 2004 yil, 8-dekabr.

14. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokralashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T., «O‘zbekiston», 2005 y.

15. Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo‘lmaydi. T., «O‘zbekiston», 2005 y.

## **II. DARSLIKLAR:**

1. O‘zbekiston tarixi T., «YAngi asr avlodi» 2003 y. 299-334 betlar.
2. Istoriya Uzbekistana. T. Universitet, 2004 g. s. 74-87.
3. O‘zbekiston tarixi - Toshkent Davlat universiteti - T. Universitet, 1997 yil. 57-67 betlar.

## **III. O‘QUV QO‘LLANMALAR**

1. Azamat Ziyov «O‘zbek davlatchiligi tarixi T. «SHarq» 2000 y. 101-103, 111-113, 122-123, 133-134, 146-149 betlar.

2. Shodmonqulov I. Ergashev Q. Ergashev N. «O‘zbekiston tarixidan ma‘ruza matnlari» TDIU. 2005 y. 70-86 betlar.

4. I.Shodmonqulov, Q.Ergashev, H.Hamidov, N.Ergashev, I.Abdurahmonov, F.Ernazarov “O‘zbekiston tarixidan ta‘lim texnologiyalari” TDIU. 2006 y.

5. I.Shodmonqulov, Q.Ergashev, H.Hamidov, N.Ergashev, I.Abdurahmonov, F.Ernazarov “O‘zbekiston tarixidan o‘quv-uslubiy majmua” TDIU. 2006 y.

#### IV. MONOGRAFIYALAR VA ILMIY MAQOLALAR:

1. Azamat Ziyov «O‘zbek davlatchiligi tarixi T. «SHarq» 2000 y. -B.122.
2. X. Ziyoyev. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T. «Sharq» .1998 y.
3. X. Ziyoyev. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T. «Sharq» .1998 y.
4. A. Abdurasulov “XIVA” Toshkent “O‘zbekiston” nashryoti 1997 yil 106,107 betlar
5. A. Abdurasulov “Xiva tarixiy-etnografik ocherklar” Toshkent 1997 yil. 35-bet.
6. Abdurasulov A. Xiva.-T.: 1997.
7. Axundjanov E.A. K istorii razvitiya knijnego dela v Xive // Obщestvennie nauki v Uzbekistane, 1997, № 7-8. — S. 100–103.
8. -B.75.
9. Bayoniy M.YU. Shajarayi Xorazmshohiy // “Meros” to‘plamida, 246–bet.
10. Bobojonov D., Abdurasulov M. Firdavsmonand shahar.- Xiva, 2008.
11. Borns A. Puteshestvie v Buxaru. CH. III. M., 1949. c. 172.
12. Gilmeren G. Xiva v nineshnem svoem sostoyanii. Vir. «Otechestvennie zapiski». 1840. s. 105.
13. Grigorev V.V. Razbor sochineniya P.I. Nebolsina: “Ocherki torgovli Rossii s Sredneyu Azieyu”. 1856. s. 175.
14. Gulyamov H.G. Srednyaya Aziya I Rossiya: istoki formirovaniya meygosudarstvennix otnosheniy. T., “Universitet” 2005 g. 3-60 st.
15. Gulyamov H.G. Srednyaya Aziya I Rossiya: istoki formirovaniya meygosudarstvennix otnosheniy. T., “Universitet” 2005 g. 3-60 st.
16. Davlatyor Raxim, SHohnazar Matrasul, Feruz - shoh va shoir qismati. T. «G. G‘ulom», 1991 y.
17. Davlatyor Raxim, SHohnazar Matrasul, Feruz - shoh va shoir qismati. T. «G. G‘ulom», 1991 y.

18. Danilevskiy G.I. Opisanie Xivinskogo xanstva. ZIRGO, 1851. Kn.: 5. s. 136.
19. Zelkina E. Ocherki po agrarnomu voprosu v Sredney Azii. M.: 1930. s. 20.
20. I. Shodmonqulov, Q. Ergashev, H. Hamidov, N. Ergashev, I. Abdurahmonov, F. Ernazarov "O'zbekiston tarixidan ta'lim texnologiyalari" TDIU. 2006 y
21. Icxoqxon Junaydullaxo'ja o'g'li Ibrat. Farg'ona tarixi. T. «Kamalak». 1991 y.
22. Icxoqxon Junaydullaxo'ja o'g'li Ibrat. Farg'ona tarixi. T. «Kamalak». 1991 y.
23. Istoriya Uzbekskoy SSR. V 2-tomax. T. 1. — T.: Gosizdat, 1956. — S. 323.
24. Q Ergashev. O'zbekistonda xalq ta'limining rivoji tarixi. T. «O'qituvchi», 1998 y.
25. Qurbonboev S. Pitnak tarixi. — Urganch: Xorazm, 2001. — 20–bet.
26. Qo'shjonov O., Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar. -T.: 2007.
27. Lobachevskiy V. Xivinskiy rayon. — T., 1912. — 74–bet.
28. Majid Hasaniy. Turkiston bosqini. T. «Nur», 1992y
29. Matniyozov M. Xiva xoonligida yashagan xalqlar va ularning xonlik ijtimoiy–siyosiy hayotida tutgan o'rni va roli. — 62–68–bet.
30. Matrasulov SH. Pervaya tipografiya v Xorezme // "Xorezmskaya pravda", 1994, 22 sent.
31. Maxmud ibn Vali. More tayn otnositelno doblestey blagorodnix (geografiya). Vvedenie, perevod, primechaniya, ukazateli B.A. Axmedova. T.: 1977. s.24-25.
32. Maxmudov M. Pervaya bolnitsa v Xorezme // "Sov–e zdr–e", 1984, № 1. — S. 67–69.
33. Mahmudov M. Sayyid Islomxo'ja nomi berilsa // "Xorazm haqiqati", 1993, 30 iyun.

34. Mahmudov M. Xorazm: tarix, odamlar, voqealar. — Urganch, 2004. — 139–bet.
35. Mirzaolim Mushrif. Qo‘qon xonligi tarixi. T. «G. G‘ulom». 1995 y.
36. Mirzaolim Mushrif. Qo‘qon xonligi tarixi. T. «G. G‘ulom». 1995 y.
37. Mulla Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston, Qarshi «Nasaf» 1992 yil.
38. Mulla Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston, Qarshi «Nasaf» 1992 yil.
39. Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. -T.: 2002.
40. Nashi slsedi v Sredney Azii. Xiva i Turkmeniya s bolshoyu kartoyu. SPb., 1873. s. 34.
41. Nebolsin P. Ocherki trgovli Rossii s stranami Sredney Azii, Xivoy, Buxaroy i Kokanom. SPb., 1856
42. Russko-indiyskie otnosheniya v XVII veke. Sbornik dokumentov. M., IVL., 1958. s. 162.
43. Sadikov A. Ekonomicheskie svyazi Xivi s Rossiyey. — S. 28.
44. Sadikov A.S. Nekotorie dannie o zdravooxranenii v dorevoluyusionnoy Xive // Materiali po izucheniyu Sredney Azii i Uzbekistana. Nauchnie trudi TashGU. Novaya seriya, vip. 233. Istoricheskie nauki, kn. 48. — Tashkent, 1964. — S. 3.
45. Safarov O., Sultonov O. Oqmachit xotiralari // Xorazm haqiqati, 1993, 23 mart.
46. Svedeniya o proizvedeniyax i trgovle Buxarii. Vir. iz jur. «Manufaktura i trgovlya». 1840. Xmir kol. Srednyaya Aziya. T. 1.
47. Svedeniya o Xivinskom xanstve. Vir. iz jur. “Manufaktur i trgovlya”. 1843. Xmir. kol. T. 9. S. 105, 129, 130, 149.”
48. Sokolov A.YA. Torgovaya politika Rossii v Sredney Azii i razvitie ruskofganskix trgovix otnosheniy. T. 1971. s. 38.
49. Toshkent. 1990 g. Str. 170
50. To‘xtametov T.G. Rossiya i Xiva v konse XIX — nachale XX veka.-M., 1969 — 104–bet.

51. O'zbekiston tarixi - Toshkent Davlat universiteti - T. Universitet, 1997 yil
52. O'zR. MDA, f. I-125, op. 1, d. 273, l. 1, 3, 6, 8 va boshqalar.
53. O'zR. MDA, f. I-2, op. 1, d. 309, l. 15-orqasi.
54. Fayziev A.F. Remeslo Xivi v pervoy polovine XIX veka. // Pozdnefederalniy gorod Sredniy Azii.
55. Xalfin N.A. Rossiya i xanstva Sredney Azii (pervaya polovina XIX v.). M., 1974.
56. Xanikov N. Opisanie Buxarskogo xanstva. SPb., 1843.
57. Xanikov YA.V. Poyasnitelnaya zapiska k karte Aralskago Morya i Xivinskago xanstva, s ix okrestnostyami. SPb., 1851. s.39-40.
58. Xudoyberganov M. Xorazm paxta tozalash sanoati tarixi, 12-bet.
59. Hasanov S. Xorazm ma'naviyati darg'alari. -T.: 2001.
60. Chuloshnikov A. Torgovlya Moskovskogo gosudarstva s narodami Sredney Azii XVI-XVII vv. V kn.: Materiali po istorii Uzbekskoy, Tadjikskoy i Turkmenskoy SSR. CH. 1. L-1932. s. 68
61. SH. Karimov. Qafasdagi kush orzusi. T. 1992Y.
62. Yuldashev U. Ot litografii do kompyutera // "Xorezmskaya pravda", 2003, 19 iyunya.
63. Yunusova L.I «Torgovlya gorodov Sredniy Azii, Azerbaydjana i Irana v 30-40-x gg. XVIII v. (po evropeyskim istochnikam) // Pozdnefeodalniy gorod Sredney Azii. T.: 1990. s.122-128.
64. Yuxt A.I. Torgovlya Xivi i Buxari s Rossiey cherez Astraxan (20-40-e godi XVIII v.) // Pozdnefeodalniy gorod Sredney Azii. T., 1990. s. 118.
65. YAzberdiev Almaz. K voprosu o nachalnom priode knigoizdatelskoy deyatelnosti Xivinskoy litografii (1874-1880) // "Izvestiya" AN Turkmenskoy SSR. Seriya: Obshchestvennie nauki, 1971, № 4.

**Internet saytlari:**


**www. TSUE.uz.**

**www. Fan.uz.**

**www. Akademi uz.**







Умид Бекмуҳаммад

ГЕНЕРАЛ БҮЛГАН ХОНЛАР






Наше гостя съ дально Востока. Хивинскій Ханъ Саядъ-Магомедъ.  
Изъ фототр. Троицкаго, графъ Д. Барятинскій.













Xiva Xonligi (1511-1920)